T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA’LIM

ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023, № 1

*DJURAYEV Risbay*
**Bosh muharrir**

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.
O‘z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po‘yxatdan o‘tgan.

Jurnalda e’lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta’lim» jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi lozim.

**Tahrir hay’ati:**
*Abdug‘appor QIRQIZBOYEV*
*Uzoqboy BEGIMQULOV*
*Nargiza RAXMANQULOVA*
*Xolboy IBRAGIMOV*
*Laylo AXMEDOVA*
*Roxatoy SAFAROVA*
*Leyla DJURAYEVA*
*Dono G‘ANIYEVA*
*Lobar QARAXANOVA*
*Dusmurod DJURAYEV*
*Baxodir AKBAROV*

**Tahririyat manzili:**
100027, Toshkent sh.,
Furqat ko‘chasi,
174-uy.
O‘zPFITI
Tel.: (71)-245-92-34
(93)-503-52-07
e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

3 ***X.I.I.Ibraimov***
Qiyosiy pedagogikaning «insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili» vazifalaridan kelib chiquvchi nazariy va amaliy vazifalar

8 ***A.A.Abdurashidov, M.X.Karimova***
Maktabgacha ta'limni tashkil etishning zamonaviy va milliy modeliga ayrim qarashlar

12 ***M.A.Aslonova, D.B.Sultanova***
Maktabgacha va maktab ta'limida badiiy gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etish

16 ***F.A.Zaripova, S.A.Axmedova***
Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish

20 ***K.A.Yusupov***
Qoraqalpoq adabiyotini o'qitishning ilmiy metodik masalalari

24 ***M.K.Qalandarova, A.P.Berdiyev***
Ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual rivojlantirish faolliklarini ta'minlovchi omillar

28 ***N.A.Rajabova***
O'zbekistonda oliy ta'lim muassalarining ta'lim sifatini ifodalovchi milliy reyting tizimi

33 ***N.G.Dilova***
Uzluksiz ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabatlarga kirishish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik shartlari

38 ***C.C.Yarashev***
O'zbekiston harbiy oliygohlarida bo'lajak ofitserlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish

41 ***S.U.Ibraximov***
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak sport murabbiylari kasbiy mahoratini rivojlantirishda pedagogik strategiyalarning mazmun mohiyati

46 ***Z.Palibayeva***
Uzluksiz ta'limda sport - tarbiyaning muhim vositasi sifatida

49 ***Р.Х.Джураев***
Как сформировать интерес к книге дошкольников

54 ***М.Т.Умаралиева***
Критериальная оценивание на уроках биологии

59 ***Н.С.Алимова***
Педагогические аспекты формирования интереса учащихся к физической культуре

## UZLIKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

64 ***Z.X.Mamatova***
Uzluksiz ta'limda informatikani o'qitishni takomillashtirish

68 ***Sh.A.Ro'zaliev***
Uzluksiz ta'lim jarayonida o'qitish geymlaridan foydalanish

## MA'NAVIY TARBIYA

72 ***N.Z.Madaminova, E.F.Yusupova***
Talaba yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish muammolari

76 ***G.M.Qurbonova***
Oliy ta'lim muassasalaridagi talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish shakllari

80 ***X.U.Rizayeva***
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini kompleks faoliyatlarda takomillashtirishda umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar

## KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

83 ***A.I.Saidov***
Yoshlarning sog'lom turmush tarzi tog'risidagi tasavvurlari shakllanishining etnopsixologik xususiyatlari

88 ***A.S.Djurayev***
Ijtimoiy fan sohasi bitiruvchilarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida innovatsion moslashuvchan boshqaruvning o'rni va ahamiyati

93 ***G.Sh.Fayzullayeva***
O'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirishda shaxsga asoslangan o'qitish (Person-based learning)ning mohiyati

97 ***I.A.Teshaboyev***
Maktab amaliyotchi psixologining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi haqidagi ayrim mulohazalar

102 ***Y.I.Turganov***
Uzluksiz ta'lim tizimida baholash bo'yicha pedagogik faoliyatni rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish muammolari

106 ***S.I.Qulmamatov, J.J.Bekbolayev***
O'quvchilarning maktabga moslashuvini ijtimoiy-psixologik asoslari

109 ***З.Абдураззокова***
Когнитивный метод музыкального развития детей дошкольного возраста

# QIYOSIY PEDAGOGIKANING «INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI» VAZIFALARIDAN KELIB CHIQUVCHI NAZARIY VA AMALIY VAZIFALARI

***X.I.IBRAIMOV,***
*O'zPFITI direktori,*
*pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi.*
*Shavkat Mirziyoyev*

*Mazkur maqolada so'nggi yillarda respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar va ularning samarasi, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha muallifning shaxsiy fikr va mulohazalari, shuningdek, qiyosiy pedagogikaning «insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili» vazifalaridan kelib chiquvchi nazariy va amaliy vazifalari, Finlyandiya ta'lim tizmi va uning kuchli tomonlari muhokama qilinadi.*
***Kalit so'zlar:*** *Qiyosiy pedagogika, ta'lim sifati, xalq ta'limi, tarbiya, Finlyandiya ta'lim tizimi, Uchinchi Renessans.*

*В данной статье описаны реформы, осуществленные в системе образования нашей республики за последние годы и их результаты, а также, обсуждаются личные размышления и мнения автора о повышении качества образования, рассматривается теоретические и практические задачи сравнительной педагогики, вытекающие из задач "Год заботы о человеке и качественного образования", обсуждается финская система образования и ее сильные стороны.*
***Ключевые слова:*** *Сравнительная педагогика, качество образования, народное образование, образование, финская система образования, Третье Возрождение.*

*This article describes the reforms carried out in the education system of our republic in recent years and their results, as well as discusses the author's personal thoughts and opinions on improving the quality of education, considers the theoretical and practical tasks of comparative pedagogy arising from the tasks of the "Year of care for person and quality education", discusses the Finnish education system and its strengths.*
***Key words:*** *Comparative pedagogy, quality of education, public education, education, Finnish education system, Third Renaissance.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning butun O'zbekiston xalqi va Parlamentga 2023 yil uchun murojaatida: «Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi. Ma'rifatparvar jadid bobolarimizning bu so'zlari deputat

va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois, maktablarda ta'lim sifati hamda jamiyatda o'qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023 yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'ladi» [1] deya bildirgan fikrlari bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston yoshlari ilm olishi va ilmga asoslangan dunyoning bir qismiga aylanishi uchun bugungi kunda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xalq ta'limi vazirligi bergan ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda O'zbekistonda 10130 ta umumta'lim maktablari mavjud bo'lib, ularning 2730 tasi shaharlarda, 7408 tasi esa qishloqlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Bugungi kunda maktablarda 6246491 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

Maktablarda jami 502867 nafar o'qituvchi faoliyat ko'rsatib, shundan 343961 nafarini ayollar, qolgan 158726 nafarini erkaklar tashkil etadi.

Maktab o'qituvchilarining 26929 nafari oliy toifaga, 74703 nafari birinchi toifaga, 118478 nafari ikkinchi toifaga ega bo'lib, 282577 nafar o'qituvchilar tegishli toifalarga ega emas.

Prezidentimiz 2020 yil 30 oktyabr kuni mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha mulohazalarini bildirar ekan, maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidlagandi. Bu borada jahonning eng ilg'or mamlakatlar tajribasi bilan tanishish, ta'lim sifatini yaxshilashda milliy va xorijiy tajribalarning eng afzal tomonlarini qiyosiy tahlil qilish masalasi kun tartibiga chiqadi. Prezidentimiz ham shunday mamlakatlardan biri bo'lgan Finlyandiya tajribasi misol qilib keltirgan edi.

BMT ning 2018 yilgi baxtli mamlakatlar reytingida Finlyandiya 1-o'rinni egallagan [3]. Keyingi yillarda ham Skandinaviya davlatlari kabi yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. 5.536.146 sonli aholisining jon boshiga yalpi ichki maxsuloti sal kam 54 ming dollarni tashkil etadi.

Finlyandiya so'nggi yillar davomida bir qator xalqaro reytinglarda muntazam ravishda nufuzli o'rinlarni egallab keladi. Ular bunday natijaga ta'lim tizimiga kiritilgan sarmoya va bilimga asoslangan iqtisodiyotni yaratish hisobiga erishdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bilamizki, ushbu mamlakat bugungi kunda umumiy savodxonlik, tabiiy va matematika fanlari o‘qitilishi bo‘yicha dunyoda eng ilg‘orlardan biri. Umuman finlar ta’lim sohasida izchil ravishda yuqori natijalarni egallab kelmoqda.

Finlyandiyada ayni paytda asosiy e’tibor ta’lim sifatiga qaratilgan. Ta’lim jarayoni doimo mamlakat ishlab chiqarish sektori ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq kechadi. Ya’ni Finlyandiya ta’lim jarayonlariga yondashuvni o‘zgartirish va o‘quvchilarni imtihonga emas, hayotga tayyorlash evaziga ushbu ko‘rsatkichlarga erishdi.

Tadqiqotchilar finlar erishgan muvaffaqiyat omillarini uch guruhga ajratadi [4]:

– o‘qituvchilar salohiyati;
– ta’lim sohasidagi davlat siyosati;
– fin madaniyati.

Birinchi omil, ya’ni o‘qituvchilar salohiyati, avvalo, o‘quv dasturiga bog‘liq. O‘rta maktabning eng yaxshi bitiruvchilari bo‘lajak o‘qituvchilar sifatida tanlab olinadi. Ular uchun alohida maktab belgilanadi va bo‘lg‘usi pedagoglar dars vaqtlarining 10-15 foizini ushbu maktablarda o‘tkazadi. Talaba-o‘qituvchilar maktablarda barcha kerakli o‘quv materiallari bilan ta’minlanadi, ularga alohida xona ajratiladi. Bu bilan ular ham dars jarayonini kuzatishadi, ham maktab faoliyatida bevosita ishtirok etadi, muayyan tajriba va ko‘nikma hosil qiladi.

O‘qituvchilarning moslashuvchanligi va mustaqilligi ta’lim sifatini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Agar ular malaka oshirishni xohlasa, ma’muriyat har doim qo‘llab-quvvatlaydi. O‘qituvchi malaka oshirish kursida olgan bilim va ko‘nikmalarini boshqa hamkasblari bilan baham ko‘rishi tavsiya etiladi.

Ikkinchi omil, ya’ni ta’lim sohasidagi davlat siyosati izchil va uzoq muddatli strategiya, bilimga asoslangan bo‘lib, jamiyatga sodiqlik, ta‘limda teng imkoniyatlar va mahalliy hokimiyatning ta’lim sohasidagi vakolatlarining kengligi bilan izohlanadi. 1970 yildan buyon muvaffaqiyatli amal qilib kelayotgan mazkur omillar natijasida kuchli ta’lim tizimi yaratildi.

Ta’lim siyosati bilan bog‘liq yana bir muhim jihat – bu, ta’lim muassasalari bilan markaziy hamda mahalliy boshqaruvning muvozanati. Mahalliy hokimiyat organlari, maktab va o‘qituvchilar mustaqil ravishda qaror chiqarish yoki qabul qilish vakolatiga ega. Bu, o‘z navbatida, ularga o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda ham katta imkoniyat beradi, ham mas‘uliyat yuklaydi.

Uchinchi omil, ya’ni fin madaniyati jamiyatda ta’lim muassasalari va o‘qituvchilarga bo‘lgan yuksak ishonch, o‘qituvchining mavqei va obro‘i yuqori ekani bilan bog‘liq.

O‘qituvchilar salohiyati – ta’lim muassasalari muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri. Sinf rahbari ham, fan o‘qituvchisi ham o‘zi o‘qitadigan fanni juda yaxshi biladi, o‘quvchilarning darsda faol bo‘lishlari uchun rang-barang o‘qitish metodikasidan foydalanadi.

Bundan tashqari, fin jamiyatida kitobxonlik madaniyati juda yuqori. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning muvaffaqiyatga erishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kutubxonalar ko‘p va doimo gavjum.

Finlyandiya ta’lim tizimining 7 ta asosiy tamoyili mavjud: tenglik, bepul ta’lim, individuallik, amaliylik, ishonchlilik va o‘qituvchilar salohiyati, ixtiyoriylik hamda mustaqillik.

Maktab hayotiga doir boshqa tafsilotlar:

1. Maktablar hududi o‘ralmagan, kiraverishda qo‘riqchilar yo‘q. Aksariyat maktablarning kirish darvozasi avtomatik tizimga ega, binoga darslar jadvali asosida kirish mumkin.

2. Darsda bolalar parta va stolda o‘tirishi shart emas, polda (gilamda) o‘tirish ham mumkin. Ba’zi maktablarda sinflar divan va kreslolar bilan jihozlangan. Kichik maktab inshooti gilamchalar bilan ta‘minlangan.

3. Forma yo‘q, kiyimga nisbatan qandaydir talablar ham yo‘q, o‘quvchilar istagan kiyimda kelish mumkin. Almashtirish uchun qo‘shimcha poyabzal talab qilinadi, lekin kichik va o‘rta zvenodagi bolalar paypoqda yurishni ma‘qul ko‘rishadi.

4. Iliq havoda darslar ko‘pincha ochiq havoda maktab oldida, maysalar ustida yoki maxsus jihozlangan qatorlarda o‘tkaziladi. Tanaffus vaqtida kichik maktab o‘quvchilari albatta ko‘chaga olib chiqiladi.

5. Uy vazifalari kamdan-kam beriladi. Bolalar dam olishlari kerak. Ota-onalar bolalar bilan dars qilishga majbur emas, buning o‘rniga pedagoglar muzey, o‘rmon yoki suzish havzasiga oilaviy borishni tavsiya qilishadi.

6. «Doska oldida» o‘qitish usuli qo‘llanmaydi, bolalar materialni so‘zlab berish uchun doska oldiga chaqirilmaydi. O‘qituvchi darsga umumiy tus beradi, so‘ngra o‘quvchilar orasida yurib, ularga vazifalarni bajarishga yordam beradi va jarayonni nazorat qiladi. O‘qituvchining yordamchisi (fin maktablarida o‘qituvchi yordamchilari ham bo‘ladi) ham xuddi shu ish bilan band bo‘ladi.

7. Daftarga qalam bilan yozish va qancha xohlasa, shuncha o‘chirish mumkin. O‘qituvchi ham vazifani qalamda tekshirishi mumkin.

8. Shunisi quvonarliki, finlarning farzandlari tunda asabiy zo‘riqishdan uyg‘onmaydi, tezroq katta bo‘lishni orzu qilmaydi, ularda maktabga nisbatan

nafrat yo'q, o'quvchilar navbatdagi imtihonlarga tayyorlanib, o'zlari va butun oila a'zolarini qiynamaydi. Xotirjam, sermulohaza va baxtli fin bolalari kitoblar mutolaa qilishadi, tarjimasiz (original tilda) filmlar ko'rishadi, kompyuter o'yinlari o'ynashadi, rolik va velosipedlarda uchishadi, musiqa va teatr pesalari yaratishadi, qo'shiq kuylashadi. Ular hayotdan quvonib yashashadi va buning orasida ta'lim olishga ham ulgurishadi.

Finlyandiya maktablaridagi ta'lim tizimi qisqa satrlarda mana shunday. Ehtimol, u kimgadir noto'g'ridek tuyulishi mumkin. Finlar mukammallikka da'vogarlik qilishmaydi va erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolishmaydi, hatto eng yaxshi tizimda ham kamchiliklar bo'lishi mumkin. Ular mamlakatdagi maktab tizimi jamiyatdagi o'zgarishlarga qanchalik to'g'ri kelishini doimiy ravishda tadqiq qilishadi.

Uchinchi Renessans poydevori maktabda qo'yilmoqda. Prezidentimiz Murojaatnomasida «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da belgilangan pedagogik islohotlarning metodologik asoslari, prinsiplari belgilab berildi. Biz ularga asoslanib, ta'lim sifatini oshirishga differensiallashgan yondoshuv, tarbiyaviy ishlarni yuksak texnologiyalar asosiga qurish, o'quvchilarda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, til, kasb, kompyuterni o'rgatishni zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqib, maktablarimizga joriy qilamiz.

Biz Prezidentimizning tashabbuslaridan ilhom olib, «Quchoq ochib maktablarga boraylik!», degan tashabbusni ko'tardik. Bunda ota onalarni, mahalla, nuroniylar, keng jamoatchilik, ilm-fan va davlat tashkilotlarni ilmiy-amaliy hamkorlikka chaqiramiz. Maqsadimiz – ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda o'qituvchining yonida bo'lish, uni qo'llab-quvvatlash bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2023 yil uchun Murojaatnomasi matnidan https://kun.uz/uz/news/2018/12/28/prezident-murojaatnomasi-toliq-matn

2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: O'qituvchi, 1992. - B.22.

3. https://theworldonly.org/indeks-schastya-2018/

4. Ta'limga tikilgan sarmoya [Matn] / Nashrga tayyorlovchi Abbos Serobov. - Toshkent: «Akademnashr», 2022. - 192 b

# MAKTABGACHA TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY VA MILLIY MODELIGA AYRIM QARASHLAR

***A.A.ABDURASHIDOV,***
*Qo'qon davlat pedagogika instituti (PhD)*
***M.X.KARIMOVA,***
*Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi*

*Maqolada maktabgacha ta'limni tashkil etishning zamonaviy va milliy modeliga ayrim qarashlar va mulohazalar yoritilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim muassasalari tizimini rivojlantirish, respublikamizda bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb qaralishi hamda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-hukukiy sharoitlar yaratilishi kerakligi ta'kidlab o'tiladi.*

***Kalit so'z va iboralar:*** *Tashkiliy-hukukiy sharoitlar, islohotlar, strategik maqsadlar, konstitutsiyaviy huquq, pedagogik texnologiya va metodlar, defektolog-tarbiyachi.*

*В данной статье рассматриваются некоторые аспекты современной и национальной модели организации дошкольного образования, а также затронуты вопросы развитие системы дошкольного образования республики Узбекистан, особенная важность полностью привлечь на сегодняший день детей в ДОО и создавать благоприятные условия для развития и образования.*

***Ключевые слова:*** *Организационно-правовые условия, стратегические цели, конституционные права, педагогические методы и технологии, воспитатель-дефектолог.*

*This article discusses some aspects of the modern and national model of organizing preschool education, as well as touches upon the development of the system of preschool education in the Republic of Uzbekistan, the particular importance of fully attracting children to preschool today and creating favorable conditions for development and education.*

***Key words:*** *Organizational and legal conditions, strategic goals, constitutional rights, pedagogical methods and technologies, teacher-defectologe.*

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlarda inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi keltirilgan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umri davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda eng avvalo oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim muassasasining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 30 dekabr kuni matbuotda e'lon qilingan «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari trtrisida»gi karori ushbu tizim faoliyatini yangi boskichga kutarish, soxani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya kilishga xizmat kilishi shubxasiz. Albatta, mazkur masalaga e'tibor kecha yoki bugun paydo bulib kolgani yuk. Ortga nazar tashlaydigan bulsak, utgan 25 yillik mustakillik davrida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov raxnamoligida mamlakatimizda ta'limni tubdan islox kilishning muxim boskichlari amalga oshirilib, moxiyatan xech kaysi bir davlatda mavjud bulmagan uzluksiz ta'lim tizimi shakllantirildi. Ya'ni, yosh avlodning maktabgacha ta'lim muassasalaridan to oliy ta'limgacha bulgan uzluksiz bilim olishlari, kasb urganishi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yunalishiga aylandi.

Bu borada, ayniksa, maktabgacha ta'lim muassasalari tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'lim soxasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb karaldi. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, kulay tashkiliy-xukukiy sharoitlar yaratildi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan mazkur soxadagi isloxotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmogini xozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya kilishga karatilayotgan e'tibor zamirida xam kelajagimiz egalarining xech kimdan kam bulmay ulgayishlari xamda buyuk ajdodlarga munosib voris bulib voyaga etishlarini ta'minlashdek ezgu maksad mujassam.Jumladan, davlatimiz raxbarining karori bilan tasdiklangan Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish buyicha 2017-2021 yillarga muljallangan dasturda keng kulamli strategik maksadlar, muxim vazifalar belgilangani bilan axamiyatlidir. Xususan, xujjatda bugungi kundagi xayotiy talab va extiyojlar, soxada echimini kutayotgan masalalar xamda xali ishga solinmagan imkoniyatlar xisobga olinganligi barchamizni kuvontiradi.Ayniksa, kelgusi besh yillikda 2200 ta maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash, jumladan, kishlok axoli punktlarida yangi maktabgacha ta'lim muassasalarini kurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, ukuv-metodik kullanmalar, multimedia resurslari bilan ta'minlash xamda ushbu maksadlar uchun jami 2,2 trillion sum mablag ajratilishi kuzda tutilayotgani ushbu qaror uz ichiga nechoglik keng kulamli vazifalarni kamraganligini kursatadi. Xdkikatdan xam, bugungi kunda kishlok joylarida maktabgacha ta'lim muassasalari sonini keskin oshirish zarurati

kurinmokda. Ayrim kishlok sharoitida yashaydigan yosh onalar uchun bolalar bogchasi masalasi xayotiy extiyojga aylangan. Albatta, bu extiyoj bejiz emas. Maktabgacha ta'lim muassasalari, birinchidan, maktab yoshiga kadar bulgan bolalarning umumiy savodini chikarish, bolalarda Vatanni sevish, u bilan gururlanish xissini uygotish, Konstitutsiyani urgatish, dunyokarashini kengaytirish imkonini berayotgan bulsa, ikkinchidan, yosh bolali onalarning mexnat kilishga oid konstitutsiyaviy xukukini ruyobga chikarishga xam xizmat kiladi. Kolaversa, xududlarda namunaviy loyixalar asosida barpo etilayotgan yangi uy-joy massivlarida yosh oilalar farzandlari uchun bolalar bogchalari sonini kupaytirish zarurati paydo bulmokda.

Qarorga muvofik, ayni shu maksadda joylarda xorijiy tajribadan va mamlakatimizning iklim sharoitlaridan kelib chikkan xolda, namunaviy loyixa asosida 70 va 120 urinli 50 ta zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarining bunyod etish xamda mavjud muassasalarning 1167 tasini rekonstruksiya kilish, 983 tasini mukammal ta'mirlash orkali kengaytirish nazarda tutilmokda. Bu orkali bolalarning maktabgacha ta'limga kamrovini 1,5 barobar oshirishga erishiladi. SHu bilan birga, karorga kura kishlok joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar badal tulovini 30 foizgacha kamaytirish nazarda tutilayotgani kam ta'minlangan va kup bolali oilalar uchun engillik yaratadi. Albatta, bu boradagi isloxotlar samarasini soxa talablariga tulik javob bera oladigan kadrlarsiz tasavvur etish kiyin. Shu sababli tizimdagi pedagog xodimlar maxoratini ilgor usullar orkali muntazam oshirib borish mexanizmini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbik etgan xolda, uzluksiz metodik xizmat kursatish ishlarini takomillashtirish masalasi xam dolzarb sanaladi. Ayni shu omillarni inobatga olgan xolda karorda maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish ukuv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan xolda takomillashtirish vazifasi belgilangani ayni muddaodir. Chunki, biz uz oldimizga farzandlarimizning xar tomonlama intellektual, axlokiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maksadini kuygan ekanmiz, shubxasiz, pedagog-tarbiyachilarning malakasini oshirish borasidagi mavjud tajribalarni zamonaviy talablar darajasida takomilashtirishimiz zarur. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalarini psixolog, defektolog kabi mutaxassislar bilan ta'minlash xam bugungi kun talabidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Фарберман Б. Илғор педагогик технологиялар.-Т.: «Фан», 2000 й.

2. Йўлдошев Ж.Г., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари: -Т.: «Тарбиячи», 2004 й.

3. Толипова Ж.О. Педагогик технологиялар-дўстона муҳит яратиш омили. -Т.: ЮНИСЕФ, 2005 й.

4. Толипов У .1С, Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари (ўқув қўлланма).-Т.: «Фан» нашриёти,2006 й.

5. Мирзиёев Ш.М. «2017-2021-йилларда мактабгача таълим тизимини яна такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори. Т.:-2016й. 2 декабр.

6. Н. Қаюмова. Мактабгача педагогика. Т.: ТДПУ 2017йил

7. Файзуллаева Н. Педагогик билимлар - ўқитувчи касбий маҳоратининг назарий асоси //Узлуксиз таълим ж. - Т.: 2006. 6-сон

8. Файзуллаева Д.М., Ганиева М.А., Неъматов И. Назарий ва амалий ўқув машғулотларда ўқитиш технологиялари тўплами / Мет.ўқлл. Ўрта махсус, касб-ҳунар таълимида инновацион таълим технологиялари сериясидан - Т.: ТДИУ, 2013. - 137 б.

9. Холиқов А. Педагогик маҳорат. -Т.: Дарслик. Иқтисод -молия, 2011.-420 б.

10. Nazirova Guzal. (2022). MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY ONGNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(5), 35-39.

11. Abdurashidov, Adhamjon. «Pedagogical Technology Used To Determine And Increase The Effectiveness Of Development Of Entrepreneurship In Students Through National Crafts.» PalArch’s Journal of Archaeology of Egypt/ Egyptology 17.7 (2020): 13658-13664.

12. Abdurashidov, Adhamjon. «DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN STUDENTS THROUGH NATIONAL CRAFTS, TAKING ADVANTAGE OF PEDAGOGICAL FACILITIES.» Journal of Critical Reviews 7.7 (2020): 1573-1576.

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMIDA BADIIY GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH

**M.A.ASLONOVA,**
NavDPI, «Jismoniy madaniyat»
kafedrasi dotsenti, p.f.n
**D.B.SULTANOVA,**
NavDPI, Jismoniy tarbiya fakulteti
2-kurs talabasi

*Badiiy gimnastika asosan estetik qoidalarga rioya qilishga o'rgatadi, tana go'zalligi tushunchasini shakllantiradi, musiqalilikni, sezgirlikni tarbiyalaydi Musiqa va turli xil raqslar badiiy gimnastikada muhim o'rin egallaydi. Musiqa jo'rligida, musiqani xirgoya qilish, o'sha loyiqlik va ritmni sezish, musiqa bilan harakatning birligini rivojlantiradi.*

***Kalit so'zlar:*** *Badiiy gimnastika, sport turi, safdagi mashqlar, ritmik ashqlar,akrobatika mashqlari, badiiy gimnastikaga oid predmetlarsiz mashqlar, mashg'ulot.*

*Художественная гимнастика в основном учит соблюдать эстетические правила, формирует представление о красоте тела, воспитывает музыкальность, чувственность музыка и различные танцы занимают важное место в художественной гимнастике. Под аккомпанемент музыки, напевая музыку, это чувство достоинства и ритма развивает единство движения с музыкой.*

***Ключевые слова:*** *Художественная гимнастика, вид спорта,упражнения в строю, ритмические упражнения, акробатические упражнения, упражнения без предметов, связанные с художественной гимнастикой, тренировка.*

*Rhythmic gymnastics, sports, exercises in the ranks, artistic exercises, acrobatic exercises, exercises without disciplines related to rhythmic gymnastics, training.*

***Key words:*** *Rhythmic gymnastics, sports, exercises in the ranks,rhythmic exercises, acrobatic exercises, exercises without subjects related to rhythmic gymnastics, training.*

Badiiy gimnastika asosan estetik qoidalarga rioya qilishga o'rgatadi, tana go'zalligi tushunchasini shakllantiradi, musiqalilikni, sezgirlikni tarbiyalaydi. Musiqa va turli xil raqslar badiiy gimnastikada muhim o'rin egallaydi. Musiqa jo'rligida, musiqani xirgoya qilish, o'sha loyiqlik va ritmni sezish, musiqa bilan harakatning birligini rivojlantiradi. Dunyo halqlariga halq ijodiyoti bilan birga tanishtiradi. Ular orqali bola musiqani his qilishni, o'zining takrorlanmasligi va individualligini ifodalaydi. Musiqa bilan harakat hamohangligida, o'yinlar orqali muloqot jarayonida, badiiy gimnastika mashqlarini bajarish bo'yicha mashg'ulotlarda bolalarning musiqiy-nafosat qobiliyatlari, harakatlanish malaka va ko'nikmalari rivojlanadi. Mazkur sport turi sharofati bilan bolalar o'zlarining beso'naqay harakatlanishidan,

qomatsizligidan, ortiqcha uyalchanligidan xoli bo'la oladi.

Maktabgacha va maktab ta'limida jismoniy mashqlar xususiyatlariga ko'ra qo'yidagi guruhlarga bo'linadi.

– Umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari;
– Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlari;
– Xoreografik mashqlar
– Ritmik mashqlar
– Buyumsiz bajariladigan mashqlar;
– Predmetlar yordamida bajariladigan mashqlar (koptok, obruch, skakalka)

Maktabgacha va maktab ta'limida pedagogik talablardan kelib chiqib, dasturning barcha vositalarini turli xil ta'sirlari quyidagicha izohlanishi mumkin.

Maktabgacha va maktab ta'limida umumiy jismoniy tayyorlash mashqlari

Safdagi mashqlar: saf tortish, burilishlar, harakatlanish turlari, safda masofa saqlash, eng asosiysi ularning maydonda oriyentirovka qila olish funksiyalarini rivojlantirish;

Predmetlarsiz umumiy rivojlantirish mashqlari (qo'l va yelka bog'lamlari, musqo'l, gavda va oyoqlar uchun) predmetlar yordamida (koptok, obruch, gimnastik tayoqcha), snaryadda (gimnastika o'tirg'ichi, shved (devori) to'sig'i) har xil musqo'l guruhlarini rivojlantirish uchun yo'naltirilgan.

Boshqa sport turlaridagi mashqlar – yengil atletika mashqlari (yugurish, yurish, joydan uzunlikka sakrash, yugurib kelib uzunlikka sakrash, uloqtirish), chang'i (yurish, ko'tarilish), sport o'yinlari (voleybol, basketbol, badminton, tennis) harakatli o'yinlar, turizm (sayrlar, poxodlar alohida musqo'l guruhlari uchun, maqsadli yo'naltirilgan jismoniy yuklamalar uchun zarurdir. Umumjismoniy tayyorgarlik mashqlari ham umumiy, ham maxsus vazifalarga qaratilgan. Ular (UJTM) shug'ullanuvchilarni faollashtiradi, tashkil qiladi, oldinda turgan ishlarga chog'laydi, xar xil jismoniy tayyorgarlikka (ko'maklashadi) qomadni to'g'ri shakllanishiga ko'maklashadi.

Maktabgacha va maktab ta'limida ritmik mashqlar:

– buyumlarsiz ritmik gimnastika komplekslari;
– buyumlar bilan ritmik gimnastika komplekslari (to'p, skakalka-sakrash arqonchasi, gimnastik tayoqcha).

Kompleks mashqlari musiqa jurligida bajariladi, birxil musiqa ritmida, bu bolalarni musiqa ritmida tarbiyalashga yordam beradi. Yurak-tomir, qon almashuvi, asab sistemalariga ijobiy ta'sir etib, tik qomadni shakllantirishga yordam beradi.

Akrobatik elementlar tanani boshqarishni, egiluvchanlikni, muvofiq harakatlanishni tarbiyalashga yordam beradi. Umurtqa pog'onasini to'g'ri shakllanishiga, vestibulyar apparatini shakllanishiga, demak m.a.t. mustahkamlashga,

mushaklarni plastikligini va elastikligini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Maktabgacha va maktab ta’limida badiiy gimnastikaga oid predmetlarsiz mashqlar:

– prujina va to‘lqinsimon harakatlar, qo‘llarni yoymoq, muvozanat, burilishlar, sakrashlar.

Maktabgacha va maktab ta’limida badiiy gimnastikaga oid predmetlar bilan bajariladigan mashqlar.

– to‘p, obruch-aylana, skakalka (sakrash arqonchasi) otishlar, ilib olishlar, aylanib tushishlar, aylanishlar, qo‘llarni yoyish.

Maktabgacha va maktab ta’limida predmetlar bilan bajariladigan mashqlar – chidamlilikni, chaqqonlikni, tezlikni rivojlantirishdagi bebaho vositadir. Bu mashqlar predmetlarni maydondagi harakatlanishlarini taqsimlash va ularning tana harakati bilan uyg‘unlashtirish malakasi bilan bog‘liq.

Maktabgacha va maktab ta’limida badiiy gimnastika mashqlariga o‘rgatish jarayoni shartli ravishda uch bosqichga bo‘linadi:

1. Yangi mashqlarga o‘rgatishning boshlang‘ich bosqichi;
2. Chuqurlashtirilgan holda o‘rgatish;
3. Mashqlarni mustahkamlash.

Maktabgacha va maktab ta’limida birinchi bosqichda o‘rgatish musiqa hamohangligida yangi harakat to‘g‘risida umumiy tasavvurni yaratishga qaratilgan. Qiz bolalar musiqa, o‘nga mos keluvchi mashqlar shakli haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar va musiqa asarini tinglaydilar.

Maktabgacha va maktab ta’limida ikkinchi bosqichda bolalar musiqani to‘g‘ri tushunish, o‘nga muvofiq keluvchi harakatlarni bajarish malakasini egallaydilar. Bu bosqichda musiqaga mos keluvchi asosiy harakatlarni egallash o‘rgatiladi.

Maktabgacha va maktab ta’limida uchinchi bosqichda egallangan harakatlar mustahkamlanadi. Bunda mashqlarni bajarish yo‘li bilan harakatlar mustahkamlanadi. Badiiy gimnastikada o‘qitishning so‘zdan foydalanish, ko‘rgazma orqali idrok etish, amaliy mashqlar kabi an’anaviy metodlar qo‘llaniladi.

Maktabgacha va maktab ta’lim badiiy gimnastika mashg‘ulotlarida so‘zdan foydalanish metodi – bu o‘qitish metodi bo‘lib, uning yordamida turli vazifalar yechiladi, ya‘ni musiqa asarlari mazmuni ochib beriladi, musiqa bilan bog‘liq holda bajariladigan harakatlar texnikasi tushuntiriladi. Qo‘llaniladigan usullar: suhbat, hikoya, tushuntirish, muhokama, musiqa hamohangligidagi harakatlarni so‘zlar orqali sharhlash.

Maktabgacha va maktab ta’lim badiiy gimnastika mashg‘ulotlarida ko‘rgazmali idrok qilish metodi o‘rgatilayotgan harakatlar, mashqlar, plakatlar, kinogrammalar, rasmlar, musiqani tinglashni tezroq, mustahkam o‘zlashtirishga ko‘maklashadi.

Maktabgacha va maktab ta’lim badiiy gimnastika mashg‘ulotlarida amaliy

metodlar: Maktabgacha va maktab ta'lim badiiy gimnastika mashg'ulotlarida mashqlarni qismlarga bo'lib o'tish metodi har xil mashqlarni o'zlashtirishda keng foydalaniladi. Amalda har bir mashqni, harakat ifodasini yaxshilashda, tayanch harakatni aniqlash uchun xohlagan fazada to'xtatish mumkin.

Maktabgacha va maktab ta'lim badiiy gimnastika mashg'ulotlarida o'yin metodi -syujetli-rolli, harakatli sport o'yinlariga asoslangan. Bu metod ta'limning emotsionalligini oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalari qizlari uchun bu ta'lim metodi juda mos keladi.

Maktabgacha va maktab ta'lim badiiy gimnastika mashg'ulotlarida tayyorlov qismi – shug'ullanuvchilar yengil mashqlar yordamida oldiga qo'yilgan topshiriqlarni bajarishga tayyorlanishadi.

Maktabgacha va maktab ta'lim badiiy gimnastika mashg'ulotlarida asosiy qism – asosiy topshiriqlar bajariladi, ya'ni badiiy gimnastikaga xos mashqlar va elementlari bajariladi.

Maktabgacha va maktab ta'lim badiiy gimnastika mashg'ulotlarida xulosa qismi – shug'ullanuvchilar keyingi faoliyatga yoki dam olishga o'tishlari uchun, tez tiklanish jarayonini o'tkazishga moslangan mashqlar.

Maktabgacha va maktab ta'limida qizlar badiiy gimnastikasi – bu har tomonlama kamol topgan sport turlaridan biri. Unda jismoniy yuklamalar egiluvchanlikni, harakatlar muvofiqligi ritmi plastikligini his qilishni rivojlantiradi. Gimnastikachi qizlarning har doim qaddi to'g'ri, qomati go'zal harakatlari plastik va chiroyli bo'ladi. Bu esa qizlar va ayollar uchun juda muhim. Masalan, badiiy gimnastika bilan shug'ullangan qizaloq keyin raqs mashg'ulotlariga osongina o'tib keta oladi. Shu bilan bir qatorda badiiy gimnastikada qizlar o'zlarini sportning boshqa barcha tomoshabop turlarida ko'rsata olishdek takrorlanmas malakani egallaydilar. Tabassum, yelkalarni burish, boshni egish, har bir harakat-bularning barchasi bu yerda aniq hisoblangan, chiroyli va ishonchliligi bilan ajralib turadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 23 dekabrdagi PQ-449-son qarori

2. Musaev O. Oliy o'quv yurti o'qituvchisining pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari. Monografiya.- Toshkent: «Tamaddun», 2016.

3. Ефименко А.И. ва бошқалар. Гимнастика дарсининг самарадорлигини ошириш усуллари. Тошкент., ЎзДЖТИ, 1995 й, 100 б.

# UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

***F.A.ZARIPOVA,***
*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*
***S.A.AXMEDOVA,***
*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*
*Navoiy davlat pedagogika instituti*
*Jismoniy madaniyat fakulteti*

*Ushbu maqolada talabalarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi va jismoniy sifatlari haqida ma'lumotlar mavjud.*

***Kalit so'zlar:*** *sport, mashq, test, moslashuvchanlik, jismoniy tarbiya darslari.*

*В статье речь идет о физическом развитии школьников, предоставляется информatsія о физической подготовке и физических качествах.*

***Ключевые слова:*** *спорт, движение, тест, способности, уроки физической культуры.*

*The article deals with the physical development of students, physical Information on fitness and physical qualities is provided.*

***Key words:*** *sports, movement, test, ability, physical education lessons.*

Dunyoda ta'lim tizimining zamonaviy tendensiyalari qatorida differensiatsiya muammolari bo'yicha pedagogik bilimlarni egallash va amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yetakchi umumta'lim maktablari tomonidan jismoniy tarbiya va sportni modernizatsiya qilishning asosiy shartlaridan biri sifatida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalar kiritilmoqda. Sport sohasiga moslashtirilmagan umumta'lim maktablarida tabaqalashtirilgan sport vositalari va usullari orqali o'quvchilarining sog'lig'i va jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish kuzatilmoqda.

Dunyo miqyosida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar zamirida differensial yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonlarini optimallashtirish uchun ta'lim subyektlari o'rtasidagi individual va guruhiy farqlarni o'rganish, shu asnoda ularni har tomonlama jismoniy chiniqtirish masalalari alohida o'rin tutmoqda. Aniqsa, tahsil oluvchi shaxsining individual sifatlari va qobiliyatlarini inobatga olish, o'qitishni tabaqalashtirish, tahsil oluvchilarning salomatligi va sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar ko'lami kengayib

bormoqda. Shuningdek, jismoniy madaniyatga oid mashqlarni bajarishda qiziquvchanlik, ijodiy yutuqlarga intilish, o‘z kamolotiga peshqadamlikni oshirish, shaxs faoliyatini ijodiy-motivatsiyaga yo‘naltirishga xizmat qiladigan differensial metodikalardan tizimli foydalanish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.(1)

Yurtimizda yangi sport turlari rivojlanmoqda, zamonaviy sport inshootlari barpo etilib, sportchilarimiz xalqaro maydonlardagi yuksak natijalarga erishmoqda, barcha turdagi musobaqalar o‘tkazilib, aholining turli qatlamlarini qamrab olmoqda, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi O‘RQ - 394 - son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» PF-4947-sonli Farmoni, 2018 yil 5 martdagi «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30-oktyabr 2020 yildagi PF-6099-sonli «Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmoni asosida sohaga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar amalga oshirilmoqda(1).

Bolalar va o‘smirlarning jismoniy tarbiya tizimida tor ixtisoslik bo‘yicha jismoniy tayyorgarlik va sog‘ligini mustahkamlash, o‘quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini yoshga doir rivojlanishi xususiyatlariga muvofiq jismoniy tayyorgarlik texnologiyalaridan foydalanish, alohida sport turini tanlashda ilmiy asoslangan yo‘nalish va sport bo‘yicha qobiliyatini rivojlantirish va aniqlashning eng yuqori takomillashgan uslublaridan foydalanish o‘smirlar sportini rivojlantirish uchun tarkibiy asos hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida bugungi kunda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish va maktab o‘quvchilarining harakat faoliyatini oshirish masalalari alohida o‘rin tutadi. Umumta’lim maktablarida o‘qitish jarayoni o‘quvchilar uchun zarur bo‘lgan harakat qobiliyatlarini shakllantirish, asosiy jismoniy tarbiya asoslarini yaratish va ularning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlaydi

Mualliflar fikricha jismoniy tarbiya o‘qituvchisi faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri – harakat sifatini testdan o‘tkazib, o‘quvchilarga bir qator muhim pedagogik vazifalarni hal qilishda yordam berish, o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish darajasini ko‘rsatadi.(3)

Sinov natijalariga ko‘ra quyidagilarni amalga oshirishingiz mumkin: tanlovda ishtirok etish uchun ushbu sport turini o‘tkazishda sport tanlovini o‘tkazish;

individual o‘quvchilar va barcha guruhlarning tayyorligini solishtirish; foydalaniladigan vositalar va usullarni va ta’limning kamchiliklarini va afzalliklarini aniqlash; sportchilar va o‘quvchilarni o‘qitish ustidan obyektiv nazoratni amalga oshirish, yoshlarning jismoniy tayyorgarligiga oid me’yorlarni ishlab chiqish (yoshi, individual). Bunga qo‘shimcha ravishda, test topshiriqlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

– maktab o‘quvchilariga zarur mashq komplekslarini rejalashtirish va o‘zlarining jismoniy tayyorgarligi darajasini aniqlashga o‘rgatish;

– o‘quvchilarni jismoniy holatlarini yanada rivojlantirishga e’tibor qaratish;

– yuqori natijalarga erishgan o‘quvchilarni o‘z vaqtida rag‘batlantirish;

– vosita usullarini qo‘llashni rivojlantirishning boshlang‘ich darajasini, balki uning muayyan vaqt ichida o‘zgarishini ham bilish. So‘nggi yillarda bolalar va o‘smirlardagi jismoniy rivojlanishni pasayish sabablaridan biri qatorida mutaxassislar standartlarga va standartlashtirilgan test natijalarini qiyosiy taqqoslashda an’anaviy yondashuvga e’tibor qaratadi. Bu hol o‘quvchilarning aksariyatiga testlarga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishiga olib keladi. Shu munosabat bilan o‘quvchilarning pedagogik nazoratini tashkil etishni qayta ko‘rib chiqish zarur.O‘qituvchilarni nazorat qilish ta’lim jarayonining mazmuni bilan belgilanadi. Darsning to‘g‘ri tashkil etilishi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida birgalikdagi ishlarning aniq natijalari to‘g‘risida doimo ma’lumotlarni almashishni nazarda tutadi. Ushbu nazoratning mohiyati mashg‘ulotlarning har bir bosqichida harakat sifatlarini rivojlantirish darajasiga oid to‘liq va aniq ma’lumotni o‘z vaqtida qabul qilishdir(4).

Jismoniy tayyorgarlikni baholash uchun testlarni tanlanishi kandaydir mantiqiy faxmlash asosida (masalan,testlar sinovdan o‘tuvchilarni imkoniyatlarga mos bo‘lishi kerak,oddiy, tadqiqot o‘tkazish uchun ma‘qul bo‘lish), va chiqarilgan gipotezalar asosida o‘tkaziladigan sababli, ular tabiiyki ko‘proq yoki kamroq asoslangan bo‘lishi mumkin, deb hisoblaydi V.M.Zatsiorskiy. Tanlov tizimini samaradorligini oshirish maqsadida testlarni matematik nazariyasini asosiy talablarni qo‘llash zarur(6).

Testni obyektivligini oshirish uchun test o‘tkazilishining standart sharoitlariga rioya qilmok zarur:

– Test vaqti, joyi, ob-havo sharoitlari;

– Moddiy birlik va apparatura bilan ta‘minlanganligi;

– Psixofiziologik omillar (yuklamani xajmi va intensivligi, motivatsiya);

– axborotni taqdim etish (test vazifasini aniq,og‘zaki yetkazish, tushuntirish, namoyish).

Test o‘tkazishda jismoniy sifatlar yoki ko‘nikmalar rivojlanish darajasini aniqlaganda pedagogik yondashuvdan foydalanadilar. Bu – to‘g‘ridan-to‘g‘ri sport testlashni davomi.Testlarga bunday pedagogik yondashuv namunalari bo‘lib «Alpomish» va «Barchinoy» komplekslari hamda ko‘plab boshka testlar komplekslarixizmat qilishi mumkin (5). Pedagogik testlarni turli xilligi chegarasiz ko‘rinadi, chunki ma‘lum algoritm bo‘yicha bajariladigan har bir mashqni test sifatida ko‘rish mumkin, agar uni o‘tkazishni aniq shartlar ko‘rsatilgan bo‘lsa. Lekin testlarga ko‘iladigan qattiq talablarga barcha mashqlar javob bermaydi, bu esa harakatli imkoniyatlarni ob‘ektiv baholash uchun xizmat qilish qodir bo‘lgan mashqlar doirasini toraytiradi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2017-2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги» ПФ-4947-сонли Фармони //Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами.-Т,2017.-Б 39.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Жисмоний тарбия ва спорт соҳасини ривожлантириш масалаларига бағишланган» йиғилишдаги нутқи; 2018 йил 21 сентябрь Халқ сўзи газетаси 1-2 бет.

3. Ашмарин Б.А. О тестах и тестировании: педагогический контроль науроках физической культуры //Физическая культура в школе. - 1985. - №3. - С. 60-62; №4. - С. 58-61.

4. Лях В.И. Тесты в физическом воспитании школьников. - М.: АСТ, 1998. - С. 227.

5. Лях В.И. Гибкость: основы измерения и методика развития // Физическая культура в школе. -1999, -№1.- С. 4-10.

6. Зациорский В.М. Спортивная метрология. Педагогический контроль в тренировочном процессе. Основы тестов и оценок: Учебное пособие для студентов институтов физической культуры. - М., 1978. - С. 49.

# QORAQALPOQ ADABIYOTINI O'QITISHNING ILIMIY METODIK MASALALARI

***K.A.YUSUPOV,***
*Qoraqalpoq davlat universiteti,*
*pedagogika fanlari doktori*

*Jahondagi pedagogika ilmi bo'yicha malumotlar tezkor yangilanayotgan XXI asrda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi o'rta maxsus va kasb-hunar muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarni o'qitishda va tarbiyasida manaviy-axloqiy fazilatlarni pedagogik tizim asosida shakllandirish g'oyat murakkab va muhim vazifadir.*
***Kalit so'zlar:*** *dars jarayoni, o'qitish, adabiy konferentsiya, adabiy to'garak ishlari, darsdan tashqari mashg'ulotlar, obraz, ijodi,*

*В XXI веке в самом быстром обновлении информации во всём мире крайне сложно и важно сформировать морально-этические качества в образовании и воспитании учеников средних специальных и профессиональных учебных заведений Республики Каркалпакстан.*
***Ключевые слова:*** *процесс урока, обучение, художественная конференция, деятельность кружка, внеаудиторное занятие, образ, творчество.*

*In the 21st century, in the fastest updating of information all over the world, it is extremely difficult and important to form moral and ethical qualities in the education and upbringing of students of secondary specialized and professional educational institutions of the Republic of Karkalpakstan.*
***Key words:*** *the process of the lesson, training, literary conference, activiry of the club, extra classes, character, creative work.*

Jahon pedagogika fani tez rivojlanish va o'zgarishlar yo'lidan bormoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin talim sohasida ancha o'zgarishlar yuz berdi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi tarixiy hujjatlar qabul qilindi va pedagogika fani oldiga katta vazifalar qo'ydi. Shu bois adabiyotini o'qitish texnologiyasini takomillashtirish, innovatsion yondashuv asosida adabiyot darslarida o'quvchilarning axborotlarni tahlil qilish, nazariy bilimlarini va ko'nikmalarini rivojlandirishga, sifatli talim berish, talim olishni yaxshilash va o'zlashtirish natijalarini, baholash usullarini takomillashtirishga alohida etibor qaratilmoqta. Adabiyot o'qitish jarayonida yangi texnologiyalarni tashkil etish orqali adabiy talimdagi o'zgarishlarning ilmiy, nazariy, estetik, metodik asoslarini ishlab chiqish va adabiyot o'qitish amaliyotining samaradorligini taminlash, o'quvchilarning bilimini

chuqurlashtirib o‘qitiladigan ilmiy-amaliy texnologiyalar tarkibi va mazmunini ishlab chiqiilmoqta.

1. Qoraqalpoq adabiyotini o‘qitish metodikasining ilmiy nazariy, estetik, pedagogik, amaliy metodik tomonlarini aniqlash va uning o‘rganish darajasini belgilash; yangilangan pedagogik dasturga muvofiq qoraqalpoq adabiyotini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uning ta’lim sohasida yo‘lga qo‘yilish o‘rnini ko‘rsatish kerak. Adabiyotini o‘qitish metodikasi mazmunini belgilash, o‘quv dasturlari va darsliklar yaratishning ilmiy manbalarini ishlab chiqish, adabiyotini o‘qitishda jahon pedagogika ilmining yutuqlariga mos ta’limning yangi shakllari, samarali talim beruvchi va amalda yaxshi natija beradigan innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullarini aniqlashtirish zarur.

2. Adabiyot darslarini o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalana bilish, sifatli tarzda davlat standart talablariga muvofiq dars rejalari va dasturlarini tuzish, adabiyot fani dasturida berilgan badiiy asarni tahlil qilishning ilmiy metodik asoslari va didaktik usullarini aniqlash, o‘quvchilar ongida adabiyotiga oid nazariy fikr-mulohazalarni rivojlantirish va milliy istiqlol g‘oyasini singdirish va adabiyot bo‘yicha darsdan tashqari mashg‘ulotlarning ilmiy metodik masalalarini o‘rganish, tashkil etish, adabiy to‘garak ishlari, adabiy kecha va konferentsiyalar o‘tkazish usullarini takomillashtirish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini darsdan tashqari mashg‘ulotlar orqali rivojlantirish kerak.

3. Maktab va akademik litsey o‘quvchilarining Prezident asarlaridagi mamlakatimiz mustaqilligi, madaniy merosga, adabiyotga, sanatga oid asosiy g‘oyalar mazmuni, ona vatanga muhabbat uyg‘otuvchi adabiy asarlar mazmunini gapirib berish ko‘nikmalarini, xalq og‘zaki ijodi va badiiy asarlar syujeti, obrazlari, xalqchilligi bo‘yicha bilimlarini takomillashtirish zarur.

Maktab va akademik litseylarda qoraqalpoq adabiyotini o‘qitishning ilmiy metodik asoslari, adabiyot fani dasturi va darsliklarning tuzilish printsiplari, fan dasturida berilgan materiallar asosida muammoli, monografik va sharhlash maruzalaridan foydalanishning metodik masalalari, maruza darsini tashkil etish usullari va o‘qitish texnologiyalari takomillashtirish va adabiyot fani dasturida berilgan badiiy asarni tahlil qilishning ilmiy metodik asoslari va didaktik usullari, zamonaviy darslarda interfaol metodlardan foydalanish mexanizmi o‘quvchilarning ehtiyojlari asosida ularning motivatsiyasi, o‘qituvchilarining kasbiy kompetentsiyalarini oshirish, qoraqalpoq adabiyotini o‘rgatishdagi muammoli vaziyatlarning samarali echimlarini qo‘llash va kommunikativ jarayonni faollashtirish kerak.

Qoraqalpoq adabiyotini o‘qitishga doir o‘quv dasturlari va darsliklar yaratishning ilmiy metodik manbalari, qoraqalpoq adabiyotini o‘qitish shakllariga oid metodik masalalarga etibor qaratildi. Ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, har bir o‘tiladigan darsga yangicha yondashuv, ijodiy munosabatda bo‘lish barcha o‘qituvchilardan talab etilmoqda. Qonun talablariga muvofiq o‘quv rejalari, adabiyot dasturlari, talim standartlarini ishlab chiqish uchun ta’lim sifati va samaradorligining oshishiga erishish asosiy yo‘nalish sifatida belgilab olindi.

Adabiyot dasturiga kiritilgan adabiy materiallar ososida o‘quvchilarini qoraqalpoq adabiyoti, qardosh xalqlar va jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish, yoshlar qalbida vatanga muhabbat, milliylik, odob-axloqlilik singari fazilatlarni shakllantirish va milliy meroslarni qadrlash tuyg‘usini uyg‘otish зарур.

O‘quvchilar uchun mo‘ljallangan adabiyot dasturida berilgan badiiy asarlarni tahlil qilish va unga qo‘yiladigan talablar, matn tahlili, tahlil turlari va usullari dars davomida o‘rganiladi. Dars turlari hisoblangan yangi bilim berish, seminar, o‘yin, musobaqa, test, konferentsiya va mulohaza yuritish dasrlari orqali dasturda keltirilgan materiallar o‘rganiladi. Har bir adabiyot darsi falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, estetika, pedagogika, psixologiya fanlari bilan bog‘liq o‘tilishi lozim. Dars – bu o‘qitishning asosiy shakli. Bu masala bo‘yicha atoqli metodistlar A.Paxratdinov, Q.Yo‘ldoshev, Q.Xusanboeva , R.Niyozmetova, Q.Yusupov va boshqalar metodik qarashlarini bayon qilishgan. Dars o‘tish jarayonini tashkil etishning asosiy turi sifatida o‘qitish bilan bog‘liq muam-molarning vazifalarini belgilab olish zarur. Shuningdek, dars mobaynida har bir o‘quvchiga individual munosabatda bo‘lish, iqtidorli, istedodli va past o‘zlashtiradigan o‘quvchilar bilan yakka ishlashishni taminlash, yoshlarni bilimni mustaqil izlab topishga, bilimni mustaqil egallashga odatlantirish, dars jarayonida o‘quvchilarda erkin fikrlash, mulohaza yuritish va iqtidorini rivojlantirish zarur. Shu bois konferentsiya darsining mazmuni va uni o‘qitish usullari, dasturda berilgan materiallarni konferentsiya darsi yordamida o‘qitish masalasi va o‘ziga xosligiga etibor qaratildi. Shuningdek, adabiyot o‘qitishda mulohaza yuritish darsidan foydalanish, darsning maqsad va vazifalari, darsni tashkil etish, darsda o‘quvchilarni baholash usullariga metodik tavsiya va fikrlar berildi. Mulohaza darsi – bu o‘quvchilarning aql-idrokini, fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, adabiyotga qiziqishini orttiradi.

Umumtalim maktablari va akademik litseylarda dars shakllaridan foydalanishning o‘ziga xosligi mavjud. Birinchidan, maktablarda qoraqalpoq adabiyotini o‘qitishda aralash dars, birlashgan dars, o‘quvchilarni yangi bilim

berish darsi bilan tanishtirish, kirish, takrorlash, o‘yin dars turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatlari, har bir dars vaqti, dasturda berilgan materiallarning osondan qiyinga qarab tuzilish printsiplari etiborga olinishi kerak. Uchinchidan, akademik litseylarda konferentsiya, fikrlash, maruza, seminar dars turlari orqali o‘qitish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini, darsga qiziqishini oshirib boradi. Natijada o‘quvchilar ongida falsafiy, estetik, nafosat kabi manaviy tuyg‘ular shakllanib boradi.

Qoraqalpoq adabiyotini o‘qitishda interaktiv o‘qitish texnologiyasini qo‘llashning maqsad va vazifalari bor. Adabiyot bo‘yicha o‘tkaziladigan darsda qo‘llanadigan interaktiv texnologiya jarayonida tartib va reglament masalalariga doimiy etibor berilishi, shuningdek, har bir guruh azosiga so‘z erkinligini berish, bir-birini hurmat qilish, tartibni saqlash kerakligi ogohlantirib o‘tiladi. Adabiyot darslarida o‘quvchilarning guruhlarga bo‘linishida, avvalo o‘z erki asosida bo‘linishi, so‘ngra tasodifiy tanlov tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiq. Qoraqalpoq adabiyoti bo‘yicha o‘tkazilgan interaktiv texnologiyalarning natijalari adabiyotchi o‘qituvchi tomonidan xulosalanib, guruh azolariga tegishli baholar qo‘yilishi kerak.

Umuman, qoraqalpoq adabiyotini o‘qitishda dars turlari, konferentsiya, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini tekshirish darsi, aralash, birlashgan, yangi bilim berish darslarida pedagogik texnologiyadan foydalanish usullari, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat, ularning vazifalarini o‘zgartirish zarurati, pedagogik texnologiya, interaktiv o‘qitishning texnologik xususiyatlari to‘g‘risida fikrlar bildirilib, bulardan tashqari badiiy asarlarni tahlil qilishning maqsad va tamoyillarini o‘rganish, ilmiy tahlil, estetik tahlil, didaktik tahlil, bu tahlil turlarini amaliyotda qo‘llay bilish muhim va samarali natija beradi.

**Adabiyotlar:**

1. Yo‘ldoshev Q., Madaev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. - Toshkent: 1994, 32-35-bet.

2. B.To‘xliev. Adabiyot o‘qitish metodikasi. - Toshkent: «Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti», 2010. -168 b.

3. Matjon S. «Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar». T. O‘qituvchi, 1996.

4. Xusanboeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T. «Barkamal fayz madia», 2018. - 352 b

5. Yusupov Q.A. Qaraqalpaq a‘debiyatin oqitiw metodikasi. (sabaqliq). - Tashkent: Sano-standart, 2018. - 336 bet.

# TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISH FAOLLIKLARINI TA'MINLOVCHI OMILLAR

**M.K.QALANDAROVA,**
TDPU p.f.f.d (PhD)
**A.P.BERDIYEV,**
TDPU 4-bosqich talabasi

*Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarga individual yondashuv asosida intellektual rivojlantirishning ahamiyati, xususiyatlari, ularda ixtirochilik va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, intellektual rivojlantirish bo'yicha olimlar, tadqiqotchilarning nazariy yondashuvlari yuzasidan bildirigan fikrlari yoritilgan hamda tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** tafakkur, ta'lim tizimi, kompetensiya intellekt, intellektual rivojlantirish, o'quv-biluv jarayoni, ijodiy qobilyat, individual rivojlantirish, takomillashtirish, didaktik ta'minot, ko'nikma*

*В данной статье освещаются и анализируются важность и особенности интеллектуального развития учащихся на основе индивидуального подхода, формирование навыков изобретательства и творчества, а также мнения, высказанные учеными и исследователями по вопросам интеллектуального развития.*

***Ключевые слова:** мышление, образовательная система, творческая способность, компетентностный интеллект, интеллектуальное развитие, образовательный процесс, индивидуальное развитие, совершенствование, дидактическое обеспечение, мастерство.*

*In this article, the importance and features of intellectual development for students based on an individual approach, the formation of inventiveness and creativity skills, and the opinions expressed by scientists and researchers on intellectual development are highlighted and analyzed.*

***Key words:** thinking, educational system, competence intelligence, intellectual development, educational process, creative ability, individual development, improvement, didactic support, skill.*

Bugungi kun fani, texnikasi bilan ishlab chiqarishining rivojlanishi, ta'limda nazariya va amaliyot birligi hamda ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi talablari o'quvchilarning mustaqil faol va ongli mehnatiga asoslangan, uning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradigan, kompetensiyalarni egallagan, tafakkurini rivojlantiradigan, vaqtini tejaydigan, bilim o'rganishini engillashtiradigan zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va o'quv jarayoniga tadbiq etishni taqozo etadi. Shu bilan birga ta'lim berishda jamiyatga o'z faoliyatining mazmunini

aniq ko'ra biladigan va atrofda, pedagogik borliqda muammolarni aniqlay oladigan, ularni mustaqil hal qila oladigan, olingan natijalarni tahlil qila oladigan ta'lim beruvchi nihoyatda zarurdir.

Hozirda asosiy vazifalarimizdan biri o'quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish ya'ni kompetensiyalarni tarkib toptirish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko'zda tutilmagan noaniq, ya'ni, muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallagan bilimlarini kundalik turmushi jarayonida qo'llay oladigan xususiyatlarni egallashni tarbiyalashdan iboratdir. O'quvchilarda bu xususiyatlarni tarbiyalashda fanlarga oid bilim, ko'nikma va malakalarning dars jarayonida singdirish bilan birgalikda ularda kompetensiyalarni (izlanuvchanlik mustaqillk, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlar) ham shakllantirilishi lozim.

Ushbu xususiyatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– O'rganilayotgan moddiy borliqni aniq obektlari va fan sohalariga oid fundamental muammolar;

– O'rganilayotgan hodisa haqidagi umumkasbiy bilimlar;

– Moddiy borliq imkoniyatlari yordamida umumlashtirilgan o'quv ko'nikmalari va malakalari;

– O'quv bilimdonligining tayanch qismlari va h.k

Maktab predmetlari mazmunida mazkur tushunchalar uning maqsad va mazmuni bilan bog'liq holda turli shakllarda namoyon bo'ladi. Natijada tabiiy fanlararo integratsiya vujudga keladi.

Hozirda tabiiy fanlarda ham xorijiy mamlakatlardagi ta'lim jarayonini o'rganish samaradorligi yuqori bo'lgan tomonlarni amaliyotga tadbiq etish eng dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanmoqda, shuning uchun ham bu masala ta'limda asosiy muammo bo'lib qolmoqdaki, an'anaviy o'qitish turlari o'z faolligini biroz yo'qotdi, quruq so'zlar yordamida o'qitish yaxshi natija bermay qoldi. Buning o'rniga «Axborotli o'qitish», xorijiy mamlakatlardagi ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash ko'proq samara bermoqda. Bundan tashqari ilm-fan, texnika taraqqiyoti juda tez rivojlanishi natijasida axborotlarni keskin oshib borishi, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish hozirgi davr o'qituvchilaridan ilmiy saloxiyat, malaka va yuqori darajada pedagogik mahoratni talab qilmoqda.

Ta'lim jarayonida o'quvchining ijodiy tafakkurlari tabiiyligi, betakrorligi, hozirjavobligi bilan ajralib turadi. Tafakkurning bunday tarzi uchun divergent,

ya'ni tafovutli hamda produktiv, ya'ni mahsuldor fikrlash tarzi xosdir. Mahsuldor fikrlash tarziga ega bo'lgan o'quvchilar axborotlarni tanlash, to'plash va muammolarni echishda o'zlarining mustaqilliklari bilan ajralib turadilar. Divergent, ya'ni tafovutli fikrlash tarziga ega bo'lgan o'quvchilar esa, muammolarning echimiga turli tomondan yondasha olishlari bilan alohida namoyon bo'ladilar. Shuning uchun ham dars jarayonida o'quvchilarni intellektual rivojlantirish maqsadini qo'yganda ularga fikrlash tarzining turli ko'rinishlarini egallashlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Har bir o'quvchining fikrlash tarzi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. O'qituvchi ulardagi o'ziga xosliklar, yutuqlar, kamchiliklarni o'z vaqtida payqay olishi lozim, aks holda o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda samaradorlikka erisha olmaydi. Dars jarayonida o'quvchining o'z faoliyatini individual boshqarishi uning shaxsiy maqsadlari bilan bog'liqdir. O'quvchilarning bunday ideallari jumlasiga ularning o'z oldilariga qo'ygan maqsadlari, amal qiladigan qadriyatlari, intellektual rivojlanishdagi faolliklari kabilarni kiritish mumkin.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual rivojlantirish faolliklari ularning intellektual taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– mujassamlashtiruvchi; talabani darsda boshqaruvchilik xulq-atvori, faoliyati, atrofdagilar bilan o'zaro muloqoti, shaxsiy taraqqiyoti, intellektual darajasi ularning turli holatlar va vaziyatlarda barqaror fikrlashiga asoslanadi;

– tizimlashtiruvchi; o'quvchining har bir topshiriqni tizimli bajarishi intellektual yutuqlarga erishish imkonini beradigan holatlar;

– maqsadlarni shakllantiruvchi; o'quvchilarning intellektual taraqqiyotlarini yo'naltiruvchi va uning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi ko'rsatgichlar;

– tanlov imkoniyati; atrof-muhitdagi barcha hodisalarni o'zlashtirish imkoniyatini ta'minlovchi, idealga bo'lgan munosabat;

– izlanuvchanlik; maqsadning shakllanishi uchun zarur bo'lgan shaxsiy sifatlar, bilimlar, ko'nikmalarni izlash imkonini beradigan vaziyatlarni qidirish, talabalarni intellektual rivojlantiirishga to'siq bo'ladigan bo'shliqlarni to'ldirish.

Izlanuvchanlik faoliyati o'quvchilarni intellektual rivojlantiirishda bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish uchun nihoyatda zarurdir. Shuning uchun ham, o'quvchilarning izlanuvchanlik faoliyatlari ularning intellektual taraqqiyotini ta'minlashda nihoyatda muhimdir. Bu faoliyat asosan o'quvchilarning dars jarayonida mustaqil bilim olish orqali rivojlanishlarida namoyon bo'ladi.

Yuqori malakali pedagoglarni tayyorlaydigan pedagogika universitetimizning ta'lim tizimida zamonaviy innovatsiyalar quyidagi yo'llar orqali tatbiq etilmoqda:

– axborot va kommunikatsion texnologiyalar-texnologik innovatsiyalar;

– ta’lim-tarbiya jarayonining mazmunini yangilash, uning borishi va o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi texnologiyalar-pedagogik innovatsiyalar;

– ta’lim sohasidagi zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar – iqtisodiy innovatsiyalar;

– dars jarayonida zamonaviy tuzilmalar – tashkiliy innovatsiyalar;

Masalani yana shu tamoni ham borki, mazkur tipdagi faollik har doim ham vujudga kelavermaydi, faqat o‘qituvchining maqsadga muvofiq pedagogik ta’sir ko‘rsatishi va qulay pedagogik-psixologik muhitni tashkil etish mahorati tufayligina vujudga keladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, yuqorida qayd etilgan yondashuvlar ta’lim-tarbiya jarayoniga kompleks holda joriy etilishi pedagog, ta’lim beruvchilardan metodik bilim, ko‘nikma va malakalar, shuningdek, pedagogik kompetensiyani talab etadi. O‘qituvchining zamonaviy metodik bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi, shuningdek, pedagogik kompetensiyaning mavjudligi uning o‘z pedagogik faoliyatida barkamol shaxsni voyaga etkazishni nazarda tutishiga asos bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Pededagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - T.: 2002.

2. Гребенюк О.С., Гребенюк Т.Б. Введение в деятелност педагога- исследователя: Научн.- метод. пособ. - Калининград, 1998.

3. Safarova R., Musaev U. va b. Umumiy o‘rta ta’lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik parametrlari. -T.: Fan, 2008.

4. Ma‘murov B. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari // Ped. fan. nomz.diss. avtoref ... - Toshkent, 2009.

5. Леонтов А.В. Модел научной школы и практика организатсии исследователской деятелности учащихся//Школные технологии.-М., 2001.

6. Qalandarova M.K. «O‘quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etish» O‘zR FA «Fan» Toshkent-2009 y.

# O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM MUASSASALARINING TA’LIM SIFATINI IFODALOVCHI MILLIY REYTING TIZIMI

***N.A.RAJABOVA,***
*Bosh ilmiy metodik markaz mustaqil izlanuvchisi*

*Mazkur maqolada ta’lim sifatini nazorat qilish va baholashning dolzarbligi, oliy ta’lim muassasalari reyting ko‘rsatkichlarini tashkil etishning xalqaro amaliyoti va O‘zbekistonda oliy ta‘lim muassasalari reytingi tizimining joriy etilishi borasidagi ma’lumotlar bilan tanishtirib o‘tilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari milliy reytingining o‘ziga xos xususiyatlari hamda baholash mezonlari bilan tanishtirilgan. Maqola yakunida esa muallifning sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan shaxsiy fikr va mulohazalari keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ta’lim sifati, OTM, reyting tizimi, Web of Science, Scopus, Google Scholar, falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc), ta’lim standartlari, malaka talablari.*

*Данная статья знакомит с актуальностью мониторинга и оценки качества образования, международной практикой организации рейтинговых показателей высших учебных заведений, внедрением рейтинговой системы высших учебных заведений в Узбекистане. Также были введены особенности национального рейтинга высших учебных заведений и критерии оценки. В конце статьи даются личные мнения и комментарии автора о проделанной работе в данной области.*

***Ключевые слова:*** *качество образования, ВУЗ, рейтинговая система, Web of Science, Scopus, Google Scholar, доктор философии (PhD), доктор наук (DSc), образовательные стандарты, квалификационные требования*

*This article introduces the relevance of monitoring and evaluating the quality of education, the international practice of organizing the rating indicators of higher education institutions, and the implementation of the rating system of higher education institutions in Uzbekistan. Moreover, the specific features of the national rating and evaluation criteria of higher educational institutions have been introduced. At the end of the article, the author‘s personal opinions and comments on the work carried out in this field have been given.*

***Key words:*** *quality of education, HEIs, rating system, Web of Science, Scopus, Google Scholar, Doctor of Philosophy (PhD), Doctor of Science (DSc), educational standards, qualification requirements*

So‘ngi yillarda mamlakatimizda barcha sohalar singari Oliy ta’lim tizimida ham islohotlar, bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, mazkur islohotlar doirasida bir qator oliy ta’lim muassasalarida o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimi joriy etildi, shuningdek, ularda ta’lim sifatini oshirish masalasiga katta e’tibor qaratila boshlandi.

Zamonaviy ta'lim tizimi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan masala bu ta'lim muassasalari faoliyati sifati va uni aniq dalillarga asoslangan mezonlar va ko'rsatkichlar asosida samarali nazorat qilish masalasi sanaladi. Oliy ta'lim muassasalari va ularning manfaatdor tomonlari o'rtasida oliy ta'lim va uning faoliyati samaradorligini aniq ma'lumotlarga asosan tahlil qilish bo'yicha yuqori talab mavjud. Bir tomondan, oliy ta'lim muassasalari qaror qabul qilish va uzoq davrga mo'ljallangan strategik rejalar uchun bunday tahlilni amalga oshirishga ehtiyoj seziladi. [1].

Shulardan kelib chiqgan holda, Oliy ta'lim muassasasida faoliyat samaradorligi va ta'lim sifatini baholash bo'yicha bir qator miqdoriy hamda sifat ko'rsatkichlaridan foydalanib kelinadi. Ushbu ko'rsatkichlar reytinglar, moliyalashtirish shakllari va ta'lim muasasasida boshqaruv mexanizmlari samaradorligi ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

*Mavzuga oid adabiyotlar tahlili*

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini baholashga qaratilgan reyting tizimini ishlab chiqish masalasi bir qator tadqiqotlarda ilgari surilgan. Xususan, Gover va Loukkola[1], A.S.Makkormik, A.Rovargers[3], T.Loukkola[1] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shular jumlasidandir.

O'zbekistonlik O.Raximov[3], L.Eshmuxamedov[3], O.Qahhorov[4], Z.Kosimova[5] kabi olimlar hamda tadqiqotchilar ham mazkur sohada bir qator tadqiqotlar amalga oshirganlar. Ularning olib borgan tadqiqotlari asosiy mazmuni xorij amaliyotida ta'lim sifatini nazorat qilish, uni baholash hamda oliy ta'lim muassasalari reytinigini ishlab chiqish sanaladi.

*Tadqiqot metodologiyasi*

Metodologiyani tanlashda biz uchta asosiy jihatga amal qilamiz: tadqiqotimiz uchun eng oqilona tanlov nima, ma'lumotlarni to'plashda qanday usullardan foydalanmoqchimiz va qanday amaliy savollarga javob topishimiz kerak. O'zbekistonda ta'lim sifatini baholash va uni nazorat qilish, oliy ta'lim muassasalarining reytingini tashkil etish va yuritishning huquqiy-normativ asoslari tayyorligini o'rganib, oldimizga qo'ygan vazifamizdan kelib chiqib, empirik va nazariy darajadagi usullardan, ya'ni induksiya, deduksiya, tahlil va sintez, kuzatuv usullaridan foydalaniladi.

*Tahlil va natijalar:*

Ma'lumki, hozirgi kunda xalqaro oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlovchi bir qator reyting tizimlaridan foydalanib kelinmoqda. Bularga U-Multirank, ARWU, QS World University Rankings, THE World University Rankings, THE Europe Teaching Rankings, CWUR, Emerging/ Trendence Global, Round University

Ranking reyting tizimlari shular jumlasidandir. Ushbu sanab o‘tilgan reyting tizimlarida universitetlari reytingi turli xil ta’lim hamda boshqaruv sifati ko‘rsatkichlari asosida aniqlanadi (1-jadval).

1-jadval

Xalqaro universitetlar reytingida qo‘llaniladigan ta’lim ko‘rsatkichlari

| № | Ko‘rsatkich nomi | U-Multirank | ARWU | QS World University Rankings | THE World University Rankings | THE Europe Teaching Rankings | CWUR | Emerging/ Trendence Global | Round University Ranking |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Talabalar so‘rovi | + | | | | + | | | |
| 2. | Reputatsiya so‘rovi | | | | | | | | |
| 3. | Ish beruvchilar so‘rovi | | | + | | | | + | |
| 4. | Bitiruvchining ishga joylashuvi | + | + | | | | + | | |
| 5. | Talabaning yutuqlari | + | | | | + | | | |
| 6. | Talabalar va xodimlar soni | + | | + | + | + | | | + |
| 7. | Xorijiy talabalar soni | + | | + | + | + | | | + |
| 8. | Xalqaro dasturlarlar soni | + | | | | | | | |
| 9. | Xodimlar va talabalar o‘rtasida Gender tengligi darajasi | + | | | | + | | | |
| 10. | Amaliyot bilan bog‘langanlik darajasi | + | | | | | | | |
| 11. | Boshqa ko‘rsatkichlar | + | + | | | | + | | |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ta‘lim sifati bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy 10 ta ko‘rsatkichlar universitetlar reyting ko‘rsatkichlarini aniqlashda foydalanib kelinmoqda. Xususan, yuqoridagi dastlabki uchta ko‘rsatkich ya’ni, talabalar so‘rovi, reputatsiya so‘rovi va ish beruvchilar so‘rovi so‘rovnoma usuliga asosan respodentlar fikrini umumlashtirgan holda aniqlanadadi. Qolgan ko‘rsatkichlar esa oliy ta’lim muassasasining nisbiy ko‘rsatkichlarini hisoblash orqali aniqlanadi.

1-rasmda O‘zbekiston amaliyotida fodalanib kelinayotgan ta’lim sifatini baholash reytingining asosiy komponentlari va ular o‘rtasida ballarning taqsimlanishi keltirib o‘tilgan. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Oliy ta’lim muassasalari milliy reytingi to‘rtta komponentdan tashkil topgan bo‘lib, 100 ballik mezonda baholanadi. Milliy reyting  professor-o‘qituvchilarning ilmiy faoliyati, o‘quv-metodik ishlar va o‘qitish sifati, talabalar bilimi va bitiruvchilar sifati hamda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘yicha faoliyati yo‘nalishlari baholaridan iborat.




1-rasm. Oliy ta'lim muassasasi reyting bahosi komponentlari[10]

O'z navbatida milliy reytingdagi 4 ta yo'nalish ham alohida kichik mezonlardan tashkil topgan bo'lib, bu hisoblashning aniqligiga, reyting tizimining shaffof bo'lishiga yordam beradi.

Professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyati. Bu yo'nalish quyidagi mezonlar yig'indisidan tashkil topgan:

Dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi oliy ta'lim muassasalarida fan nomzodi, falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olgan professor-o'qituvchilar ulushi (asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilarning umumiy soniga nisbatan foiz hisobida);

Reytingni aniqlash yilida dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlari (ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, seminar-treninglar) o'tkazgan professor-o'qituvchilar ulushi (asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilarning umumiy soniga nisbatan foiz hisobida);

Professor-o'qituvchilar tomonidan himoya qilingan doktorlik (PhD va DSc) dissertasiyalari soni;

Xalqaro ko'rsatkichlarga ko'ra oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari nashrlariga iqtiboslar («Web of Science», «Scopus» va «Google Scholar» bazalari bo'yicha, so'nggi 5 yilda);

Reytingni aniqlash yilida xalqaro ilmiy jurnallarda va mahalliy ilmiy nashrlarda («Web of Science», «Scopus» va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan jurnallarda) chop etilgan maqolalar (bir nafar professor-o'qituvchi hisobiga);

Oliy ta'lim muassasasida ilmiy-tadqiqot faoliyati va ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga taqdim etish asosida olingan mablag'lar hajmi yoki boshqa nomoddiy ko'rsatkichlar (ijtimoiy samaradorlik) (bir nafar professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan);

Reytingi aniqlanayotgan yilda bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligi, ya'ni chop etilgan monografiyalar soni, ixtiro, foydali model, sanoat namunalari va seleksiya yutuqlari uchun olingan patentlar, axborot-kommunikasiya texnologiyalariga oid dasturlar va elektron ma'lumotlar bazalari uchun olingan guvohnomalar, mualliflik huquqi bilan himoya qilinadigan turli materiallar.

O'quv-metodik ishlar va o'qitish sifati. OTMlar faoliyatning mazkur yo'nalishini baholash quyidagi mezonlarga asosan amalga oshiriladi:

– hisobot yilida oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari tomonidan yozib

tayyorlangan va belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari;

– hisobot yilida xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan almashuv dasturlari, konferensiyalar, ilmiy yoki o‘quv loyihalarida o‘qituvchilar va talabalarning ishtirok etganligi;

– ta’lim yo‘nalishlari (mutaxassisliklari) bo‘yicha xorijiy tilda o‘qitiladigan fanlar salmog‘i (mutaxassislik fanlarining jami soniga nisbatan foizda).

Talabalar bilimi va bitiruvchilar sifati. Bu ko‘rsatkich esa quyidagi mezonlar asosida aniqlangan ballar yig‘indisidan tarkib topadi:

– talabalarning bilim darajasi (nazorat ishlari natijalari asosida);

– bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi (bitirganidan so‘ng 6 oy ichida);

– oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari bilim va ko‘nikmalari sifati haqida ish beruvchilarning bahosi (so‘rovnoma asosida aniqlanadi);

– reyting yilida xalqaro va respublika olimpiadalarida, nufuzli tanlovlar va sport musobaqalarida sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan hamda mukofot (diplom)larga sazovor bo‘lgan talabalar salmog‘i;

– jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘yicha faoliyati.

Yuqorida sanab o‘tilgan mezonlarni aniqlashda turli xil shakldagi so‘rovnomalar va hisoblash, qiyoslash usullaridan keng foydalaniladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish joizki, U-Multirank, ARWU, QS World University Rankings, THE World University Rankings, THE Europe Teaching Rankings, CWUR kabi bir qator reyting tizimlaridan foydalanib kelinmoqda. Bu reyting tizimlari ta’lim sifati bilan bog‘liq bo‘lgan 10 ta asosiy mezonlar asosida OTM faoliyatini baholaydi. Bunda ko‘rsatkichlar so‘rovnoma va nisbiy ko‘rsatkichlarini hisoblash hamda taqqoslash orqali aniqlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Gover, A. and Loukkola, T., 2018, Enhancing quality: From policy to practice (Enhancing Quality through Innovative Policy & Practice/EQUIP). http://bit.ly/30mvwM2(accessed 04/05/2020).

2. Rauhvargers, A., 2011, Global university rankings and their impact (Brussels, EUA). https://bit.ly/2LUwLgi(accessed 04/05/2020).

3. Raximov O.D., Eshmuxamedov L.M. Chet el oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim sifatini baholash, «International sonference on learning and teaching» 2022/6.

4. Qahhorov O.S. Ta’lim muassasalari boshqaruvining samaradorligini boholashdagi yondashuvlar va usullar, «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017- yil.

5. Kosimova Z.A. Ta’lim sifatini baholash tizimini boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasi, Zamonaviy ta’lim/Современное образование-2022,1(110).

# UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA KIRISHISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

***N.G.DILOVA,***
*BuxDU Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi dotsenti*

*Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabatlarga kirishish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik shartlari, o'qituvchiga qo'yilgan talablar, uning pedagogik mahorati va kasbiy kompetentligini oshirib borish yo'llari va kompetenligini baholash mezonlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan va tegishli tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *uzluksiz ta'lim, kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, samarali boshqaruv, o'qituvchi kompetentligi, samarali hamkorlik, shaxslararo munosabatlar, muloqot ko'nikmasi, ijodiy yondoshuv, novatorlik, kommunikabellik, mas'uliyat va moslashuvchanlik, ta'lim sifati.*

*В данной статье представлена информация о педагогических условиях формирования навыков межличностного общения будущих учителей в процессе непрерывного образования, требованиях к учителю, способах повышения его педагогического мастерства и профессиональной компетентности, а также критериях оценки его компетентности. описаны и даны соответствующие рекомендации.*

***Ключевые слова:*** *непрерывное образование, компетентность, коммуникативная компетентность, эффективное управление, компетентность педагога, эффективное сотрудничество, межличностные отношения, коммуникативные навыки, творческий подход, инновационность, коммуникабельность, ответственность и гибкость, качество образования.*

*In this article, information about the pedagogical conditions for the formation of the interpersonal skills of future teachers in the process of continuous education, the requirements for the teacher, the ways to improve his pedagogical skills and professional competence, and the criteria for evaluating his competence are described and relevant recommendations are given.*

***Key words:*** *continuous education, competence, communicative competence, effective management, teacher competence, effective cooperation, interpersonal relations, communication skills, creative approach, innovation, communicability, responsibility and flexibility, quality of education.*

Uzluksiz ta'limjarayoni ta'limning ustuvorligi, ta'limning demokratlashuvi, ta'limning insonparvarlashuvi, ta'limning milliy yo'naltirilganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida,

izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shartsharoitlar yaratish kabi tamoyillari asosida faoliyat ko‘rsatadi. Aynan ushbu tamoyillar uzluksiz ta’lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu tamoyillarning o‘zaro bir – biri bilan aloqadorligi asosida ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro shaxslararo munosabatlarga, muloqotga kirisha olishini tashkil etishning o‘ziga xos talablari va shartlari mavjud.

Ta’lim-tarbiya jarayonida shaxslararo munobatlarga kirishishda bo‘lajak o‘qituvchilarda muloqot qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish muhim ahamiyatga egadir. Bunda o‘qituvchining kommunikativ kompetentligi har qanday o‘quv jarayoni natijadorligini ta‘minlashda yetakchi omillardan biri hisoblanadi.

Uzluksiz ta’lim jarayoni sifatini oshirish zamonaviy o‘qituvchi oldida bir qator talablarni qo‘yadi. Bu talablarni bajarishda o‘qituvchining o‘zini-o‘zi rivojlantirish va o‘z ustida ishlash kompetentligi ham muhim ahamiyatga egadir.

Zamonaviy ta’lim jarayonini tashkil etar ekan, o‘qituvchi o‘z kasbiy mahoratini oshirish rejasini tuza olishi, kasbiy rivojlanishiga oid manbalarni izlashi va aniqlay olishi, o‘zining va ishlaydigan muassasasi extiyojlaridan kelib chiqib kasbiy malakasini oshirish bo‘yicha o‘quvlarni tanlay olishi va ularda ishtirok etish, AKT va global tarmoq resurslaridan foydalangan holda doimiy tarzda o‘z kasbiy malakasini oshirib borishi, boshqaruv usullari, ta’lim va axborot texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanishga oid innovatsiyalar bilan tanishib borishi, kasbiy faoliyatini takomillashtirishda turli texnologiyalardan foydalanishi, o‘z kasbiy bilim va mahoratini oshirish hamda takomillashtirishda kollegial forumlardagi muhokamalarda ishtirok etishi uning pedagogik mahorati va kasbiy kompetentligini oshib borishida yordam beradi.

Mahoratli o‘qituvchi ta’lim jarayonida shaxslararo munosabatlarga kirishar ekan, unda mas‘uliyat va moslashuvchanlik kompetentligi ham rivojlangan bo‘lishi kerak.

Zero, o‘qituvchi zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida yuz berayotgan turli o‘zgarishlarga, yangilanish jarayonlariga tez, oson moslasha olishi, ta’limdagi yangi yondashuv va strategiyalarni qabul qilishi, ularni egallash hamda o‘zining kasbiy amaliyotiga joriy eta olishi, o‘ziga, o‘quvchilar jamoasiga, ota-onalarga va jamiyatga nisbatan mas‘uliyatli bo‘lishi, yuqori marra va standartlarni belgilashi, ularga erishishi, ta’lim jarayonining markaziga o‘quvchini qo‘yishi va har bir o‘quvchining o‘zlashtirishi, sifatli ta’lim olishi bo‘yicha mas‘uliyatni zimmasiga olish shart hisoblanadi.

Uzluksiz ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi shaxslararo munosabatlarni samarali tashkil etish orqali ta’lim sifatiga erishish hamda egallangan

bilimlar natijadorligini kafolatlashda o‘qituvchining o‘quvchilarning kompetentsiyalarini holisona baholash mahorati ham yana bir muhim shartlaran biri hisoblanadi.

O‘qituvchining o‘quvchilardagi fanga oid va tayanch kompetentsiyalarni egallash darajalarini xolisona baholash mahorati quyidagilarda o‘z aksini topadi:

– o‘quvchilar bilimlari va kompetentsiyalarini baholashning turli strategiyalaridan, ya’ni rasmiy va norasmiy, diagnostik va umumiy yondashuvga asoslangan baholash usullaridan foydalana olishi;

– o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini, bilim va kompetentsiyalarini baholashga qaratilgan turli usul va vositalarni tanlay olishi;

– baholashni ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida tan olishi, u orqali o‘quvchilar bilan teskari aloqani o‘rnata olishi;

– o‘quvchilar o‘zini baholashi, o‘quvchilar boshqa o‘quvchilarni baholashi va o‘qituvchi tomonidan baholash yondashuvlaridan keng foydalanishi;

– o‘quvchilarning kompetentsiyalarini baholash natijalarini tahlil qilish va ushbu tahlillar asosida pedagogik amaliyotga o‘zgartirishlar kiritish va o‘zining pedagogik faoliyatidagi keyingi qadamlarni belgilashi;

– ota-onalarni o‘quvchilarning o‘zlashtirishini ko‘rsatuvchi baholash natijalari bilan o‘z vaqtida tanishtirib borish kabilar.

O‘qituvchi va o‘quvchilar orasida ijodkorlikka yo‘naltirilgan pedagogik muloqotni o‘rnatishdaundagi kommunikativ kompetentsiyaning rivojlanganligi ta’lim sifatini oshirishning yana bir muhim omillaridan biridir.

Ya’ni o‘qituvchidagi o‘quvchilarning sinfdagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda verbal va noverbal usullardan foydalanish: fikrini bildirish, tuzatishlar kiritish, olqishlash, savollar berish, ularning fikrlarini hurmat qilishni namoyish etishi, shaxslararo munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan o‘quvchini qo‘llab-quvvatlash, unga motivatsiya berish, unga do‘st bo‘la olish, uning qiziqishlariga e’tiborli bo‘lish, quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish, ta’lim - tarbiya jarayonida o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslangan do‘stona muhitni tashkil eta olish, o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan uzviy hamkorlik qila olish, bilim berishni amaliyot bilan bog‘lagan holda muammoli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalana olish, o‘quvchilar orasida sog‘lom raqobatga asoslangan muhitni yarata olish kabi kompetensiyalar kelajakda o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlarida muhim ahamiyatga egadir.

Uzluksiz ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish – ularning o‘quv jarayonlariga ijodiy yondoshuv va novatorlik, kommunikabellik va hamkorlik, moslashuvchanlik kabi kasbiy ko‘nikmalariga ega

bo‘lishi bilan baholanadi. Bu esa, o‘quvchilarning jahon standartlari talablariga javob bera oladigan kadrlar bo‘lib yetishishida yaqindan yordam beradi.

– O‘qituvchining dars jarayonlarini tashkil etishdagi ijodiy yondoshuvi va undagi novatorlik sifatlari o‘quv va mehnat faoliyatida ijodkorlikni va ixtirochilik ko‘nikmalarini namoyon qilish, yangi g‘oyalarni rivojlantirish, qo‘llash va boshqalarga yetkaza olish, muammolarni xal eta olish va tanqidiy fikrlash, murakkab vaziyatlarda qaror qabul qila olish, axborotlarni tanqidiy tahlil qilish, turli nuqtai-nazarlarga aniqlik kirituvchi va eng yaxshi yechimga olib keluvchi savollarni aniqlash va qo‘yish, masala va muammolarni hal etishda hamda savollarga javob topishda axborotlarni strukturalash, tahlil qilish va umumlashtirish da namoyon bo‘ladi.

– Ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilan o‘zaro do‘stona munosabatlarga kirishishda o‘qituvchining kommunikabellik va hamkorlik qilish ko‘nikmalari asosida uning g‘oya va fikrlarni og‘zaki va yozma tarzda aniq va samarali ifoda etish, o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ota-onalar jamoalarida samarali faoliyat yurita olish, o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatda mas’uliyatni bo‘lisha olish kabi fazilatlarga ega ekanligi muhim hisoblanadi.

– O‘qituvchidagi moslashuvchanlik kompetensiyasi unga yuklatilgan turli hil mas’uliyatlarga moslashish, notanish sharoitlarda ham o‘zini tuta olish, tashabbuskorlik va mustaqillikni qo‘lga olish, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan extiyojlarini belgilay olish, ularning bilim darajalarini kengaytirish va yangi tajribaga ega bo‘lish maqsadida o‘quv dasturi doirasidan chiqa olish, pedagogik ko‘nikmalardan professionallik darajasiga ko‘tarishda shaxsiy tashabbus ko‘rsatish, o‘zi mustaqil ravishda vazifalarni belgilay olishi va hal eta olish, vaqtdan samarali foydalanish va ish yuklamasini boshqara olish, butun hayoti davomida ta’lim olishni namoyish eta olishga egaligi bilan baholanadi.

– Natijada o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi shaxslararo munosabatlarga kirisha olishda o‘qituvchidagi quyidagi samaradorlilik ko‘nikmlari muhim hisoblanadi:

– yuklatilgan vazifalarni sifatli va o‘z vaqtida bajarish uchun yuqori standart va maqsadlarni belgilash va ularga erishish;

– tirishqoqlilik va ijobiy ahloqiy sifatlarni namoyon eta olish (masalan, punktuallilik);

– boshqaruvchanlik, liderlik va mas’uliyatlilik;

– umumiy maqsadga erishish yo‘lida o‘quvchilar va ota-onalarning kuchli jihatlaridan foydalana olish;

– o‘z imedjiga ega bo‘lish, namuna ko‘rsata olish, halollik va ahloqiy

normalarni namoyish eta olish kabilar.

Bugungi globallashuv jarayonlarida juda koʻp sohalarning rivojlanishi har tomonlama ilmiy salohiyati yuqori boʻlgan kadrlarga bogʻliq boʻlib qolayotganligi, shubhasiz, albatta.

Zero, bugungi taraqqiyot jarayonlarida uzluksiz taʼlim tizimining rivojlanishi hamda Uchinchi renesans davriga shaxdam qadam qoʻyishda oʻqituvchilarning hissasi beqiyos boʻlib, ushbu dolzarblik Sharqning buyuk allomalari merosida ham oʻz aksini topgan.

Demak, taʼlim sifatini oshirish, jahon talablariga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlashda boʻlajak oʻqituvchilarning shaxslararo munosabatlarga kirisha olish koʻnikmalarini tarkib toptirish muhim shartlardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022y 20-dekabr.
2. Дилова H. Boshlangʻich taʼlimda oʻquvchilarda shaxslararo munosabatlarga kirishish koʻnikmalarini shakllantirish imkoniyatlari/ «Science and Education» Scientific Journal / ISSN 2181-0842 October 2021 / Volume 2 Issue 10.
3. Dilova N. G., Boltayev S. B. Taʼlim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishda pedagog kadrlarning oʻrni/ TAʼLIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR/ 2022y. 5 son.
4. Dilova N. G., Boltayev S. B. Taʼlim va tarbiya samaradorligini oshirishda pedagogik-psixologik aloqaning ahamiyati / TAʼLIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR/ 2022y. 8 son.

# O‘ZBEKISTON HARBIY OLIYGOHLARIDA BO‘LAJAK OFITSERLARNING HARBIY-JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

**_C.C.YARASHEV,_**
_O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasining katta o‘qituvchisi_

_Maqolada O‘zbekiston harbiy oliygohlarida bo‘lajak ofitserlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish to‘g‘risida so‘z yuritiladi._

***Tayanch so‘zlar:*** _Harbiy, ofitser, pedagogika, texnologik kompetentlik, jismoniy rivojlantirish._

_В статье говорится о развитии военных и физических подготовок будущих офицеров в военных академиях Узбекистана._

_Опорные слова: военный, офицер, педагогика, технологическая компетентность, физическое развитие._

_The article talks about the development of military and physical capabilities of future officers at the military academies of Uzbekistan._

_Key words: military, officer, pedagogy, technological competence, development._

Respublikamiz Oliy harbiy ta’lim muassasalarida o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish, bo‘lajak ofitsyerlarning texnologik kompetentligini rivojlantirish, ma’naviy-axloqiy tayyorgarligi, harbiy-jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, ularda harbiy vatanparvarlik, millatlararo bag‘rikenglik, tafakkur hamda ijodiy fikrlashini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilib, harbiy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarini tashkil etishning takomillashtirilgan dasturiy ta’minoti takomillashtirilmoqda. Natijada bo‘lajak ofitserlarni tayyorlashda eng zamonaviy texnologik kompetentligini rivojlantirish, o‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish va yangi bosqichga yuksaltirishni talab etadi.

Oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, fuqarolik, millatlararo va konfyessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash, davlatning Mudofaa qobilyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish kabi vazifalar belgilangan. Bu esa, harbiy ta‘lim mazmunini modernizatsiyalash, interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari amaliyotga keng tatbiq etish, bo‘lajak ofitsyerlarda texnologik kompetentlikni rivojlantirishning harbiy mexanizmlarini takomillashtirishni ilmiy asoslash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Jahonda bo‘lajak ofitserlarning xalqaro standartlar asosida harbiy-jismoniy

tayyorgarligini rivojlantirish, ofitserlarda strategik muqobillik, harbiy vatanparvarlik, millatlararo totuvlik, tolerantlik tafakkurini hamda ijobiy mardona fikrlarni rivojlantirish masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ofitserlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish usullarini takomillashtirish harbiy ta’lim tizimini fuqarolik jamiyatida yaxshilash, eng ilg‘or texnologik yondashuvlarga asoslangan davlat ta’lim standartlarini tadbiq etish, harbiy o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning imkoniyatlaridan atroflicha foydalanishni yangi ilg‘or marralarga ko‘tarishni talab etmoqda.

Bo‘lajak ofitserlarda uzluksiz texnologik kompetentlikni shakllantirish – O‘zbekiston Respublikasi xalqida, ayniqsa yoshlarida O‘zbekiston Respublikasi bilan faxrlanish tuyg‘usi va mustaqil Vatanini himoya qilish qobiliyatini shakllantirishdir. Siyosiy va axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, g‘oyaviy-nazariy asosi – Vatan xavfsizligi uchun fuqarolik burchi va mas’uliyatini anglab yetishdir. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining vazifasi – Vatanga muhabbat, baynalmilallik, Qurolli Kuchlarning jangovar va o‘zbek xalqining milliy an’analariga sodiqlik sifatlarini tarbiyalash, harbiy va harbiy-texnik bilimlarning puxta egallanishiga omil bo‘lishdir. Rivojlangan harbiy ta’lim sharoitida bo‘lajak ofitserlarda ofitserlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, texnologik kompetentlikni takomillashtirishning psixologik xususiyatlari hamda bo‘lajak ofitserlarda texnologik kompetentlikni takomillashtirishning amaliyotdagi holati hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bo‘lajak ofitserlarlarni tayyorlash nuqtai nazaridan kompetyentsiya – harbiy ta’lim tizimida fanlarini o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan va kasbiy tayyorgarlikka qo‘yiladigan ijtimoiy talablar (me’yorlar)dan o‘zib ketishdir. Tahlillar asosida tadqiqot obyekti bilan bog‘liqlikda «kompetyentsiya» va «kompetyentlik»ni quyidagi ta‘rifi shakllantirildi: kompetentsiya – mehnat bozori sharoitidagi o‘zgarishlar va innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni o‘zida ifodalaydi. Umumta’lim fanlarini o‘qitishga doir texnologik vazifalarni hal etishga qobiliyatlilik, kompetentlik – noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik. Harbiy tayyorgarlik bu:

1. Talabalarni o‘qitish va tarbiyalashning izchil va maqsadli jarayoni;

***Key words:*** *physical culture, emotional-motivational sphere, internal motivation, external motivation, identification of motivation, determination of the levels of formation of interest.*

В системе образования развитых стран мира является актуальной задачей формирование физической культуры личности. Проводятся масштабные исследования в области формирования здорового образа жизни и повышения физической активности населения, совершенствования воспитания молодежи, создания условий для оздоровления населения. Исследования, направленные на повышения физической активности личности и внедрение в его сознание принципов здорового образа жизни, проводятся в массовых и спортивных мероприятиях в Южной Корее, Китая, Японии, США, Германии др. Это позволяет научно обосновать, что спорт

является не только средством физического развития, но и средством обеспечения интеллектуальной и духовной зрелости. Кроме того, Декларация развития 2030 года, принятая на Всемирном образовательном форуме в Инчхоне, Южная Корея, призывает к «интенсивному развитию навыков различения своих гендерных ролей и осваивать овладения гендерными ролями у учащихся-подростков» [1].

В развитых странах и международных научных центрах разрабатываются исследования и международные стандарты по задачам ориентации общества посредством концептуальной разработки теоретических основ занятий физической культуры, а также разработки инструментов повышения интереса к данной сфере. В практике развитых стран спортивная педагогика развивается как эффективное средство привлечения молодежи к физической культуре, совершенствуются ее воспитательные и побудительные функции. Поэтому обостряется задача поиска эффективных аспектов формирования интереса подростков к физической культуре в зарубежных странах с высокими показателями здоровья и физической активностью и создания тем самым действенных механизмов привлечения учащихся к физической культуру.

Основная часть. В целях реализации задач, указанных в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 20 ноября 2020 года № 735 «О дополнительных мерах по поддержке здорового образа жизни и повышению физической активности населения», определилось необходимость проведения научных исследований в данном направлении. С учетом этого в основной целью политики государства в области физической культуры является актуальной задачей оздоровление и формирование здорового образа жизни населения, гармоничное воспитание здорового и физически развитого поколения. В этих условиях существенно повышается статус физической культуры как учебной дисциплины и как важнейшего компонента целостного развития личности.

Улучшение материальной базы для занятий физической культурой и спортом, увеличение количества уроков по физической культуре, повышение уровня требований к выполнению учебных нормативов представляют собой варианты, основанные на экстенсивном подходе, и поэтому, оставаясь значимыми факторами, не пригодны для разрешения данной проблемы на социально приемлемом уровне, поскольку, изменяя внешние условия физкультурной деятельности, оставляют вне поля зрения индивидуальное своеобразие образовательных возможностей и потребностей личности. Решение этой

проблемы возможно только на основе практической реализации идеи социально-гуманистической направленности образовательного процесса.

Развитие интереса к физической культуре – формируется на основе развития мотивационных процессов. Мотивация учащихся может быть внешней и внутренней. Необходимо особо отметить внутреннюю мотивацию при развитии интереса, тогда как внешняя мотивация может быть стимулирующим фактором. На основе проявления внутренней мотивации учащийся с интересов и с инициативой участвует на занятии и достигает успеха, реализует свои мотивы и цели. Фактором возникновения внутренней мотивации является удовлетворенность учащегося от деятельности и стимулирующей, развивающей среды (взаимоотношения субъектами образования). При этом у подростков сознание и самосознание достигают определённого уровня, происходит овладение понятийным мышлением, накапливается моральный опыт, осваиваются различные социальные роли, в рамках самоопределения формируется идентичность [2].

При формировании и развитии интереса учащихся к физической культуре целесообразно объяснять не только технику упражнения, но и особенности и необходимость активного образа жизни, физической активности. К примеру, для чего необходимо выполнять прыжки – для укрепления мышц, развития координации движений, умения ориентироваться в пространстве и т.д.

Основной задачей педагогов является формирование умения учащихся проявления усилий при выполнении упражнений для развития физических способностей. При этом условии можно говорить об успешном формировании внутренней мотивации и интереса учащихся к физическим упражнениям. Для успешного формирования мотивации необходимо подбирать подростку доступные упражнения и задания с учетом возрастных особенностей и в то же время с постепенным усложнением данных заданий и упражнений, т.е. постоянным стимулированием интереса к занятиям.

При этом педагогу необходимо диагностировать способности учащегося для достижения оптимального для него результата. К примеру, при обучении сложного упражнения отводиться несколько занятий, но при этом на каждом уроке ученик должен освоить определенную часть техники, задачи. При этом необходимо применять индивидуальный подход учащимся, которые усваивают технику упражнения в разном темпе. Легко и быстро усвоившему ученику, можно предлагать совершенствовать данное упражнение из различных исходных положений и т.д.

При этом более успешно выполняющий задания ученик ориентируется на оказание помощи более слабому учащемуся в освоении техники выполнения изучаемого движения и постараться и объяснить своему подопечному, почему у него это движение не получается. А выполнив своё задание, все учащиеся должны с помощью учителя оценить данное выполнение. И обязательно при любом результате их должно ждать одобрение, подбадривание со стороны учителя [3]. При этом одной из педагогических условий формирования интереса у учащихся является применения анализа и самоанализа выполненных техник упражнений, где учащиеся после выполнения упражнения с помощью учителя должны определить, как можно исправить совершенные ошибки при выполнении задания, а так же отметить успехи выполненных элементах упражнения. При этом условии формируется в сознании детей связи между достигнутымы результатами и своей активной деятельностью [3].

Для обеспечения вышеуказанных факторов и условий формирования интереса учащихся к занятиям физической культурой необходимо применять интерактивные, инновационные методы обучения, создавая психологически комфортную и активную образовательную среду, что непременно обеспечить эффективность занятий.

Как утверждают исследователи процесс формирования интереса к занятиям физической культурой – это не одномоментный, а многоступенчатый процесс: от первых гигиенических знаний и первого знакомства с физическими упражнениями до глубоких психофизиологических знаний и интенсивных занятий спортом. Занятия спортом – это одна из возможных ступеней процесса физического и духовного совершенствования человека [4].

При развитии интереса к физическим занятиям у учащихся необходимо учитывать аспекты удовлетворенности занятиями физическими упражнениями. При удовлетворённости уроком, развиваются интерес и положительные отношения к физической культуре. При этом важную роль играют достижение определенных результатов при занятиях. Ориентация на результате обеспечивает эффективность формирования интереса к физической культуре, а также способствует физическому оздоровлению подростков.

При проявлении интересов учащихся к физической культуре необходимо следить за динамикой укрепления здоровья, правильного формирования осанки, развития эмоционально-волевой сферы и двигательной активности.

Так, из анализа педагогических исследований, можем отметить что инте-

рес учащихся зависит от многих факторов, и имеет свои возрастные особенности, поэтому учителя, педагоги на уроках физической культуры должны применять педагогические методы диагностики способностей учащихся, наблюдать за динамикой развития интересов и мотивации каждого подростка.

На основе научно-теоретического и практического анализа изученной проблемы выявлено необходимость решения следующих вопросов:

– выявить особенности возрастной динамики мотивационных предпочтений и интереса учащихся к физической культуре посредством гендерного подхода в условиях традиционной практики физического воспитания на основе определения эмоционально-волевых возможностей субъектов педагогического процесса.

– определить основные противоречия традиционной практики физического воспитания, посредством моделирования мотивационных ситуаций формирования интереса учащихся к физической культуре.

Выводы. Как показал научно-теоретический анализ, интерес учащихся к физической культуре возрастает, когда в короткий промежуток времени учитель и ученик добиваются сдвигов в обучении физическим упражнениям. В результате это способствует развитию внутренней мотивации, целеустремленности и выносливости, что является важным в подростковом возрасте, для сформирования стойкости длительным напряжениям под воздействием только внешней мотивации.

**Использованная литература:**

1. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000233137_rus

2. https://znanio.ru/media/gendernye_osobennosti-_podrostkovogo-_vozrasta-71329

3. https://nsportal.ru/shkola/fizkultura-i-sport/library/2021/01/10/formirovanie-interesa-k-zanyatiyam-fizicheskoy-kulturoy

4. Дуркин П.К. Научно-методические основы формирования у школьников интереса к физической культуре: Автореф. докт. дис. Архангельск, 1995. - 43 с.

# UZLUKSIZ TA'LIMDA INFORMATIKANI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

***Z.X.MAMATOVA***
*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

*Maqolada uzluksiz ta'limda axborot-kommunikatsiyani ta'lim jarayoniga tatbiq qilish va informatikani o'qitishda tahsil oluvchilarning kompetentligini rivojlantirish, kompetentli yondashuv nuqtai nazaridan ularda axborot bilan ishlash ko'nikmalarining rivojlanishini ta'minlash xaqida ma'lumotlar keltirilgan.*
***Tayanch tushunchalar:*** *axborot-kommunikatsiya, ta'lim jarayoni, informatikani o'qitish, tahsil oluvchi, axborot, bilim, ko'nikma, malaka, rivojlanish.*

*В статье представлена информатsія о задачах обучения информатики в непрерывном образовании, применении информатsіи и коммуникатsіи в образовательном процессе; развитии компетентности обучающихся в обучении информатике, обеспечивающая развитие у них навыков работы с информатsіей с точки зрения компетентностного подхода.*
***Ключевые понятия:*** *информатsія, коммуникатsія, образовательный процесс, обучение информатике, обучающийся, знание, умение, навыки, развитие.*

*The article provides information about the tasks of teaching informatics in lifelong education, the use of information and communication in the educational process; development of students' competence in teaching computer science, which ensures the development of their skills in working with information in terms of a competency-based approach.*
***Key words:*** *information, communication, educational process, teaching computer science, student, knowledge, skill, skills, development*

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida informatikani o'qitishga katta e'tibor qaratilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida «Informatika va axborot texnologiyalari», kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda «Informatika va axborot texnologiyalari», oliy ta'limda esa «Informatika va raqamli texnologiyalar», «Multimedia makonida raqamli texnologiyalar», «Tarmoq texnologiyalari» kabi o'quv predmetlari va o'quv kurslari joriy etilgan bo'lib, ular DTS (2021)da belgilangan talablar asosida o'qitilib kelinmoqda. Barcha ta'lim yo'nalishi tahsil oluvchilarini bo'lajak kasbga yo'naltirish va kasbga tayyorlashda mazkur fan muhim ahamiyatga ega.

Umumiy o'rta ta'limda informatikani o'qitish maqsadi – o'quvchilarning axborot-texnologiyalari sohasidagi bilimini kengaytirish, sohaga oid asosiy tushunchalardan xabardor bo'lish, kompyuter savodxonligini oshirishga

mo‘ljallangan. Oliy ta’limda esa-talabalarning kasbiy sohasida uchraydigan raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq muammolar yechimlarini topishda, axborot texnologiyalari muammolarini bartaraf etish yo‘llarini bo‘lajak mutaxassislarga o‘rgatishda, bo‘lajak mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun yetarlicha bilimlar berishda, o‘qitish shakllari, uslublari, vositalarini o‘rgatishda metodik yo‘l ko‘rsatadi. Unda har bir kasb egasining faoliyati kerak bo‘lgan tayanch nazariy va amaliy ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

XXI asrda jamiyat taraqqiyotining omillaridan biri – raqamlashtirish inson hayotining barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot jamiyati shakllanishi bilan ta’lim sohasida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda «Ta’limni elektron rivojlantirish» milliy loyihasi doirasida zamonaviy raqamli ta’lim muhiti ustuvor vazifa sifatida amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, o‘qituvchilar tarkibini tayyorlash tizimining hozirgi holatini tahlil qilish natijasida ta’limni raqamlashtirishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan bir qator muammolar mavjud:

– birinchidan, modernlashgan texnik qurilmalar, IT sohasidagi dasturlar, dasturiy ta‘minot bilan ishlashga ayrim o‘qituvchilarning salohiyati yetish – ikkinchidan, o‘qituvchilarni tayyorlaydigan pedagogik universitetlarning haqiqiy texnik imkoniyatlari ko‘pincha zamonaviy maktabning texnik jihozlaridan sezilarli darajada orqada qolayotganligi;

– uchinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarni ixtisoslashgan elektron ta’lim resurslari bilan ishlashga jalb qilinmayotganligi va boshqalar. Bu muammolarni o‘rganish uchun, biz axborot-kommunikatsion texnologiyalari orasida so‘nggi o‘n yildagi modernizatsiyalangan texnologiyalar mohiyatini aniqlash va informatikani o‘qitishda ularning tutgan o‘rni, informatika o‘qituvchisining pedagogik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik jihatlarini o‘rganishga kirishdik.

Informatikani o‘qitishda raqamli ta’lim muhiti resurslaridan foydalangan holda (masalan, zamonaviy mobil qurilmalar, gadjetlar, interaktiv uskunalardan foydalanish, podkasting, skrinkasting, strim va kengaytirilgan real texnologiyalaridan, shuningdek veb-xizmatlardan, mobil ilovalardan va alternativadan foydalangan holda universal mualliflik o‘qitish usullari bo‘yicha dasturiy ta‘minot) pedagogik jarayonni tashkil etish muhim bo‘lib hisoblanadi va yuqorida nomi zikr etilgan komponentlar didaktik jarayonlarda yetishmasligi muhim muammo hisoblanadi. Qayd etilgan masalalar kasbiy faoliyatga raqamlashtirish sharoitida moslasha oladigan pedagog kadrlarni tayyorlash vazifalarini quyadi.

Ta’limdagi ommaviy axborot vositalari va ularning o‘qitish nazariyasi va amaliyotiga ta’siri masalalari 2005 yilda Yevropa Ta‘lim Komissiyasi ko‘magi bilan tayyorlangan eng yaxshi namunalar va natijalarning dastlabki kuzatuvlari tahlillarida: «o‘quv jarayonida

raqamli vositalardan foydalanish usullari»ning quyidagi tasnifi taqdim etiladi:

1. Mavjud axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish: internet oqimidagi axborotlarni saralash; uzluksiz raqamli texnologiyalar (hujjatli, o‘quv va h.k); pedagogik jihatdan qimmatli raqamli vositalarini izlash; ta'lim manbalariga ega bo‘lgan on-layn media-kutubxonalarga kirish;

2. Mustaqil ommaviy axborot vositalarini yaratish (o‘qituvchi va tahsil oluvchilar tomonidan): ma‘lum bir mavzuni grafik namoyish qilish va videomaterial yaratish; auditoriyadan tashqari tadbirlarning taqdimoti va oqim videosini yaratish; qisqa videoklip taqdimoti;

3. Uzun videolarni tahrirlash va qayta ishlash orqali qisqa videoroliklar yaratish; pedagogik maqsadlar uchun uzoqroq oqim videolarini yaratish; 4. «virtual media kutubxonasi» ni video yozuvlar bilan to‘ldirish (o‘qituvchi va talabalar birgalikda o‘z resurslaridan foydalanadilar) [4,7-b.].

Informatikani o‘qitish jarayonining ta‘limiy vazifasi tahsil oluvchilarda bilim, ko‘nikma,malaka va kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat ekanligi ta‘kidlagan holatda, aytish joizki, o‘qitish natijasi sifatida bilimlarining to‘liqligi, chuqurligi, tizimliligi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar informatikani o‘qitish ta'lim jarayonining metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Informatikani o‘qitish jarayonining rivojlantiruvchi vazifasi tahsil oluvchilarning fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy, intellektual sohalarini rivojlantirishda o‘z aksini topadi. Raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarining dinamikasida, olingan va egallangan bilimlarni hayotda qo‘llay olish malakalarida o‘z ifodasini topadi[5,4-b.].

Informatikani o‘qitish bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Xususan, o‘qitish o‘qituvchi rahbarligida tahsil oluvchining o‘quv materiallarini rejali ravishda bilib olish jarayonidir. Bu jarayonni bilish bosqichidan iborat bo‘lgan tarkibiy qismlarga (yoki komponentarga) ajratish mumkin. Tahsil oluvchi bilmaslikdan bilish, uddasidan chiqa olmaslikdan uddulay olish, malakalar hosil qilish yo‘lidan borib, ushbu bosqichlardan o‘tishi kerak.

Har bir bosqich uchun talabalarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati xarakterlidir. Bu faoliyat o‘qituvchi tomonidan alohida rahbarlikni talab etadi.

Ta'lim jarayonining bu ikki tomoni (o‘qitish va o‘qish) bir maqsad: ta'limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalangan holda o‘quv materialni egallab olish maqsadi bilan birlashgandir. «Informatikani o‘qitishda tahsil oluvchining bilish faoliyati va uning tuzilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘rgatuvchilik faoliyati yoki o‘qitish, tahsil oluvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarishdan iborat bo‘ladi va ularni mashg‘ulotlar uchun uyushtirishda, ularning diqqati, tafakkuri, hatti-harakati va

hokazolariga rahbarlik qilishda, ular oldiga ularning faoliyatini tobora murakkablashtirilgan vazifalarni izchillik bilan qo'yib borishda, ularni tekshirib borish kabilarda o'z ifodasini topadi» [8,67-b.]. O'quv faoliyati, yoki o'qish bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, talabalarning intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi. O'qituvchining oqilona biror maqsadga qaratilgan rahbarligi va talabalarning esa faol ongli ishtirokisiz, ta'lim jarayonida ijobiy natijalar bo'lishi mumkin emas.

Shunday qilib informatikani uzluksiz ta'limda o'qitish ta'lim jarayoni subyekti bo'lmish-tahsil oluvchining bilish faoliyatida aks etadi. Shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega ta'lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o'rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: uning ta'lim olishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi o'qituvchilar munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan. Informatikani o'qitish jarayonida tahsil oluvchining faoliyati haqida gap borganda uning bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar:**


1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 февралдаги «Ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳасини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5349-сон Фармони // https://www.lex.uz/acts/3893445.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий мажлисга мурожаатномаси // Правда востока, 2017 йил 23 декабрь. - № 248 (28706). - Б. 2.

3. Абдуқодиров А.А. Теория и практика интенсификации подготовки учителей физико-математических дисциплин // - Т., «Фан»,1991.

4. Абдуллаева Ш.А. Совершенствование качества образование в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров // Практическая психология и педагогика. - Москва, 2018. - №3. - С.24-31.

5. Арбузов С. С. Реализация информационно-технологической модели подготовки будущих ИТспециалистов в области инфокоммуникационных систем и сетей // Педагогическое образование в России. - 2014. - № 8. - С. 85-89. 2. Арбузов С. С. Технологии подкастинга как средство активизации учебной деятельности студентов при обучении компьютерным сетям // Педагогическое образование в России. - 2015. - № 7. - С. 30-35.

# UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA O'QITISH GEYMLARIDAN FOYDALANISH

***Sh.A.RO'ZALIEV,***
*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

*Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar sharoitida tahsil oluvchilarga geymifikatsiya yordamida informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish masalalari yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.*
***Kalit so'zlar:*** *uzluksiz ta'lim, raqamli texnologiyalar, shaxs, geym, kompyuterli o'yin, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.*

*В статье представлена информатsiя по вопросам обучения студентов информатике и информатsiонным технологиям в контексте внедрения цифровых технологий в систему непрерывного образования с помощью геймификатsiu.*
***Ключевые слова:*** *непрерывное образование, цифровые технологии, личность, игра, компьютерная игра, информатsiонно-коммуникатsiонные технологии.*

*The article provides information on teaching students computer science and information technology in the context of introducing digital technologies into the system of continuous education using gamification.*
***Key words:*** *lifelong education, digital technologies, personality, game, computer game, information and communication technologies.*

Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim jarayoni ham uning har bir bosqichida mana shu yangilangan mohiyatni, innovatsion mazmunni yoshlar tafakkuriga singdirish va ularni raqobatbardosh qilib jamiyatga yetishtirib berish taqozo qilinmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'limda barkamol shaxs shakllanishiga doir barcha vazifalarni yangi bosqichga chiqarish, mazkur maqsadning nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqish, uzluksiz ta'lim tizimi uchun joriy etish mexanizmlarini belgilash kabi vazifalar ham dolzarblik kasb eta boshladi.

Raqamli texnologiyalarning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan keng foydalanish, uzluksiz ta'lim jarayoniga ularni tatbiq qilish orqali tahsil oluvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirish hamda fan-texnologiyalarning so'nggi yutuqlarini ta'lim jarayoniga joriy etishni talab etmoqda. Shuningdek, yangi mazmundagi didaktik shakllardan foydalanish, innovatsion tavsifdagi ta'lim vositalarini amaliyotga qo'llash, tahsil oluvchilarda motivatsion va kognitiv qiziqish doiralarini kengaytirishga ehtiyoj

mavjud. Bu esa, ta'lim jarayonida akademik bilimlarni o'zlashtirishga mo'ljallangan geymifikatsiya texnologiyalarini tashkil etishni taqozo etadi.

Geymifikatsiya – ta'lim jarayoni subyektlarining IT sohasida bir necha darajali topshiriqlarini bajarish va har bir bosqichda natija sarhisobi bo'yicha navbatdagi bosqichga o'tish imkoniyatini yaratuvchi jarayon.

D.Shavkieva fikricha, «hozirgi kunda geymifikatsiya ko'proq biznes va ishlab chiqarish sohalarida qo'llanilib kelinsada, ta'lim jarayoniga geymlarning tobora kirib kelishi, uning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda»[3,67-b.]. Fikrini davom ettirib, olima «geym» – didaktik tavsifga ega bo'lgan, tahsil oluvchini o'quv predmetiga qiziqishini va motivatsiyasini oshirishga mo'ljallangan kompyuterli o'yin», – deya ta'riflaydi.

Ta'lim geymifikatsiyasi ta'limiy maqsadga erishish yoki qo'yilgan masalani yechishga qaratilgan geym-o'yinlar ketma-ketligini bajarish borasida ijrochiga tushunarli va aniq ko'rsatmalar berish nazarda tutiladi. Uzluksiz ta'lim didaktikasi nuqtai-nazaridan o'qitishning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

– o'qitish muqobil va muammoli xarakterga egaligi, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash uchun qulayligi kabilar.

– ta'lim mazmuni va o'quv faoliyati shakllarining izchillik, o'quv jarayoni ishtirokchilari orasida o'zaro dialog muhitining ta'minlanganligi;

– o'quv jarayonida tahsil oluvchilarning faolliklari, mustaqilliklari, o'z-o'zini rivojlantirishi, ijodiy faoliyat ko'rsatishi, o'zlarini munosib baholay olishlariga erishilishi kabilar.

Uzluksiz ta'lim didaktikasi va Informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish metodikasida ta'kidlanishicha [5,71-b.] o'qitish sifati hammadan avval o'qituvchining ilmiy metodologik tayyorgarligiga bog'liqdir. Bunda didaktikadagi onglilik tamoyili katta ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotni tashkil etishda uni algoritmik jihatdan loyihalash, har bir bandini qisqacha xulosalash; mashg'ulotning bir qismidan ikkinchisiga o'tishda mantiqiy aloqadorlikni ta'minlash; mashg'ulotda matnni muammoli va hissiy tarzda bayon qilish; bunda nutq imkoniyati, misollar, aniq dalillar va qiyoslashlardan foydalanish; tahsil oluvchilarning bilish faoliyatini mahorat bilan boshqarish va boshqalar.

Informatika va axborot texnologiyalari kursini o'qitishda tahsil oluvchilar harakat dinamikasida to'laqonli ma'lumot olishga erishishlari uchun turli virtual laboratoriyalarni tashkil qilish, geymifikatsiyaning turlaridan foydalanish zarur bo'ladi.

«Raqamli texnologiyalar sharoitida tahsil oluvchilarga geymifikatsiya yordamida asosiy e'tibor kompyuterli o'yin shaklidagi o'quv faoliyatiga qaratiladi»[4,64-b.]. Shunday ekan, geymifikatsiya yordamida tahsil oluvchilarga raqamli texnologiyalar ko'p bilim berish imkoniyatini ochadi. Taqdim qilinayotgan

o‘quv materialini bayon etish natijasida mavzuning maqsadi, uning asosiy mazmuni va o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan savollar tahsil oluvchilarga tushunarli bo‘lishi kerak. Yangi mavzu geym (o‘yin)lar asosida, barcha tahsil oluvchilarning faol ishtirokida olib borilgandagina, ularda o‘rganilayotgan mavzuga bo‘lgan qiziqish ortadi.

Ta’lim tamoyillari asosan ta’limning tizimliligi, ilmiyligi, ongliligi, ko‘rsatmaliligi, individual yondashish, bilimning mustahkamliligidan iboratdir. Quyidagi tartibda geymifikatsiya tamoyillaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi: motivatsiya va ta’lim subyektlarining o‘zaro ta’siri, ishtirok etish va undan bahramand bo‘lish. Geymifikatsiya psixologik nuqtai nazardan, g‘alaba, maqtov va mukofotlardan bahramand bo‘lish orqali relaksatsiya gormonini ishlab chiqaradi. Geymifikatsiya murakkab muammolarini hal qilishga, sport bilan shug‘ullanishga, sog‘lom turmush tarzini olib borishga, tabiatni muhofaza qilishga undaydi. Uzluksiz ta’lim tizimida geymifikatsiya dasturida ishlatiladigan atamalarni saralab chiqdik. Ular:

– o‘yinchilar (player) – iste’molchilar (consumers – ta’lim jarayoni ishtirokchilari) va potensial iste’molchilar;

– motivatsiya – harakatlar, reaksiyalar uchun rag‘batlantirishni yaratish. harakatlar (inglizcha: actions) – foydalanuvchidan talab qilinadigan reaksiyalar;

– mahorat darajalari (skill levels) – foydalanuvchilarni yutuq darajalari bo‘yicha tabaqalashtirish (masalan, oddiy o‘yinchi yoki iste‘molchi boshqa o‘yinchilar orasida yetakchi darajasiga yetishishi mumkin);

Geymifikatsiyada ishlatiladigan o‘yin komponentlari orasida: skorlama, qiyinchilik va mahorat darajasi, yutuqlar, yetakchilar jadvallari, yutuqlar paneli, virtual valyutalar, ishtirokchilar o‘rtasidagi musobaqalar, mukofotlar bo‘lishi kuzatiladi.

Agentlik asosida modellashtirish – bu simulyatsiyali modellashtirishda nisbatan yangi (1990-2000 yillar) yo‘nalish bo‘lib, u markazlashtirilmagan tizimlarni o‘rganish uchun ishlatiladi, ularning dinamikasi global qoidalar va qonunlar bilan belgilanmaydi (boshqa modellash paradigmalaridagi kabi), aksincha, ular global qoidalar va qonunlar asosida guruh a’zolarining individual faoliyati natijasidir[6,198-b.].

Agent – bu faollik, avtonom xulq-atvorga ega bo‘lgan, ma’lum qoidalar to‘plamiga muvofiq qaror qabul qilishi, atrof-muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lish, shuningdek mustaqil ravishda o‘zgarishi mumkin bo‘lgan ma’lum bir shaxs.

Tahlillardan ayon bo‘lishicha, uzluksiz ta’lim jarayonini tashkil etishda qo‘llaniladigan geymifikatsiya foydalanuvchilar va iste’molchilarni jalb qilishga qaratilganligini ko‘rish mumkin. Bunday geymifikatsiyaning ko‘rinishi SMART

(aqlli) ta'limi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda dunyo uzluksiz ta'limida SMART ta'limi keng qo'llanilib, intellektual ta'lim muhitini yaratmoqda. Ushbu texnologiya o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish; o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi boshqarish; natijaga samarali erishish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu atama keyingi ijtimoiy yoki texnologik rivojlanish bosqichi tushunchalari darajasida aks ettirishga imkon beradi. Qizig'i shundaki, yangi aqlli texnologiyalardan foydalanishning bir nechta mantiqiy zanjirlari mavjud.

Shunday qilib, uzluksiz ta'lim jarayonida- umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'limda geymifikatsiya yordamida Informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'quv materialini o'zlashtirish asnosida tahsil oluvchilar tomonidan tayyorlangan ko'rgazmali qurollar, chizmalar, yozilgan yozma ishlar, bajarilgan mashqlarni tahlil qilish orqali tahsil oluvchining ijodkorligi, topqirligi, idroki, fikr yuritish doirasi haqida xulosalar chiqariladi.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 yil 11 iyuldagi «Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4391-son qarori. Elektron resurs:http:www.lex.uz. (murojat sanasi: 08.12.2020).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi «Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4851- sonli Qarori // https://www.lex.uz/acts/3893445.

3. Abdullaev F., Shavkieva D. Ta'lim tizimiga geymifikatsiyani tatbiq qilish. Monografiya. -T.; Moliya, 2019. -102 b.

4. Djuraev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. -Toshkent, 2010. -87 b.

5. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma -T., 2015. - 208 b.

6. Polat Ye.S. Noвыe pedagogicheskie i informatsionnыe texnologii v sisteme obrazovaniya. -M., 2019. -S 198.

7. Ro'zaliev Sh.A. Geymifikatsiya texnologiyalari asosida didaktik jarayonlarni modellashtirish. «Tillarni o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llash zamonaviy ta'lim muhitini tashkil etish vositasi sifatida: muammolar va yechimlar» mavzusida. xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy ishlar to'plami. T. 2022. - 307-309 b.

# TALABA YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI

***N.Z.MADAMINOVA,***
*(PhD) v.b.dotsent,*
***E.F.YUSUPOVA,***
*(PhD) dotsent*

*O'rta maktabni bitirgan har bir o'quvchi avvalo o'zining kelajakdagi kasbi va kim bo'lib ishlashini o'ylaydi, kelajakda qanday mutaxassislikni egallash fikri uni doimo tashvishga solib turadi. Yosh o'quvchilarning kasb to'g'risidagi orzu-tilaklarini qondirish ularning shu sohadagi huquqini himoya qilish demakdir. Shu ma'noda mazkur maqola bevosita o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalalariga qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *faol ijtimoiy qatlami, ijtimoiy-siyosiy faollik, talaba yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini rivojlantirish, talabalar bilim darajasi, talaba yoshlar siyosiy ongi, dunyoqarashi, jamiyatdagi siyosiy vaziyatlar.*

*Every student who graduates from high school first of all thinks about his future profession and who he will work as, what kind of specialty he will take in the future always worries him. Fulfilling the dreams of young students about the profession means protecting their rights in this field. In this sense, this article is directly focused on the issues of developing the social activity of students and youth.*

***Key words:*** *active social stratum, socio-political activity, development of socio-political activity of student youth, students' level of knowledge, political consciousness of student youth, worldview, political situations in society.*

Jamiyat o'z oldiga mustaqil fikrlovchi, siyosiy ongi, madaniyati yuksak erkin shaxsni shakllantirish vazifasini qo'ymoqda. Bu o'z qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, imoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash demakdir.

Talaba yoshlar jamiyatning ko'zga ko'ringan faol ijtimoiy qatlami hisoblanadi. Respublikamizdagi oliy o'quv yurtlari va kollejlaridagi talaba yoshlar juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Bir vaqtning o'zida ular faol ijtimoiy qatlam sifatida har qanday qiyinchiliklarga qaramasdan kelajakka intiluvchan, o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga harakat qiladigan, kuch-quvvatga to'la guruh hisoblanadi. Bularning barchasi talaba yoshlarning xarakteridagi o'ziga xos xususiyatdir va o'z o'rnida ularning jamiyatning haqiqiy faol qismi bo'lish imkoniyatini beruvchi omildir.

Ayni paytda ularning ijtimoiy ahvolini hisobga olgan holda, talaba yoshlar qatlamining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan bir xil ahvolda emasligini ta'kidlab o'tish joiz. Ba'zi talabalar moddiy jihatdan tashvish chekmaydilar, boshqalari esa o'quv to'lovini to'lash va boshqa shaxsiy muammolarini xal qilish uchun qo'shimcha ish topish xarakatida bo'ladilar, bunga sabab oilaning ijtimoiy va iqtisodiy ahvolini har xil bo'lishidir.

Hozirgi O‘zbekiston talaba yoshlari tarkibi ko‘p millatli bo‘lib, ular turli dinga e’tiqod qiladilar. Bu turli-tumanlik ularning bugungi va ertangi hayotiy maqsadlari, qiziqishlarini bir-biridan farqlanishini kuchaytiradi, albatta. Bu turli-tumanlikning talaba yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini rivojlantirishda ahamiyati unchalik katta emas. Lekin bu yerda ularning ta’siri shubhasiz mavjud. Mana shuning uchun, talaba yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini bugungi kunda bir tomonlama baholash yaramaydi.

Hozirgi talaba yoshlarning yashashi tub o‘zgarishlar, xalqimiz tarixidagi ulkan burilishlar hamda eski tuzum qulab, yangi davrga yo‘l bergan paytga to‘g‘ri keldi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o‘tish davridagi qiyinchiliklar ijtimoiy-siyosiy harakatlarga qatnashishga yoki ijtimoiy-siyosiy jihatdan faol bo‘lishga ko‘pincha vaqt qoldirmaydi. Iktisodiy nuqtai nazardan olib qarasak, ijtimoiy-siyosiy faollik shaxsga moddiy jihatdan foyda keltirmasligi mumkin, lekin ijtimoiy-siyosiy faollik shaxsdan faqatgina ixtiyoriy ravishda o‘zining fuqaroviy-siyosiy huquqlari, burchlarini namoyon qilishni talab qiladi, xolos. Kishilar turmush tarzi o‘zgardi, jumladan, talaba yoshlar siyosiy ongi, dunyoqarashi, jamiyatdagi siyosiy vaziyatlarga baho berishi boshqacha tus oldi. Ilmiy tadqiqotimiz davomida hozirgi talaba yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi past darajada ekanligi aniqlandi. Talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik anketali so‘rov natijasida biz shunga amin bo‘ldikki, talaba yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi bugungi kunda passiv darajada.

Talaba yoshlarning atrofimizda, dunyo sahnida yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarga nisbatan mulohazalari sayozligi va izchil emasligiga sabab nima? Bunga sabab, siyosiy madaniyati, siyosiy ong darajasining hali to‘la shakllanmaganligidir.

Ma‘lumki, mamlakatimizda istiqlol sharofati bilan insonni jamiyat siyosiy va ma’naviy hayotining bevosita faol ishtirokchisiga aylantirish hamda uning siyosiy madaniyati, siyosiy ong darajasini yuksaltirish uchun zarur barcha siyosiy, huquqiy, ma’naviy va mafkuraviy shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish vazifalarini hal qilishga bevosita yo‘naltirilgan. Jamiyatimiz a’zolarining siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish bugungi kunda demokratik taraqqiyotimizning bosh mezoniga aylanmog‘i lozim.

Ma’lumki, o‘quv jarayonini kechishida yuzaga kelayotgan muammolar bilan ko‘proq talabalar duch keladilar. Shuning uchun ular tomonidan bu boradagi ishlarni yaxshilash uchun ular fikriga tayanish ijobiy natijalar berishi mumkin. har ikki talabadan biri talabalarni mustaqil ishlariga etiborni kuchaytirish va laboratoriya ishlarini ko‘paytirish kerak degan talablari universitet rektorati bu yo‘nalishda to‘g‘ri harakat qilayotgani amaliy jihatdan isbotlandi. Jumladan, yangi o‘quv rejasida ma‘ruzalar 40% ni, amaliy mashg‘ulotlar esa 60% ni tashkil etishi bunga aniq misoldir.

O‘tkazilgan so‘rov natijalari statistik qayta ishlandi va dastlabki chora-

tadbirlar majmuasi yaratildi va ular yordamida ta'lim tizimida sifatni ko'tarishning majmuaviy omillari tavsiya etildi. Bularga quyidagilar kiradi:

– ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ishlab turgan o'quv yurtlarini yangi yo'nalishga solish hamda yangi sharoitlar va zamonaviy texnologiyalarda ishlay oladigan mutaxassislar tayyorlashning ijtimoiy bazasini yaratish;

– o'quv-tarbiya jarayoni sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, ta'lim, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining butunlay yangi usullarini joriy etish;

– o'quv yurtlari tuzilmalarini takomillashtirish, xususan tadbirkorlik faoliyatini keskin rivojlantirish;

– yoshlarni milliy g'urur, umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, sadoqat, ilm va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash;

– yoshlarni zamonaviy kasbiy ta'lim olishlari uchun sharoit yaratish;

– hamma muammolarni tezkorlik bilan yecha oladigan yuksak malakali mutaxassislardan iborat kadrlar salohiyatini yaratish va uni rivojlantirish;

– ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini yangi o'quv adabiyotlari, zamonaviy jihozlar va aloqa-kompyuter texnikasi bilan jihozlash;

– pedagogik kasbiga hurmatni oshirish, pedagogik va murabbiylar mehnatiga qiziqishni kuchaytirish uchun zarur sotsial-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish;

– ta'lim tizimi xodimlarining sotsial-demografik tuzilishi, uning shakllanishi, dinamikasi va istiqbolini yaratish;

– talabalar, ular salohiyati, istiqboldagi ularga bo'lgan talab va bilim darajasining zamonga mosligini ta'minlash;

– talabalarning ijtimoiy holati va ularning bilim olishga bo'lgan munosabatlarini o'rganish;

– talabalar bilim darajasining sotsiologik tadqiqotlar yordamida tahlil etish va ularni muqobil darajada oshirish chora-tadbirini ko'rish;

– talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni ilmiy-tadqiqot ishlariga ko'proq jalb etish;

– talabalar sog'lomlik darajasini tadqiq etish va ular sog'ligini yaxshilash yo'llari;

– Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida zamonaviy sportning shakllanishini tadqiq etish;

– Oliy o'quv yurtlarida professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlar, injener-texnik va yordamchi ishchilarning muqobil salohiyatini tashkil qilish;

– OO'Yu da xodimlar salohiyatining tuzilishi va tizimining unumli darajasini aniqlash;

– OO'Yu da xodimlar salohiyatining istiqboldagi holatini belgilash;

– OO'Yu da xodimlar salohiyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati va talablarini o'rganish va ularni qondirishning chora-tadbirlarini aniqlash;

– Professor-o‘qituvchilar qo‘nimsizligini o‘rganish va ular barqarorligini oshirish;

– OO‘Yu da o‘quv-metodik bazaning holatini zamonaviy tarzda shakllantirish yo‘llarini o‘rganish;

– kutubxonalar holati va istiqbollarini belgilash;

– OO‘Yu da va O‘MBYu da darsliklar metodik ko‘rsatmalar va boshqalarning tahlili va ular bilan to‘la ta’minlash istiqbolini belgilash;

– Oliy ta’lim tizimida OO‘Yu va O‘MBYu da ijtimoiy siyosatni belgilash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish;

– bozor sharoitlarida OO‘Yu va O‘MBYu ni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy masalalarini aniqlash;

– Oliy ta’lim tizimida investitsiya siyosatining sotsial-iqtisodiy muammolarini aniqlash va h.k.5

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik g‘oyalari va mafkurasiga monand kelajagi buyuk davlat qurish, ya’ni obod va ozod Vatan barpo qilish, erkin va hur jamiyatni shakllantirish, komil inson – shaxsni tarbiyalab yetishtirish, yuqori madaniyatli – ma’naviyatli jamiyat yaratish hamda yuqori darajadagi moddiy farovonlikka erishish zamonaviy bilimlar asosida mumkinligini va bu yo‘l yagona to‘g‘ri yo‘l ekanligini hisobga olgan holda, Vatanimiz ta’lim tizimini o‘ziga xos va o‘ziga mos model asosida taraqqiy ettirayotganimiz va uning birinchi qaldirg‘och natijalari xalqimizni cheksiz quvontirmoqda. Zero har bir inson Konstitutsiya, ya’ni qomusimizga asosan, ilm olishga huquqi bor ekan, bunday huquqni to‘la amalga oshirish, ta’lim tizimining asosiy vazifasidir. Bunday vazifani amalga oshirish ta’lim tizimida Milliy Dastur va rejalarning amalga oshirish jarayoni doimo nazorat qilib turishni taqozo etadi. Zero, axborotlarsiz va ularning o‘zgarib turishini tahlil qilib, turmushda uchrab turadigan salbiy holatlarni tezkorlik bilan tuzatmasdan turib, ta’lim tizimining unumli darajada rivojlanishini ta’minlash mumkin emas. Bu masalani o‘z vaqtida hal qilish ta’lim tizimida alohida boshqaruv mexanizmi, ya’ni monitoring tizimini yaratishni taqozo etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. - Казань: Изд-во Казанского университета. 2002. - 567 С.

2. Астапенко Е.В. Педагогическое обеспечение формирования конкурентоспособности личности студента в образовательном процессе вуза: Автореф. дис.к.п.н. по специальности 13.00.01. - Красноярск, 2008. - 24 С.

3. Атласова А.Д. Использование кейс - технологии в образовательном процессе//Дистанционное и виртуальное обучение. - 2010. - №10.-С.105-112.

# OLIY TA'LIM MUASSASALARIDAGI TALABA-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI

***G.M.QURBONOVA,***
*TDPU dotsenti*

*Ushbu maqolada talaba-qizlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish shakllari, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlarni tarbiyalash demokratik jamiyatni rivojlantirishda muhimligi ko'rsatilgan.*
***Tayanch so'zlar:*** *talaba-qizlar, shakllari, pozitsiya, ma'naviy yetuk, ijtimoiy faollik.*

*В данной статье показано значение типов развития социальной активности у студенток-девушек, важность воспитания духовно зрелой, самостоятельно мыслящей молодежи с твердой позицией в развитии демократического общества.*
***Опорные слова:*** *студентки, позиция, духовная зрелость, социальная активность.*

*This article shows the importance of the mechanisms of development of social activity in female students, the importance of raising spiritually mature, independent-thinking young people with a firm position in the development of a democratic society.*
***Key words:*** *female students, mechanisms, position, spiritual maturity, social activity.*

2019-yil 2 sentabr qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda Imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi» qonuni mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan yaxlit va asosiy qonun hujjati hisoblanadi. Ushbu qonun bilan birinchi bor milliy qonunchiligimizda «gender» tushunchasiga tarif berilgan. Qonunda hotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqni ta'minlash borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, ushbu sohadagi davlat boshqaruvi mexanizmlari belgilandi.

Ijtimoiy faollikni rivojlantirish – bu mustaqil shaxsni o'zining mexnati, mahorati, ishbilarmonligi tufayli ko'pgina ehtiyojlarni qondira oladigan bo'lajak mutaxassisni voyaga yetkazishdir. Bunda talaba-qizlarning axloqiy-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish asosida yot g'oyalarga, tabiat buzg'unchilariga qarshi qurashish, ularga salbiy ta'sir etadigan ijtimoiy, ruhiy, iqtisodiy holatlarning oldini olish barqarorlik, tinchlikni saqlash demakdir. Ijtimoiy faollikni rivojlantirish asosida talaba-qizlarda jamiyatga, tabiat va o'ziga o'zi ziyon yetkazmaydigan shaxsni shakllantirish, halq tinchligini, saqlash uchun kurashga jalb etish; o'z faoliyatini, insoniyat, jamiyat, xalq manfaatlariga yo'naltirish, har bir talabani madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish va ularning bo'sh vaqti yetarli bo'lishiga erishish, ularning kuchli,

adolatli, huquqiy, demokratik jamiyat qurishga bo‘lgan xohish irodasini mustahkamlash, jamiyat va inson muhofazasini saqlashga intilishini har bir talaba turmush tarzining ajralmas qismiga aylantirish xususiyatlarini amalga oshirish oliy ta’lim muassasalarining asosiy vazifalari hisoblanadi. Ushbu vaziflarni amalga oshirishda oliy ta’lim muassasalarining faoliyati muhim o‘rin tutadi. Chunki, oliy ta’lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifalardan biri talabalarda mutaxassislik haqidagi bilimlarni, aqliy salohiyatini takomillashtirish bilan birga ijtimoiy faollikni madaniyatni rivojlantirishdir. Har bir xalqda, har bir jamiyatda ijtimoiy faollikni rivojlantirish tizimi mavjud. Chunki, ijtimoiy faollikni inson salomatligini saqlashga, uning botiniy olamini ma’rifiy boyitishga xizmat qiladi. Shu ma’noda o‘z hak-huquqini taniydigan, kuchli va qobiliyatga tayanib yashaydigan, atrof-muhitni muhofaza qilishda mustaqil munosabatda bo‘ladigan, o‘z shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘un holda tasavvur etadigan erkin shaxsni rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shu mezonlarga asosan ijtimoiy faollikni rivojlantirish jamiyatning taraqqiyoti, kelajagi, avvalo, uning ma‘naviy poydevorini mustahkamlaydi. Har bir talaba shaxsida ijtimoiy faollikni shakllantirish natijasida ularda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga sodiqlik, milliy-madaniy myerosni e’zozlash, munosabat, o‘zlikni anglash, insoniy komillikka intilish, fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini egallash komil topadi. Chunki, bo‘lajak mutaxassislarning chin e’tiqodi, hushyorlik va mas’uliyati, yaxshini yomondan, aslini soxtadan farqlay olishi ijtimoiy faollikni rivojlanshtirish darajasining mezoni sifatida maydonga chiqadi. Ijtimoiy faollik inson qalbining tub-tubidan qalqib chiqadigan eng toza va ajib tuyg‘u, inson hayotiga ma‘no beradigan kuch, uni sharaflaydigan sifatlar majmuidir. Ijtimoiy faollikni rivojlantirish natijasida inson irodasi, ma’naviy olami, tafakkuri va dunyoqarashining zamon talablari asosida mushohada qilish rivojlanadi. Bu borada istiqlol yillarida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Birinchidan, ta’lim-tarbiyaning umumdavlat dasturi ishlab chiqilib, u hayotga joriy etildi. Ikkinchidan, yurtimizning tabiiy boyliklari ochilib, ular xalqqa yetkazilmoqda. Uchinchidan, qadimiy shaharlarimiz, obidalar bilan birga xalq ruhiyati ham qayta tiklandi, milliy qadriyatlar yangi xayot topdi.

Ijtimoiy faollik rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari tahlili talabalar ijtimoiy faolligining o‘zaro aloqador bog‘liq mezonlari sistemasini va bu mezonlarning har biri bo‘yicha biz tadqiq qilayotgan fazilatning rivojlanish darajasi haqida xulosa beradigan ko‘rsatkichlarni ajratish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularni ko‘rib chiqamiz.

Birinchi mezon – talabalar ijtimoiy faolligi anglanganlik darajasini xarakterlaydigan g'oyaviy, ma'naviy tasavvurlarning shakllanganlik darajasi.

Bu tasavvurlarning rivojlanish darajasini xarakterlovchi ko'rsatkichlar quyidagilar: Ularning real dunyoga adekvatlik darajasi, g'oyaviy – ahloqiy tasavvurlarning to'liqligi va ularning anglanganligi.

Qayd etilgan ko'rsatgichlardan oxirgisi g'oyaviy-axloqiy tasavvurlar hodisalarning, predmetlarning yanada muhim belgilarini qanchalik aks ettirishini bu tasavvurlar o'z rivojlanishida tushunchalar darajasiga qanchalik yaqinlashishini izohlaydi.

Ikkinchi mezon – talabalar tomonidan ijtimoiy faollikning zarur komponentlari sifatida amaliy malakalarni egallash darajasi, ijtimoiy faollikning predmyetli – opyeratsion tomonini xaraktyerlaydigan bu mezon o'zining ko'rsatkichlari sifatida o'quv – bilish, tashkiliy – myehnat, kundalik hayot, ishlab chiqarish texnik va h. Malakalarning shakllanganlik darajasiga ega bo'lishi mumkin. Ijtimoiy faollikning u yoki bu turining namoyon bo'lishi uchun talab qilinadigan amaliy bilimlar, malakalar va ko'nikmalar xarakteristikasi shu faollik namoyon bo'ladigan faoliyat mazmuniga bog'liq.

Uchinchi mezon – talabalarda ijtimoiy faollik motivaцiyasining rivojlanish darajasi. Ko'rsatilganidek, tadqiq qilinayotgan yoshdagi bu motivatsiya strukturasida – to'g'ri tarbiya sharoitlarda – yetakchi o'rinni atrofdagilar haqida g'amxo'rlik qilishga intilish egallaydi. Bu intilish rivojlanishining darajasi asosan o'quvchilarning g'oyaviy – axloqiy tarbiyalanganligini xaraktyerlaydi. Bu mezon g'oyaviy – ahloqiy tasavvurlarning rivojlanish darajasi bilan birgalikda talaba ijtimoiy faolligining yo'naltirilganligini, uni jamoa, jamiyat manfaatlariga muvofiqlik darajasini izohlaydi.

Talaba-qizlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish shakllari:

– talaba-qizlarning atrofdagilarga nisbatan mehribonlik;

– o'rtoqlariga o'qishda, ba'zi ishlarda o'z tashabbusiga ko'ra yordam berishga tayyorlik;

– talaba-qizlarning ijtimoiy topshiriqlarga munosabati;

– talaba-qizlarning jamoa ishlari haqida g'amxo'rlikni namoyon qilishi;

– talaba-qizlarning o'z oila a'zolari haqida g'amxo'rlik namoyon qilishi.

To'rtinchi mezon – mustaqillik va tashabbuskorlikning rivojlanish darajasi. Tashabbus, mustaqillik – bu shaxs xulq – atvorining asosiy xaraktyeristikalari. V.V.Davidov, M.S.Kon, V.Ye.Komarovalar "shaxs" tushunchasini sub'yektlarning yaxlitligi, mustaqilligi, mustaqil faoliyatga qodirlik sifatida aniqlaydi. Tashabbuskorlik ijtimoiy faollikni xaraktyerlovchi maxsus komponyent bo'la turib,

shu bilan birga zamonaviy insonning yuksak rivojlangan mustaqilligining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Talaba-qizlarning mustaqilligining koʻrsatkichlari va asosiy koʻrinishlari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mymkin :

– mustaqillikni tushinish va unga intilishning mavjudligi;

– oldinda turgan faoliyatni rejalashtirish va rejaga muvofiq harakat qilish malakasi;

– belgilarni bajarishda qatʻiylikning namoyon boʻlishi;

– oʻz ishini oʻzi nazorat, tahlil qilishga va baholashga qobiliyat.

Biz talaba-qizlar ijtimoiy faolligi rivojlanishining umumiy mezonlarini ajratdik. Uning rivojlanishining umumiy tendentsiyalari kabi ular uning alohida turlari - oʻquv – bilish, myehnat, gʻoyaviy – siyosiy, va h. Rivojlanganligining mos koʻrsatkichlarini ishlab chiqish uchun asos boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, ijtimoiy faollik – insonlarning, alohida shaxslarning, ijtimoiy guruhlarning, umuman jamiyatning murakkab, sistemali, integral fazilati. U ularning atrof muhit bilan ongli oʻzaro munosabat qilish, qobiliyatida bu muhitni maqsadga muvofiq oʻrganish, uni va oʻzlarini oʻzgartirish va buning asosida oʻz oʻzini boshqarish va oʻzini oʻzi namoyon qilish, oʻzlarini va umuman jamiyatni izchil oʻzgartirish, rivojlantirish qobiliyatida ifodalanadi.

Oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarda faollikni rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik, umumpedagogik texnologiyalardan foydalanish, uning modulini ishlab chiqish, interfaol metodlarni amalga oshirishda muhim oʻrin tutadi. Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishda shaxsini rivojlantirishga, qoʻllab-quvvatlashga, moslashuviga, chiniqishiga pedagogik shart-sharoitlar yaratish oʻqituvchining tafakkuriga, mahoratiga bogʻliq hisoblanadi. Bunda oʻqituvchi ijtimoiy-pedagogik faoliyatida talabalarning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlanishiga e’tibor qaratishi muhim oʻrin tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2019 yil 2 sentabr kuni qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda kafolatlari toʻgʻrisida»gi qonuni.

2. Abdullajonov M.A. Pedagogika universitetlarida dars berish jarayonida boʻlajak oʻqituvchining kasbiy fazilatlarini shakllantirish: dissertatsiya avtoreferati. Pedagogika fanlari nomzodi -T., 1991. -21 bet.

3. Kraevskiy V.V. Pedagogikaning umumiy asoslari. -M.: Akademiya, 2003. -256.

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY QADRIYAT TUSHUNCHALARINI KOMPLEKS FAOLIYATLARDA TAKOMILLASHTIRISHDA UMUMINSONIY VA MA'NAVIY QADRIYATLAR

***X.U.RIZAYEVA,***
*TDPU «Maktabgacha ta'lim pedagogika va psixologiyasi» kafedrasi o'qituvchisi*

*Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini boyitish hamda takomillashtirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rolini ochib beradi, maqoladan foydalanish kun davomida bolalar bilan olib boriladigan ta'limiy jarayonlar sifatini oshirishda maktabgacha yoshdagi bolalardagi milliy qadriyat tushunchalarini yanada boyitishda yordam beradi.*

*Данная статья раскрывает роль дошкольных образовательных организаций в процессе обогащения и совершенствования представлений о национальных ценностях у детей дошкольного возраста, использование статьи способствует дальнейшему обогащению представлений о национальных ценностях у детей дошкольного возраста в повышении качества образовательных процессов, осуществляемых с детьми в течение дня.*

*This article reveals the role of preschool educational organizations in the process of enriching and improving ideas about national values in preschool children, the use of the article contributes to further enriching ideas about national values in preschool children in improving the quality of educational processes carried out with children during the day.*

2017-yil 30-sentyabr «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-sonli farmonida «Maktabgacha ta'lim tizimida variativ dasturlarning joriy etilmaganligi, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil moslashuvchan modellar etarli darajada rivojlanmagan hamda taraqqiy etgan mamlakatlar singari ijtimoy, shahsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish atrof-muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'lim dasturlari tadbiq qilinmagan» [1]deb ko'rsatilgan. Ushbu muammoni echimi sifatida Farmon horijiy davlatlar ilg'or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bollarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanib bolaning ijodiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namayon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma'naviy ahloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va

ijodiy qobilyatllarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkonini ochishga qaratilgan vazifalarni belgilab bergan.

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2021-yil 26-martdagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-5040-son Qarori 6-ilovasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va pedagog xodimlari orasida «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish» maqsadida «Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini o‘rganish bo‘yicha, ularning insonparvarlik g‘oyalarini hayotga keng tadbiq etish» yuzasidan qo‘shma dasturlar ishlab chiqish, «Vatan taraqqiyotiga mening hissam»[4] loyihasini amalga oshirish choralarini ko‘rish «Yo‘l xaritasi»da aniq ko‘rsatib berilgan bu vazifalarni amalga oshirish ham milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda daturi amal bo‘lib hizmat qiladi.

2018-yil 18-iyundagi 1-MH-sonli «O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash haqida»gi buyrug‘ining 2-bob 4-, 5-, 6-bandlarida Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’nan mukammal va intelektual rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash; milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta’lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish hamda bola huquqlarini himoya qilish va ta’minlashning muhimligi, bolaning ta’limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli kabi tamoyillar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining buyrug‘i va 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi Qarori bilan tasdiqlangan «Ilk Qadam» davlat o‘quv dasturining maqsad va vazifalari [5] ya’ni:

– bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga oid Davlat talablari asosida hamda Davlat o‘quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

– maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;

– bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish;

– bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish.

MTT ta’lim jarayonining tamoyillari quyidagilardan iborat:

– Bola huquqlari, o‘ziga hos rivojlanish xususiyat va salohiyatlarini hisobga olish;

– ta’lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohalarining o‘zaro bog‘liqligi;

– Bola salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, uning harakatlanish ehtiyojlarini qondirish;

– Bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash;

– O‘yin orqali ta’lim berish va rivojlantirish;

– Bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish tamoyillari belgilab berilgan.

– Bola uchun xavfsiz muhitni ta’minlash;

– MTTning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi; -

Milliy madaniy an’analar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

Bolaning maktabgacha ta’lim muassasasidagi rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uning amalga oshirilishi uchun maktabgacha ta’lim muassasasi rahbari javobgar bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2017 yil 30 sentyabr «Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF -5198 -sonli farmoni.

2. 2018 yil 23-fevraldagi «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 140-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 iyundagi 369-son Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2021 yil 26 martdagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-5040-son qarori 6-ilovasi.

5. 2018 yil 7 iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi Qarori bilan tasdiqlangan «Ilk Qadam» davlat o‘quv dasturi.

# YOSHLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI TO'G'RISIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

***A.I.SAIDOV,***
*Samarqand davlat chet tillari instituti*
*«Magistratura bo'limi boshlig'i»,*
*Psix.f.d (DSc), dotsent*

*Maqolada yoshlarning sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirish muammosining etnopsixologik asoslari va ijtimoiy psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada oilada sog'lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish bo'yicha etnopsixologik psixologik tavsiyalar o'rtaga tashlanadi.*

***Tayanch so'zlar:*** *Sog'lom turmush tarzi, etnopsixologiya, salomatlik, oila psixologiyasi, jismonan sog'lom, aqlan barkamol, tasavvur, sog'lom avlod, ijtimoiy muhit, millat.*

*The article analyzes the ethnopsychological foundations and social psychological aspects of the problem of the formation of youth perceptions of a healthy lifestyle. Also in the article, ethnopsychological psychological recommendations for the formation of perceptions of a healthy lifestyle in the family are thrown into the middle.*

***Key words:*** *Healthy lifestyle, ethnopsychology, Health, Family Psychology, physically healthy, mentally fit, imagination, healthy generation, social environment, nation.*

Turmush tarzi – inson hayoti va insoniyat mavjudligining, borligining asosiy belgisi sifatida qadim kishilik jamiyati bilan birga mavjud bo'lib kelgan. Sog'lom turmush tarziga ega bo'lish har bir xalq, har bir millat, har bir inson, har bir shaxsning ongi, uning tafakkuri va dunyoqarashi, yashash tarzi bilan uzviy va bevosita bog'liq psixologik-axloqiy va ijtimoiy-tarixiy zaruriyat hisoblanadi.

Sog'lom turmush tarzi psixologiyasi – bu faol mehnat, ijod og'ushida yashash, kuchli jismoniy va ruhiy yuklamalarni, o'ta xavfli va zararli ta'sir ko'rsatuvchi omillarni yengil ko'tara oladigan har tomonlama taraqqiy etgan shaxsning shakllanish jarayonidir.

So'nggi yillarda falsafa, psixologiya, pedagogika va ijtimoiy gigienaga oid adabiyotlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish muammolariga katta e'tibor berilmoqda. Xususan, bu masalaning ijtimoiy-psixologik, tibbiy-gigienik, iqtisodiy, shaxsning o'ziga aloqador psixologik jihatlari tadqiq etilmoqda.

Etnopsixologiya o'z manbalariga ega bo'lib, ular xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odatlar, an'analar, diniy ta'limotlar, xalq o'yinlari, o'yinchoqlar, milliy musiqa, qo'shiqchilik, xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik, tasviriy san'at, me'morchilik, raqs san'ati kabilarga fuqarolarning munosabati, ular sanab o'tilgan holatlarni

qanday idrok etishlari, aynan shu kabi omillar u yoki bu shaxsning ta'bir joiz bo'lsa, ijtimoiylashuvidagi o'rni kabi holatlarni tadqiq etadi, o'rganadi. [4].

Zardushtiylik dinidagi marosimlarda axloqiy va jismoniy tarbiya ham birga berilgan, shuningdek ezgulik, bunyodkorlik, yaxshilik kabi sog'lom g'oyalarni o'zida mujassam etishga harakat qilgan. Jamiyatda ezgu g'oyalar ulug'langan, mehribonlik, vatanparvarlik, marifatparparvarlik kabilar g'oyalar egasi xalq ichida ham yaxshi e'tiborga sazovor bo'lgan, insonlarga isnod keltiruvchi o'g'irlik, talonchilik, o'zgalar moliga ko'zolaytirish kabi boshqa illatlar qoralangan.

Sog'lom turmush haqidagi qarashlar keyingi davrlarda Islom dinidagi g'oyalar bilan yanada boyib borishini ko'rishimiz mumkin. Ezgulik g'oyalarini islom dinida dunyo va diniy ishlarni biri ikkinchisidan ustin qo'yilmaydi. Bu esa sog'lom muhitni rivojlanishiga olib keladi. "Dil ba yoru dast ba kor" - buning manosi shuki, diling Allohda bo'lsin qo'ling mehnatda, bunda "inson iymonli pok bo'lishga o'z mehnati bilan halol luqma asosida kun kechirishga" undaydi. Bunday ezgu g'oyalar hozirgi kungacha o'z qiymatini yo'qotgani yo'q.

Bugungi kunda Respublikamizda oilaviy turmush tarzini o'rganish, oilada sog'lom turmush tarzini yaratish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu vazifa va muammolar oilaning sog'lom bo'lishi, ma'naviy va modiy farovonligini oshirishi, farzandlar tarbiyasining muhim omili bolib xizmat qiladi. Sababi, faol yaratuvchanlikka asoslangan turmush tarzi jamiyat hayotining barcha sohalarida ijtimoiy faollik, oliy darajadagi fuqarolik sifati, aqliy, ma'naviy va jismonan sog'lom, mehnatda, o'zaro munosabatda, muloqotda yuksak madaniyatlilik, salbiy hodisalarga murosasizlik bilan qarash, ularga qarshi kurashish, tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bolish, atrofdagilarga mehr-oqibatda bolish kabi sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Darhaqiqat, oilada turmush tarzini sog'lomligi kishilarni jamiyatda egallab turgan sotsial statuslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki turmush tarzi kishilarning ma'naviy dunyosi bilan ham uzviy bog'liqdir va ularning fikrlash tuyg'usi borasida ham muhim o'rin tutadi. Kishilarning turmush tarziga mavjud ijtimoiy shart-sharoitlar ma'lum darajada sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kundalik hayot faoliyatida ularning axloqiy-estetik qarashlari, xulqi, muomalasi, hayotiy turmush tasavvurlari, ularning ichki dunyosiga, e'tiqodiga singib ketadi va turmush tarziga, fikrlash tarziga aylanadi. Turmush tarzining eng muhim ijtimoiy tomoni jamiyat a'zolarining ijtimoiy mehnati, o'zaro munosabatlar, oila, kundalik turmushidagi faolligi, kishilarning jismoniy va ma'naviy imkoniyatlarini atrofdagi tabiiy va ijtimoiy muhit bilan qay tarzda namoyon bo'lishidadir. Bundan tashqari oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish orqali jamiyatimiz a'zolarini, ayniqsa, yoshlarni milliy vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalariga, shu bilan bir qatorda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Sog'lom turmush tarzi xalqning urf-odatlari, an'analari, milliy qadriyatlari negizida shakllanadi. Shu bois, sog'lom turmush tarzining shakllanishida xalq ma'naviyati, unda milliy qadriyatlarning o'rni va roli beqiyos. Shu boisdan etnopsixologiya, xalq pedagogikasi milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analar O'rta Osiyo xalqlarining milliy va madaniy boyligi ekanligini unutmagan holda yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda, yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ulardan o'rinli foydalana olishi lozim.

Etnopsixologiya va xalq pedagogikasining asosini xalq og'zaki ijodi tashkil qiladi. Xalq og'zaki ijodining doston, ertak, rivoyat maqol, topishmoq, tez aytish, qo'shiq, marosim folklori, bolalar folklori, erkalama va ovutmachoqlar kabi katta va kichik janrlari sog'lom avlodni voyaga yetkazish va sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi.

O'zbek xalqining boy madaniy merosida muhim o'rin egallagan, tarixan tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlarni yoshlarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishga ta'siri nuqtai nazaridan o'rganish muhim o'rin egallaydi. Sharq xalqlarining boy xalq psixologiyasi, yozma adabiyoti, diniy manbalari, buyuk mutafakkirlari olg'a surgan g'oyalari, asrlar davomida sayqallanib kelgan axloqiy fazilatlari yoshlarga g'amxurlik qilish, kichiklarga izzat, kattalarga hurmat, saxiylik kabi fazilatlarni shakllantirish omili bo'lib xizmat qiladi. Zero, sog'lom turmush madaniyati nafaqat o'zini tiyib ovqatlanish, balki ertalabki badantarbiya, eng avvalo insonga hurmat, ayniqsa, yordamga muxtoj insonlarga yordam berishdir.

Xalq og'zaki ijodida mujassam bo'lgan xalqimizning didi, voqelikka estetik munosabati, axloqiy- ma'naviy xatti-harakatlari, halol va pok bo'lish, axloq-odobi bilan xalq hurmatini qozonish har bir insonning kundalik ehtiyojiga aylanib qolishi kerakligi targ'ib qilinadi. Xalq og'zaki ijodining qadimiy shakllaridan biri bo'lgan afsonalarda bayon qilinishicha, Xudo odamni yaratib, unga turli kasb-hunar o'rgatib, tirikchilik yo'llarini ko'rsatib bergan ekan, buning negizida odam sog'lom turmush tarziga ega bo'lishi uchun mehnat qilishi, o'z mehnati orqali hurmat qozonishi kerakligi g'oyasi ilgari suriladi.

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, xalqning turmush tarzi o'zbek xalq og'zaki ijodining janrlaridan biri - marosim folklorlarida keng yoritilgan. O'zbek xalqiga xos mavsumiy marosim folklori yilning to'rt fasliga oid xalqning turmush tarzi va mehnati, oilaviy-maishiy marosim folklorlari esa oila ma'naviyati, madaniyati, urf-odatlari, rasm-rusumlari va insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar haqida ma'lumot beradi. Insonga sihat-salomatlik tilash, uning turmushida to'kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki hayotining muhim nuqtalarini qayd qilish, nishonlash maqsadida o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy an'anaga kirib qolgan oilaviy-maishiy marosimlar bolalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda keng qo'llanilgan.

Oilaviy marosimlarga asosan to‘ylar (beshik to‘y, xatna to‘y, nikoh to‘y), tug‘ilgan kunlar, muhim sanalarni nishonlash kabilar kirgan. Bunday kunlarda kishilarning bir-birini tabriklashi, o‘zaro iliq munosabat, sovg‘a-salomlar bolalarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa bolalarda ijobiy insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi, u yon-atrofidagilarni hurmat qilish, qadrlash va ularga nisbatan befarq bo‘lmaslikka o‘rgatadi.

Sharqona sog‘lom turmush tarziga xos bo‘lgan an‘analardan yana biri bu chilla davridir. Chilla saqlash yosh kelin-kuyovlar, yangi tug‘ilgan chaqaloq va uning onasi uchun qo‘llaniladigan an‘ana hisoblanib, bu davr oila a‘zolari tomonidan "chillalik" kishilarni ehtiyotlash bilan belgilanadi. Ya‘ni, bunda "chilla saqlash" ona va bola uchun eng zarur qirq kunlik davr bo‘lib, bu yangi dunyoga kelgan go‘dakning tashqi muhitga moslashishi uchun yordam bo‘lsa, tug‘ish davrida 9 oylik homiladorlik davrida ham jismonan, ham ruhan toliqqan yosh ona uchun ayni kerakli narsadir. Sababi, chilla davri davomida ona tug‘ruq davomidagi charchoqlarini yozib olishi, to‘yimli, vitaminlarga boy ovqatlar iste‘mol qilishi natijasida o‘z organizmini qayta tiklab olishi hamda go‘dagiga ko‘proq e‘tibor berish imkoniga ega bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, sharqona an‘analarimiz-dan qay birini olmaylik, barchasi bola kamoloti, oila farovonligi, ayollarni e‘zozlash va jamiyat taraqqiyoti uchun ijobiy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Demak, o‘zbekona urf - odatlar va an‘analardan o‘z o‘rnida foydalanish turmush farovonligi va kelajak poydevori - farzandlar barkamolligi, millat sog‘ligi garovi bo‘lib xizmat qiladi. [8].

Yosh avlodda sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlar va ko‘nikmalarni tarbiyalashda olqishlardan foydalanish samarali natija bergan. Olqish - xalqning asrlar mobaynida ezgulik, inson va uning baxt-saodati kuylanib kelingan barhayot qo‘shig‘idir. "Olqish" turkiy tillarda "maqtash, sharaflash, yaxshi istaklar tilash" kabi ma‘nolarni anglatib, bolalarning har bir xatti- harakatini, bajargan ishlarini sharaflash, ularni ko‘klarga ko‘tarish, maqtash uchun ishlatiladi. Olqish janri ezgulikka xizmat qilishi, yaxshilikka da‘vatkorligi bilangina yashab kelmoqda. Olqishlar uchun eng xarakterli narsa ularning xalq estetik ideali bilan go‘zallik tuyg‘ulari hamnafas vujudga kelishi va jonli yashashidir. Chunki olqishlarda alohidalik umumiylik bilan, tasodifiylik zaruriyat bilan, individuallik tipiklik bilan, tashqi xususiyat mohiyat bilan, o‘tmish kelajak bilan uyg‘unlashgan holda o‘z ifodasini topgan.

Oilada yoshlarning sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlarini shakllantirish faqat davlat yoki jamiyat zimmasida emas, balki har bir shaxsning o‘z salomatligi haqida qayg‘urishidadir. Shunga ko‘ra, tadqiqotlarimiz natijalariga asosan yoshlarda sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlari shakllanishi va namoyon bo‘lishi bir nechta jihatlarga ega bo‘lgan yoshlar salomatligi mezonlarini aniqlash zaruriyatini keltirib chiqaradi [3].

Yuqorida aytib o‘tilganidek, odamlar turmush tarzi taraqqiy etib, yuksalib

borishining o‘ziga xos oqibatlari ham mavjud. Fan-texnika yutuqlaridan odamlar turmush tarzini, yashash sharoitini qulaylashtirish, yengillatish maqsadida qanchalik ko‘proq foydalanilsa, insonlar ruhiyati, ular psixikasining rivojlanishidagi tabiiylik shunchalik o‘zgarib boraveradi. Inson ruhiyatidagi tabiiylikning buzilishi esa hamma vaqt ham kutilgan ijobiy natijalarga olib kelavermasligi mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. Oila psixologiyasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun darslik. /Prof. F.B.Shoumarov tahriri ostida. - Toshkent, 2008.

2. Allen, I. (1988) Doctors and their Careers. London: Policy Studies Institute.

3. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Toshkent, 2007. B.120.

4. Ismailovich S. A. Socio-Psychological Problems of Educating an Independent-Minded, Creative Person in the Educational Process //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. - 2021. - T. 2. - №. 12. - S. 4-7.

5. Saidov A., Djuraev R. Barkamol avlodni tarbiyalash-sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda sportning o‘rni //Obshestvo i innovatsii. - 2021. - T. 2. - №. 2. - S. 203-208.

6. Saidov A. pedagogik mahorat: ëshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida //цentr nauchnых publikatsiy (buxdu. uz). - 2020. - T. 2. - №. 2.

7. Sharifjon To‘lqino‘g A. et al. TA‘LIM-TARBIYA TIZIMI VA O‘QITUVCHILAR FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING AHAMIYATI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. - 2022. - T. 1. - №. 11. - S. 57-60.

8. Saidov A. SOG‘LOM VA BARKAMOL ShAXSNI TARBIYaLAShNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MASALALARI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). - 2021. - T. 1. - №. Specialissue. - S. 262-266.

# IJTIMOIY FAN SOHASI BITIRUVCHILARINING SHAXSIY VA KASBIY RIVOJLANISHIDA INNOVATSION MOSLASHUVCHAN BOSHQARUVNING O'RNI VA AHAMIYATI

***A.S.DJURAYEV,***
*Bosh ilmiy-metodik markaz, (PhD)*

*Mazkur maqolada ijtimoiy fan sohasi bitiruvchilarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida innovatsion moslashuvchan boshqaruvning o'rni va ahamiyati tavsifi berilgan. Moslashuvchan ta'lim tizimining muhim xususiyatlaridan biri uning ishlab chiqarish qobiliyatidir. Ilmiy tadqiqotlar va o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, adaptiv tizimda turli xil pedagogik texnologiyalar qo'llanilishi mumkin*

***Kalit so'zlar:*** *moslashish, adaptiv muhit, adaptiv boshqaruv, innovatsion moslashuvchan boshqaruv.*

*В данной статье описывается роль и значение инноватsионного гибкого менеджмента в личностном и профессиональном развитии выпускников социальных наук. Одной из важных особенностей гибкой образовательной системы является ее продуктивность. Анализ научных исследований и практики профессиональной подготовки учителей показывает, что в адаптивной системе могут использоваться различные педагогические технологии.*

***Ключевые слова:*** *адаптация, адаптивная среда, адаптивное управление, инновационное адаптивное управление.*

*This article describes the role and importance of innovative flexible management in the personal and professional development of graduates of the field of social science. One of the important features of a flexible educational system is its productivity. The analysis of scientific research and the practice of professional training of teachers shows that various pedagogical technologies can be used in the adaptive system*

***Key words:*** *adaptation / adaptive environment / adaptive management / innovative adaptive management.*

Universitetda ijtimoiy-gumanitar fanning professor-o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashning moslashuvchan tizimini tizimli yondashuv doirasida boshqariladigan tizim sifatida ko'rib chiqish quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: etimologik (kelib chiqishi, rivojlanish istiqboli); morfologik (u qanday elementlardan iborat); tizimli (elementlar orasidagi qanday aloqalar va munosabatlar); funksional (vazifalar, har bir elementning o'rni, ularning ierarxiyasi).

«Moslashuvchan ta'lim» atamasi XX asrning 60-yillarida ingliz tadqiqotchisi G.Pask tomonidan kiritilgan bo'lib, uni o'rganish jarayoni tez, uzluksiz ravishda

o‘quv jarayonining individual xususiyatlariga moslashuvchi o‘rganish deb ta’riflagan. Moslashuvchan ta’limning paydo bo‘lishi muhim pedagogik muammolarni hal qilish zarurati bilan bog‘liq: ta’lim mazmunini tartibga solish, o‘rganishning psixologik mexanizmlarini eng to‘liq hisobga olgan holda o‘rganishni chuqur individuallashtirish, boshqaruv naqshlari asosida ta‘limning umumiy samaradorligini oshirish. va o‘quv dasturlaridan foydalanish.

Pedagogikada shaxsni o‘qitish jarayoniga ushbu atamaning kiritilishi har bir shaxsning qadr-qimmati, uning optimal rivojlanishi va o‘zini o‘zi rivojlantirish, qobiliyat, iste‘dod va qobiliyatlarni ochishga asoslangan ta’limni qurishning gumanistik konsepsiyasini amalga oshirish zarurati bilan bog‘liq edi. moslashuvchi shaxslar va ijtimoiy muhitning samaradorligini oshirish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratishdir. Shunday qilib, «moslashish» atamasi o‘qituvchilarning boshqaruv faoliyatini o‘quvchilarning nazorat qilinadigan va o‘zini o‘zi boshqaradigan faoliyati bilan kasbiy tayyorgarlik tizimida muvofiqlashtirishga olib keladigan murakkab dinamik jarayon sifatida tushunilishi kerak. Ushbu o‘zaro ta‘sirning izchilligiga erishiladi:

– o‘quvchini o‘quv jarayonining asosiy subyekti sifatida tan olish, bo‘lajak mutaxassisning subyektiv tajribasini aniqlash va tizimlashtirish orqali uni rivojlantirish vositalarini aniqlash;

– o‘quvchi shaxsi rivojlanishining psixologik-pedagogik diagnostikasi, o‘quvchilarning ehtiyojlari va motivlarini aniqlash;

– kasbiy tayyorgarlik va shaxsni har tomonlama rivojlantirish jarayonini o‘quvchilarning individual tipologik xususiyatlariga moslashtiradigan o‘qituvchining boshqaruvchi ta’siri;

– o‘quvchining o‘z faoliyatini aks ettirish asosida o‘zini o‘zi boshqarishning yuqori darajasi.

Ijtimoiy-gumanitar fanning professor-o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning moslashuvchan tizimi – bu o‘zaro ta’sir qiluvchi o‘quv jarayoni subyektlarining o‘zaro, atrof-muhit va ularning ma’naviy va moddiy qadriyatlari o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan ijtimoiy-shaxsiy shartli yaxlitligi, ijtimoiy muhitni o‘zgartirish orqali talabalarning individual xususiyatlariga moslashish hamda shaxsning kasbga kirishini optimallashtirish va uning kasbiy muhit bilan o‘zaro munosabatlarini uyg‘unlashtirish maqsadida bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik holatidir.

Universitetda Ijtimoiy-gumanitar fanning professor-o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning moslashuvchan tizimi o‘zining tuzilishidan tashqari, uni yaratishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator muhim xususiyatlarga ega. Belgilangan tizim kelajakdagi ijtimoiy o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonini ilmiy asoslash, uzluksiz boshqarish, texnologik qo‘llab-

quvvatlash va amaliy amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Effektiv-refleksiv (Ijtimoiy-gumanitar fanning professor-o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi natijalari, adaptiv pedagogik tizim samaradorligini baholash mezonlari)

1. Ijtimoiy pedagoglarni kasbiy tayyorlashning adaptiv pedagogik tizimi (tarkibiy komponentlar). Kasb-hunar ta'limining asosiy maqsadi bo'lajak mutaxassis shaxsini har tomonlama rivojlantirishdir, shuning uchun o'quvchi shaxsi pedagogik tizimning o'ziga xos «obyekti-sub'ekti» bo'lib, bir vaqtning o'zida uning maqsadi sifatida ishlaydi. Kasbiy tayyorgarlikning moslashuv tizimining samaradorligi kelajakdagi mutaxassisning subyektivligi bilan ta'minlanadi, bu o'z-o'zini bilish, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat sifatida tushuniladi.

Subektivlikning eng muhim xususiyati uning protsessual tabiati, cheksizligi va ochiqligi bo'lib, u ijtimoiy pedagogning kasbiy kompetensiyasining dinamik xususiyatini ta'kidlaydi. Subektivlik toifasi shaxs toifasi bilan dialektik birlikda, chunki subyektning faoliyati maqsadli, motivatsion va qiymat-semantik shaxsiy shakllanishlar bilan turtki bo'lib, mahsulot va faoliyat natijasi shaklida ob'ektiv baholanishi mumkin. Talabaning sub'ektivligi, shuning uchun shaxsning kasbiy namoyon bo'lishi, o'zini namoyon qilish, o'zini o'zi anglash uchun faol rejani tashkil qiladi.

Shaxs rivojlanishining eng yuqori darajasi sifatida subyektivlik inson potensialining tabiiy holatini – amalga oshirishga yordam beradi. O'z-o'zini anglash insonning asosiy qadriyatlaridan biri bo'lib, uning o'z qobiliyatlarini optimal tarzda namoyon etish va ularni samarali kasbiy faoliyat jarayonida amalda qo'llash qobiliyatini aks ettiradi.

Universitet o'qituvchisi tomonidan kasbiy ta'limning moslashuv tizimida pedagogik faoliyat maqsadlarini belgilash Davlat oliy kasbiy ta'lim standartida ijtimoiy o'qituvchining shaxsiyatiga qo'yiladigan talablarda belgilangan ijtimoiy buyurtmani hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ushbu tartibni talabalarning shaxsiy xususiyatlari, imkoniyatlari, ehtiyojlari bilan ularning ta'lim va shaxsiy salohiyatini o'rganish, kasbiy va shaxsiy rivojlanish istiqbollarini loyihalash asosida bog'lash kerak.

Mutaxassisning kasbiy moslashuvining ushbu sohalarining har biri uning ma'lum darajadagi tayyorgarligi, moslashuvchan potensiali mavjudligini nazarda tutadi.

Mutaxassisning kasbiy moslashuvining ichki omillari bo'lajak ijtimoiy o'qituvchining ijtimoiy-pedagogik faoliyatni kasbiy tanlash motivatsiyasining etarliligi, kasbiy kompetensiyaning talablarga muvofiq shakllanish darajasiga asoslangan ichki moslashuv salohiyatini o'z ichiga oladi. Shu boisdan ham biz

kelajakdagi ijtimoiy-gumanitar fanning professor-o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash tizimini moslashuvchan boshqarishning quyidagi xarakterli xususiyatlarini aniqladik:

– moslashuvchan boshqaruv jarayonida pedagogik jarayonning har bir ishtirokchisiga turli mayl va qobiliyatlari bilan sharoit yaratiladi. Sharoitda pedagogik tizim subyektlarining ehtiyojlariga, motivatsion sohalariga nima mos kelishini tushunish kerak;

– moslashuvchan boshqaruv o'z subyektlarining xususiyatlari va u tomonidan yaratilgan sharoitlar orqali insonning jismoniy tabiati, ijtimoiy va ma'naviy – axloqiy mohiyatidan kelib chiqadi, ijtimoiy-pedagogik faoliyat qadriyatlari tizimiga asoslanadi;

– adaptiv boshqaruv, bir tomondan, shaxsning individual xususiyatlarini (ehtiyoj doirasi, idrok etish darajasi, empatiya va faoliyat jarayonida ishtirok etish qobiliyati) imkon qadar ko'proq hisobga olishga intiladi. ijtimoiy muhitdagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga moslashuvchan munosabatda bo'lish. Bunday ikki tomonlama strategiya shaxsga kasbiy va ta'lim muhitida o'z makonini egallashga imkon beradi va uni tez o'zgaruvchan kasbiy faoliyat sharoitlariga moslashtiradi;

– adaptiv boshqaruvning maqsadi – shaxsni saqlash va rivojlantirish, malakali mutaxassisni tarbiyalash. Maqsadlar shunday tizimda (ierarxiyada) taqdim etilishi kerakki, unda ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari (bilimlar, faoliyat usullari, munosabatlar) o'rtasida mavjud bo'lgan ob'ektiv munosabatlar amalga oshiriladi. Shuningdek, har bir talabaning o'ziga xos xulq-atvor strategiyasini, kasbiy rivojlanish yo'nalishini, inson madaniyati sharoitida o'zini o'zi anglash va takomillashtirish yo'nalishlarini mustaqil, ongli ravishda tanlashi uchun sharoit yaratish kerak;

– moslashuvchan boshqaruvni amalga oshirishda talabalarni kasbiy tayyorlash mazmunida jamiyatning ustuvor qadriyatlarini, shuningdek qadriyatlar, e'tiqodlar, faoliyat motivlarini belgilaydigan ijtimoiy-pedagogik faoliyatning aksiologik asoslari kabi tarkibiy qismlar mavjud. Muhimi shaxs, ta'lim mazmuni o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lsa-da, ma'lum bir shaxs uchun muhim bo'lgan mazmun o'zlashtiriladi;

– ijtimoiy-gumanitar fanning professor-o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonini moslashuvchan boshqarish o'qitishni tashkil etishning prinsipial jihatdan yangi modeliga asoslanadi, bu faoliyat nazariyasining asosiy qoidalarini amaliyotga samarali tatbiq etishni ta'minlaydi. O'qitish, shaxs faoliyatidan biri sifatida, moslashuvchan tizim sharoitida, asosan, faol, mustaqil, boshqariladigan faoliyatga aylanadi;

– moslashuvchan boshqaruv har bir o'zini o'zi boshqarish va birgalikda

boshqarishni, o‘z faoliyatini aks ettirishni talab qiladi, natijada pedagogik jarayonning boshqa ishtirokchilarining o‘z harakatlari va pozitsiyalarini o‘z-o‘zini anglaydi.

Universitetning o‘quv jarayonini boshqarishning adaptiv tizimining asosi – bu pedagogik jarayon ishtirokchilarining psixofizik xususiyatlarini, moyilliklarini, qobiliyatlarini hisobga olgan holda individuallashtirish va differensiatsiyalash tufayli uning moslashuvchanligi, majburiy kompensatsion diagnostika va tuzatishga asoslangan holda. har bir talabaning kasbiy kompetensiyasining rivojlanishini nazorat qilish.

Ta’limning fundamental mohiyatining asosiy tamoyiliga muvofiq, uning mazmuni qat’iy ilmiy bo‘lishi, ilmiy bilimlarning ijtimoiy-pedagogik tarmog‘ining hozirgi holatini obyektiv ravishda aks ettirishi va uni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollarini hisobga olishi kerak. Bilim, ko‘nikma, malakalar ma’lum tartibda shakllantirilishi kerak: o‘quv materialining har bir elementi boshqalar bilan mantiqiy bog‘langan bo‘lishi kerak, keyingisi oldingisiga asoslanib, yangisini o‘zlashtirishga tayyorlanishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдуқуддусов О. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашга интегратив ёндашув. - Т.: Фан, 2005. - 157 б.

2. Абдуқодиров А.А. ва бошқалар. Ахборот технологиялари. - Т.: Ўқитувчи. 2002. - 133 б.

3. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. - Казань: Изд-во Казанского университета. 2002. - 567 С.

4. Астапенко Е.В. Педагогическое обеспечение формирования конкурентоспособности личности студента в образовательном процессе вуза: Автореф. дис.к.п.н. по специальности 13.00.01. - Красноярск, 2008. - 24 С.

5. Атласова А.Д. Использование кейс - технологии в образовательном процессе//Дистанционное и виртуальное обучение. - 2010. - №10.-С.105-112.

# O'QITUVCHINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHDA SHAXSGA ASOSLANGAN O'QITISH (PERSON-BASED LEARNING)NING MOHIYATI

**G.SH.FAYZULLAYEVA,**
dotsent, Samarqand viloyati pedagoglarni
yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi

*Maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va shaxsga asoslangan o'qitish borasidagi qarashlar, nazariyalar hamda ularning o'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirish, faoliyatidagi muammolarga yechim topishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ushbu ikki tushuncha borasidagi izlanishlarni umumlashtirish va tahlillash asosida qiyosiy jadval shakllantirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *individuallik, yo'naltirilganlik, shaxs, subyekt, uzluksizlik, qiyosiy tahlil.*

*В статье рассматриваются взгляды, теории на индивидуальное образование и личностно ориентированное обучение, а также на непрерывное профессиональное развитие своего учителя, решение проблем в своей деятельности. Также на основе обобщения и анализа исследований по этим двум концепциям формируется сравнительная таблица.*

***Ключевые слова:*** *индивидуальность, направленность, личность, субъект, непрерывность, сравнительный анализ.*

*The article describes the views and theories of individual-oriented education and individual-based teaching, as well as their role in continuous professional development of teachers and finding solutions to problems in their activities. Also, on the basis of summarizing and analyzing the research on these two concepts, a comparative table was formed.*

***Key words:*** *individuality, orientation, person, subject, continuity, comparative analysis.*

Shaxsga asoslangan o'qitish haqida gap borganda, ushbu tushuncha ta'limda yangi g'oya emasligi (1960-yillar), qator maktablar hamda pedagoglar o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun o'quv dasturlari va o'qitishning shakl, usul, vositalarini ishlab chiqqanligining guvohi bo'lamiz. Shunday bo'lishiga qaramasdan, izlanishlarimiz natijasida ma'lum bo'ldiki, shaxsga asoslangan o'qitish qanchalik keng tarqalgan va turli ta'riflarga ega bo'lmasin, uning yagona kelishilgan ta'rifi mavjud emas, aynan, konsepsiya va amaliyotda talqin qilayotgan targ'ibotchilar ham uni bir umumiy ta'rifga ega emasligini, rivojlanib, takomillashib borgani sari yanada xususiylashayotganini tan olishadi.

O'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirishda shaxsga asoslangan o'qitish yondashuvi tadqiq qilinar ekan, ushbu doirada batafsil to'xtalish, nega aynan shaxsga asoslangan o'qitish, degan savolga javob topish zaruriyati paydo bo'ldi.

Bir qator tadqiqot ishlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim borasida quyidagicha tavsiflari mavjud (1-jadval):

1-jadval.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi tavsifi

| Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim | |
|---|---|
| Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. | o‘quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi [1: 56-b.]. |
| Akramov A.A. | bu ta’lim oluvchilarning shaxsiy, individual layoqati, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga olgan holda o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etish asosida unda ma’lum bilim, malakalarni hosil qilish emas, balki, eng asosiysi, uning shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim hisoblanadi [1: 41-b.]. |
| Ma’murov B.B. | o‘qituvchi va o‘quvchilarning rivojlanishini uyg‘un tarzda amalga oshiradigan jarayon [3: 44-b.]. |
| Yakimanskaya I.S. | ta’lim muassasalarida o‘quvchi shaxsini chuqur hurmat qilish asosida o‘quv-tarbiya jarayonini, individual rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish, ta’lim jarayonining teng huquqli va javobgar ishtirokchisi sifatida qarash, takrorlanmas tajribasini inobatga olib tashkil etish [8: 49-51b.]. |
| Rodjers K. | ta’lim oluvchilarning zarur bilimlar va axborotlarni o‘zlashtirish mohiyatini anglashlari, ehtiyojlarining ta’minlanishi, o‘z muammolarini hal qilishlari amalga oshadi [4]. |
| Serikov V.V. | qadriyatlarning yangi tizimi, pedagogik ongni vujudga keltiruvchi ustqurma va avtoritar o‘qituvchilik tafakkurini bartaraf etuvchi pedagogik hodisa [5: 29-b.]. |

Yuqoridagi tasniflardan farqli ravishda olima D.Shayzakova shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar ustida tadqiqot o‘tkazib, shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan omillarni va uning maqsad hamda vazifalarini ochib beradi, bunday omillar: shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar [2: 34-b.].

Shuningdek, L.M.Fridmanni6ng fikricha, «shaxsga asoslangan o‘qitish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni farqlay olish lozim. Shaxsga asoslangan o‘qitish: o‘quvchining shaxsiy sifatini shakllantirishga imkon beruvchi o‘qitish tizimini bildirsa, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim: keng tushunchaga ega bo‘lib, o‘quvchining shaxsiy sifatini shakllantirish o‘quvchi shaxsini tarbiyalashning barcha tizimini o‘z ichiga oladi» [6: 78-b.].

Shaxsga asoslangan o‘qitish yondashuvi esa ayrim ilg‘or qarashlarda texnologiya, ba‘zida esa shaxsiy ta’lim muhitini yaratish konsepsiyasi sifatida ham tadqiq qilingan. Xususan:

– shaxsga asoslangan o‘qitish spektirining ikki asosiy ta’rifi mavjud, ta’limni va o‘qitish metodini «o‘quvchi uchun shaxsiylashtirish» – bunda o‘qituvchi o‘rganish usullarini o‘quvchi uchun moslashtiradi, «o‘quvchi tomonidan shaxsiylashtirish» – o‘quvchi o‘rganayotganlarini moslashtirish uchun o‘z ko‘nikmalarini rivojlantiradi [6];

– o‘rganish tezligi va o‘qitish yondashuvi har bir o‘quvchining ehtiyojlari uchun optimallashtirilgan ta’lim tushuniladi [5].

– har bir ta’lim ishtirokchisiga iste’dodi yoki kelib chiqishidan qat’iy nazar, eng yaxshi bo‘lish imkoniyatini berish va tan olish, aniq axloqiy va tarbiyaviy vaziyatni vujudga keltirish orqali o‘quvchilar muvaffaqiyatli natijaga erishishning turli usullariga javob beradigan yuqori sifatli o‘qitish tushuniladi [9].

Tadqiq va tavsif. O‘rganilgan va tahlil qilingan ilmiy qarashlar hamda tadqiqot davomidagi izlanish natijalaridan kelib chiqib, ushbu ikki tushunchaning umumiy va farqli jihatlari qiyoslandi (2-jadval).

2-jadval.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va shaxsga asoslangan o‘qitish yondashuvlarining qiyoslanma tahlili

| Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim | Shaxsga asoslangan o‘qitish |
|---|---|
| **O‘quv dasturlari, o‘qitish muhiti va usulini o‘zgartirishni talab qiladi** | Alohida maktablarda tashkil etish, ta’limning turli bosqichlarida shaxsga asoslangan o‘qitishning uzluksizligini ta’minlash uchun milliy o‘quv dasturining asosini o‘zgartirish, raqamli texnologiyalarda shaxsiy o‘qitish muhitini paydo qilish |
| **Shaxsiy yondashuv amalga oshiriladi, o‘qitish mazmuni va kategoriyalari ishlab chiqiladi** | Shaxsiy yondashuvga doir tadqiqotlarni birlashtirib shaxsga asoslangan o‘qitish muhiti uchun konsepsiya yaratiladi |
| **O‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish** | Mavjud zamonaviy va raqamli texnologiyalar shaxsga asoslangan o‘qitishni yengillashtiradi |
| **Ta’lim nazariyalarini o‘rganish asosida shaxsiy amaliyotga tatbiq qilinadi** | Ta’lim va amaliyot bilan bog‘liq bo‘lgan turli modellarning nazariyasi va dalillari ta’minlanadi |
| **Shaxs o‘qitish markazida ta’lim ishtirokchisi** | O‘qitish markazida ta’lim ishtirokchisi, kelib chiqishi va iste’dodidan qat’iy nazar eng yaxshi bo‘lish imkoniyatining mavjudligi |
| **Shaxsga yo‘naltirilgan umumiylikni ifodalaydi** | Shaxsga asoslangan xususiylikni anglatadi |
| **Shaxsni tarbiyalashning barcha sifat tizimini o‘z ichiga oladi** | Shaxsda shakllantirish lozim bo‘lgan bir sifatni muammoga asoslangan o‘qitish yondashuvida tarbiyalash va natijaga borish qadamlari loyihalangan jarayonda o‘qitish amalga oshiriladi |
| **O‘qituvchining ta’lim ishirokchisiga g‘amxo‘rligi, tolerantligi muhim** | G‘amxo‘rlik, tolerantlik haqidagi noyob bilimlar hurmat qilingani holda, hamkorlikning afzalliklari muhim bo‘ladi |
| **Ta’lim ishtirokchisida tanlash qobiliyatini shakllantirish** | Ta’lim ishtirokchisida tanlash qobiliyatini shakllantirish |
| **Ijodkorlik va o‘quvchiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish** | Takrorlanmas individuallikni tan olish |
| **Ong, xarakter, dunyoqarashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tabaqalashtirish va individuallashtirish tamoyillari asos bo‘ladi** | Individuallashtirish va ishtirokchining tajribasini aniqlash, jarayonda tamoyillardan foydalanish asos bo‘ladi, kognitiv rivojlanish asosiy bosqichga chiqadi |
| **O‘quvchi vazifalarni tanlash** | O‘quv vazifalari o‘quvchining |

Xulosa. Yuqoridagi fikrlar va qiyosiy tahlillardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, shaxsga asoslangan o‘qitishni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni o‘zida jamlagan, axloqiy maqsadga, yuksak mukammallikka erishish muammolarining yechimlari amalda sinab ko‘rishga qaratilgan, o‘z faoliyatini, o‘z-o‘zini anglash, faollashtirish, individual ta’limga yo‘naltirilgan, aniqlangan bir muammo ko‘lamiga ko‘ra muddat talab etiladigan, alohida tayyorlangan maxsus dastur asosida tashkil etiladigan yondashuv sifatida anglash imkonini beradi. Bu esa shaxsga asoslangan o‘qitishni tushunishga doir butun jarayon (o‘quv maqsadi, rejasi, mazmuni, shakllari, vositalari, dars jadvali, konsultativ faoliyat, monitoring, baholash), shuningdek, shaxsga asoslangan o‘qitish – muammoga asoslangan o‘qitish – loyihaga asoslangan o‘qitish – jarayonga asoslangan o‘qitish – natijaga asoslangan o‘qitish yondashuvlarida ifodalanishini anglatadi. E‘tiborlisi shundaki, o‘qitishning shu zaylda butun jarayonni qamrab olinishining taqozo etishi har bir ta’lim ishtirokchisiga tizim uchun yuqori sifat va yuqori standartlar yarata olishi nuqtayi nazaridan qarash mumkinligini bildiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Фридман Л.М. Концепция личностно-ориентированного образования // Журнал «Завуч», 2000. - № 8. - С. 78.

2. Shayzakova D.A. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar va zamonaviy usullar asosida kimyo fanini o‘qitish mazmunini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. - Samarqand, 2020. - 150 b.

3. Якиманская И.С. Технология личностно ориентированного образования. - М.: Сентябрь, 2000.

4. Hopkins, D. Personalized Learning in School Age Education // International Encyclopedia of Education (Third Edition), 2010.

5. «Reimagining the Role of Technology in Education: 2017 National Education Technology Plan Update». Retrieved Jan 19, 2017.

6. The Personalisation by Pieces Framework: A Framework for the Incremental Transformation of Pedagogy Towards Greater Learner Empowerment in Schools. 2006. ISBN 0954314743.

# MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGINING SHAXSIY VA KASBIY RIVOJLANISHI HAQIDAGI AYRIM MULOHAZALAR

***I.A.TESHABOYEV,***
*TDPU tayanch doktoranti*

*Maqolada ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning asosiy subyekti bo'lgan maktab amaliyotchi psixologning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalari tahlili va ularni rivojlantirish uchun tizimli takliflar ilgari surilgan.*
***Kalit so'zlar:** psixologik xizmat, maktab amaliyotchi psixologi, kompetensiya, tizim, ta'lim texnologiyasi, diskomfort, modulli dastur, monitoring.*

*В статье представлен анализ личностно-профессиональных компетенций практикующего школьного психолога, являющегося основным субъектом психологической службы в системе образования, и систематические предложения по их развитию.*
***Ключевые слова:** психологическая служба, практикующий школьный психолог, компетентность, система, образовательная технология, дискомфорт, модульная программа, мониторинг.*

*The article presents an analysis of the personal and professional competencies of a practicing school psychologist, who is the main subject of psychological service in the education system, and systematic proposals for their development.*
***Key words:** psychological service, practicing school psychologist, competence, system, educational technology, discomfort, modular program, monitoring.*

So'nggi o'n yilliklarda dunyo miqyosida rivojlanishning jadallashuvi, globalizatsiya jarayonining jamiyatning barcha tarmoqlariga kirib borishi ta'lim tizimi oldida turgan vazifalarni ham ma'lum darajada murakkablashtirmoqda. Xususan, ta'lim tizimidagi psixologik xizmat faoliyati ham bundan mustasno emas. Mazkur jarayon qanday vaziyatni vujudga keltirdi va qanday oqibatlarni prognoz qilish mumkin' Psixologik xizmat faoliyatining asosiy subyekti bo'lgan maktab psixologlarining faoliyati va ulardan talab etiladigan shaxsiy va kasbiy kompetensiyalar qanday o'zgarishlarga yuz tutmoqda?

Bir so'z bilan aytganda tobora rivojlanib, yangicha yondashuvlar bilan boyib borayotgan ta'lim tizimida maktab psixologining ishtiroki zarurligi anglab yetilmoqda. Borgan sari ta'lim tizimidagi psixologik xizmat oldida aniqroq aniq vazifalar paydo bo'lmoqda, ularning yechimlari maktab amaliyotchi psixologidan kutilmoqda. Shu munosabat bilan dunyo miqyosida ham maktab psixologi (school counselor, school psychologist) kasbi eng ko'p talab qilinadigan kasblardan biriga aylanib bormoqda[1].

Ma'lumki, so'nggi yillarda jadal rivojlanayotgan amaliy psixologiya sohasi barcha turdagi ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyati ko'rinishida amalga oshirilmoqda. Mazkur xizmat oldida turgan muammolarni quyidagicha ifoda qilishimiz mumkin: jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimining tez o'zgarib borishiga ta'sir qilmoqda, uning talablari va ehtiyojlari o'zgarmoqda, shu bilan bir qatorda maktab amaliyotchi psixologlari tomonidan hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar doirasi ham o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda 10-15 yil oldin tayyorlangan psixolog o'zi duch kelayotgan yangidan yangi spetsifikaga ega muammolarni hal qilishda qiyinchiliklarni boshidan o'tkazmoqda. Ularni har doim ham professional darajada yechishga muvaffaq bo'lishmayapti. Ta'lim tizimidagi ta'lim-tarbiya muammolarining keskinlashuviga mazkur jarayon ham ma'lum darajada o'zining ta'sirini o'tkazmoqda.

Shuni aytishimiz mumkinki, amaliy psixologiya sohasida maktab amaliyotchi psixologning shaxsiyati uning ish quroli hisoblanadi va ko'pincha psixoterapevtik usullardan kam bo'lmagan juda jiddiy rol o'ynaydi.

Amaliyotchi psixologning shaxsiy fazilatlari mutaxassisning professional muvaffaqiyati uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi fikrlarga ko'ra, chinakam professional psixologlar deb atash mumkin bo'lgan shaxslar har doim hayot va kasbning chambarchas uyg'unligiga, kasbiy faoliyat kontekstida intensiv izlanishlarga ega bo'lganlar.

Maktab amaliyotchi psixologining ishi doimo harakat qilish va rivojlanishni o'z ichiga oladi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, mazkur soha psixologlari doimo hissiy stressga duch kelishadi, chunki ular boshqa odamlarning qayg'usi, qo'rquvi, kayfiyati va depressiv holatlari bilan kurashishlari kerak. Shuningdek, bu vazifa yuqori darajadagi mas'uliyatni o'z ichiga oladi, chunki ruhiy ko'mak olayotgan shaxslar qanchalik tez o'zlarini yaxshi his qilishlari maktab amaliyotchi psixologning kasbiy va shaxsiy kompetensiyasiga bog'liq.

Ayrim tadqiqot natijalariga ko'ra amaliyotchi psixologda quyidagi fazilatlar bo'lishi kerakligi aytiladi[3]:

– yuqori aqliy va hissiy intellekt;
– bag'rikenglik;
– empatiya;
– kuzatuvchanlik;
– xushmuomalalik;
– mas'uliyat hissi;
– sir saqlash qobiliyati;
– stressga chidamlilik.

Bundan tashqari, amaliyotchi psixolog hissiy jihatdan ochiq bo'lishi kerak, chunki bu soha egasi mijozlar bilan ko'p muloqot qilishi, ularning dardi va

muammolarini bilib olishi kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, amaliyotchi psixologning shaxsiy e’tiqodi mijozlarga bo‘lgan munosabatiga ta’sir qilmasligi uchun xolis bo‘lishi kerak, chunki asosiy vazifa odamni psixologik muammolarini hal qilishga yordam berishdir. Unga o‘zining shaxsiy nuqtayi nazari bilan ta’sir o‘tkazmaslik kerak.

Maktab amaliyotchi psixolog uchun muhim kasbiy va shaxsiy xususiyatlardan biri shaxsning individualligini chuqur anglashdir. Psixologning mutaxassis sifatida o‘zining subyektiv dunyosi bilan bir qatorda obyektiv voqelik va o‘zgacha, betakror shaxsiyatlar mavjud ekanligini chuqur anglashi uning mutaxassis sifatidagi imkoniyatlarini kuchaytiradi.

Agar maktab amaliyotchi psixologi o‘zining subyektiv dunyosi bilan bir qatorda obyektiv voqelik ham mavjud va boshqacha ekanligini anglasa, ya’ni u bir-biriga mutlaqo o‘xshash odamlar yo‘qligini tushungan bo‘lsa, boshqa shaxslarning subyektiv dunyosiga baho bermasdan, ularni xulq-atvorining sabablari to‘g‘risida mulohaza yuritsa amaliyotchi psixolog sifatida olib boradigan faoliyati muvaffaqiyatli bo‘lishiga shubha yo‘q.

Maktab amaliyotchi psixologi uchun uning shaxsiyatidagi kommunikativ xususiyatlar, masalan, boshqa shaxslarni tushunish, shuningdek, ularga psixologik jihatdan ta’sir qilish qobiliyati katta ahamiyatga ega. Psixolog odamlar bilan ishlay olishi, ularning xarakterini tushunishi, nafaqat psixologik bilimga, balki kasbiy psixologik sezgiga ham ega bo‘lishi kerak.

Gap shundaki psixolog boshqa shaxslar psixik dunyosi sirlari bilan ishlaydi. Odamlar psixikasidagi diskomfort holatlari olamni o‘ta individual ravishda qabul qilish, tashqi dunyoga yetarli darajada moslashmaslik, boshqa odamlarning xulq-atvoriga haddan tashqari cyenzitivlik va adaptatsion yuklamalarni og‘ir qabul qilish natijasida hosil bo‘ladi. Amaliyotchi psixolog mazkur muammolarni boshqa shaxslar psixikasining o‘rganishning ratsional usullari yordamida tadqiq qilib, uning natijalariga suyanib individual korreksion dastur ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Shuni hisobga olgan holda, bag‘rikenglik va insonparvarlik psixologlarga xos bo‘lgan ahloqiy fazilatdir.

Maktab amaliyotchi psixologi odamlar bilan ishlashda o‘z fikrlarini aniq va lo‘nda shakllantirishi va ifodalashi, mehnatsevar, ochiq ko‘ngil, mas‘uliyatli, xushmuomala, jonkuyar, bilimdon va bag‘rikeng bo‘lishi muhimdir.

Maktab amaliyotchi psixologi hazil tuyg‘usiga, keng kasbiy bilimga ega bo‘lishi va bolalarni sevishi alohida ahamiyatga ega. Ish jarayonida turli shaxsiyatlar bilan muloqot qilish, ularning muammolari va qiziqishlarini tushunish, tahlil qilish, murosa topish kabi vazifalar kuzatuvchanlik va kasbiy bilimlar orqali muvaffaqiyatli amalga oshadi.

Yuqorida tilga olingan maktab amaliyotchi psixologlaridan talab qilinadigan

shaxsiy va kasbiy fazilatlar rivojlanishi uchun qanday ishlar amalga oshirilishi kerak‘ Mazkur savolga o‘zimizning ayrim javoblarimizni berib o‘tamiz.

Ta’lim tizimidagi psixologik xizmat rivojlanishining hozirgi bosqichida ko‘plab maktab amaliyotchi psixologlari kasbiy faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq bir qator muammolarni boshdan kechirmoqdalar, bu esa ularning kasbiy malakasi yanada oshirishni talab qiladi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun maktab amaliyotchi psixologlarining doimiy kasbiy va shaxsiy rivojlanishi, kasbiy kompetensiyasini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratish kerak bo‘ladi.

Maktab amaliyotchi psixologining kasbiy muammolarini hal etish uchun bir qator shartlar bajarilishi lozim. Birinchidan, maktab psixologining kasbiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashqi sharoitlarni (metodik ta‘minot, kasbiy malaka oshirish va boshqalar) tashkil etish zarur. Ikkinchidan, uning shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan qaratilgan chora-tadbirlar tizimini yo‘lga qo‘yish kerak.

Maktab amaliyotchi psixologlarining shaxsiy fazilatlari va kasbiy kompetensiyasini oshirish yo‘llarini ochib beruvchi maxsus tizimli tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish lozim. Bunda maktab psixologining kasbiy faoliyatini psixologik o‘rganish, uning shaxsiy va kasbiy kompetensiyasining tuzilishini aniqlash hamda ijtimoiy, psixologik, pedagogik komponentlarning mazmuniy xususiyatlarini ochib berishga e’tibor qaratish zarur.

Maktab amaliyotchi psixologlarining shaxsiy va kasbiy kompetensiyasidagi o‘zgarishlarni aniqlash indikatorlari va rivojlanish dinamikasini kuzatish tizimi ishlab chiqilishi kerak.

Maktab amaliyotchi psixologlarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tahlil qilish hamda ushbu mutaxassislarning kasbiy rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda psixologik nazariyani amaliy faoliyat bilan maksimal darajada birlashtirishga yo‘naltirilgan ta‘limiy shakl va usullardan foydalanish, o‘zgaruvchan modulli dasturlarni amalga oshirish, jarayonlarni interaktiv shaklga o‘tkazish, psixologik va pedagogik asoslangan monitoring orqali mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalari darajasining o‘sishini bosqichma-bosqich nazorat qilish zarur.

Maktab amaliyotchi psixologlarini tayyorlash va malakasini oshirish texnologiyasida o‘z-o‘zini anglash, ichki nazoratga moyillik, empatiya, izlanishga bo‘lgan ehtiyoj, kommunikativ va tashkiliy mahorat, xushmuomalalik darajasi va boshqalar kabi parametrlar bo‘yicha ko‘rsatkichlarni rivojlantirishga ustuvorlik berilishi zarur. Mazkur ta‘lim texnologiyasi mutaxassis shaxsini rivojlantirishga qaratilishi alohida ahamiyatga ega.

Yuqorida taklif etilgan maktab psixologlarini tayyorlash va malakasini oshirish

tizimiga qo‘shimcha ravishda ularning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni ham berib o‘tamiz:

– psixologik seminarlar va mahorat darslarida, ayniqsa bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlarga bag‘ishlangan seminarlarda qatnashish;

– ta’lim tizimidagi psixologlar faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy konferensiyalar va davra suhbatlarida ishtirok etish;

– yangi psixologik adabiyotlar bilan tanishish uchun kutubxona va kitob do‘konlariga muntazam tashrif buyurish;

– bola rivojlanishi va uning shaxsini o‘rganish muammolari bilan bog‘liq yangi usullar va tadqiqotlar bilan tanishish;

– oliy o‘quv yurtidan keyingi shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayonining uzluksizligini ta‘minlash.

Shunday qilib, bugungi kundagi ta’lim tizimida maktab amaliyotchi psixologi kasbi zarur, qiyin ammo qiziqarli.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Fagan T. K., Wise P. S. School psychology: Past, present, and future. - NASP Publications, 4340 East West Highway, Suite 402, Bethesda, MD 20814 (members, $61.75; nonmembers, $67.50), 2000.

2. Верняева Т. А. Профессионально-личностный портрет психолога. - 1997.

3. House R. M., Hayes R. L. School counselors: Becoming key players in school reform //Professional School Counseling. - 2002. - Т. 5. - №. 4. - С. 249.

4. Панферов, В. Н. (ред.), (2020) Введение в профессию: психолог. М.: Юрайт, 291 с.

5. Шмелева, И. А. (2010) Введение в профессию. Психология. М.: Эксмо, 61 с.

6. Р.В.Овчарова. Технологии работы школьного психолога с педагогическим коллективом: Учебное пособие - Курган: Изд-во Курганского гос. ун-та, 2006. - 183 с

7. https://zaochnik.com/spravochnik/psihologija/obschaja-psihologija/lichnostnye-kachestva-psihologija

# UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA BAHOLASH BO‘YICHA PEDAGOGIK FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH MUAMMOLARI

**Y.I.TURGANOV,**
Jizzax DPI o‘qituvchisi

*Bo‘lajak boshlag‘ich sinf o‘qituvchisining baholash kompetensiyasi samardorligi o‘quv-bilishga oid, informatsion, kommunikativ, ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlanganlik darajasi bilan ham belgilanadi. Shu ma’noda mazkur maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash faoliyatini rivojlantirish muammolariga e’tibor qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ta’lim tizimi, boshlag‘ich sinf o‘qituvchisi, baholash kompetensiyasi, informatsion, kommunikativ, ijtimoiy kompetensiyalar, kompetensiyaviy yondashuv.*

*The effectiveness of the evaluation competence of the future elementary school teacher is also determined by the level of development of educational, informational, communicative, and social competencies. In this sense, this article focuses on the problems of development of evaluation activities based on the competence approach.*

*Key words: educational system, primary school teacher, assessment competence, informational, communicative, social competences, competence approach.*

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimi oldida turgan vazifalarning asosiylaridan biri, so‘zsiz, hozirgi tez o‘zgarib borayotgan dunyoda mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, tizimli tahlil va samarali muloqatga qodir ijtimoiy va shaxsiy muammolarni mustaqil amalga oshira oladigan jamiyat a’zosi – shaxsni tayyorlashdan iborat.

Jahon oliy ta’lim tizimida ta‘lim sifatini ta’minlash borasidagi zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqib, mamlakatimizda pedagog kadrlar tayyorlash mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida tubdan takomillashtirish, xalqaro standartlar va milliy an’analar uyg‘unligida yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar, professional kadrlarni tayyorlash belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kotsepsiyasida «o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilagan metodika va texnologiyalarni joriy etish, akademik bilim va amaliy ko‘nikmalar bog‘liqligini mustahkamlash» kabi vazifalar alohida ta‘kidlab o‘tilgan.

Ushbu vazifalar pedagog kadrlar tayyorlash borasida sifat o‘zgarishlarini amalga oshirishni taqazo etadi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish yo‘llari, pedagogik ta’lim mazmuni, ta’lim jarayonini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirishni ko‘zda tutadi.

Bu borada quyidagilar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

– pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini kompetensiyalarni takomillashtirishga qaratilgan yondashuv va tamoyillar asosida tashkil etish, ta'lim mazmunini (DTS, o'quv reja, fan dasturlari) ilg'or jorijiy tajribalar asosida takomillashtirish;

– individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan o'quv dasturlarini shakllantirish, o'quv jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish;

– zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasi asosida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlash;

– bo'lajak o'qituvchilarda ilg'or xorijiy tajribalar va milliy an'analar hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalari integratsiyasi asosida ta'lim oluvchilarning o'quv yutuqlarini baholash kompetensiyalarini takomillashtirish.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish jahon miqyosida ta'lim sifatini oshirish va tayyorlash tiziminining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Xususan, jahon andozalari darajasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining baholash kompetentltgini takomillashtirish masalalari dolzarblashmoqda .

Biz turli manbalar tahlili asosida kompetensiya va kompetentlik bir qiymatli ta'rifga ega bo'lmagan murakkab, ko'pkomponentli va fanlararo tushunchalar ekanligini ta'kidlamoqchimiz. Tadqiqotchilar fikricha, ular hajmi, turkumi, mazmuni va mantiqiy tuzilmasi bo'yicha farqlanib, kompetentli shaxs tavsifi (xususiyatlari, boshqalar) sifatida qaralishi mumkin. Kompetentli shaxs tavsifi (xususiyati, odatlari va shaxs sifati, uning komponenti), shaxs tuzilmasida yaxlit ta'lim, shaxs xususiyatlari tizimi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash natijasida yuzaga keluvchi holatlar (tayyorgarlik, yo'naltirilganlik va boshqalar) sifatida ifodalanishi mumkin, ko'pincha esa, kompetentlik bilim va tajriba bilan tenglashtiriladi.

Ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarda kompetensiyaning quyidagi an'anaviy tasniflari qayd etilgan:

– javobgarlikni o'z zimmasiga olish, hamkorlikda qaror qabul qilishda ishtirok etish qobiliyatiga bog'liq siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar;

– madaniyati, tili va dinidan qat'iy nazar boshqa insonlar bilan yashashga, ularni tushunishga, ularga yordam berishga va o'zaro kelishmoqchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan, jamiyat hayotida uchraydigan kompetensiyalar;

– kasbiy faoliyatda va jamiyat hayotida muhim bo'lgan yozma va og'zaki muloqotga egalikni aniqlovchi kompetensiyalar;

– axborot jamiyatining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan kompetensiyalar (yangi texnologiyalarga ega bo‘lish va ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash).

Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartida kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga quyidagicha ta‘riflar berilgan:

– kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni ma’lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo‘llay olish;

– kompetentlik – shaxsning muayyan ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha olgan bilim, malaka va ko‘nikmalari hamda shakllangan shaxsiy hislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyatidir.

Kompetensiya ta’limning berilgan me’yori sifatida qaraladi, kompetentlik - bu muayyan sohada samarali va unumli faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsning sifati.

Kompetensiya – o‘qituvchining muayyan xatti-harakatlar standartlariga rioya qilish qobiliyati, ya‘ni ish qanday bajarilishi kerakligini o‘lchab beruvchi mezonlar majmuidir. Kompetensiyalar faoliyatning murakkab natijasini aks ettiradi va nafaqat bilim va ko‘nikmalarni (malakalarni), balki shaxsning shaxsiy xususiyatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Kompetensiya (vakolat)lar ta‘rifiga bir qancha yondashuvlar mavjud:

An’anaviy Amerika yondashuvi kompetensiyaning xulq-atvor xususiyatlarini aniqlashga karatilgan, va asosiy muammo – qanday shaxsiy xususiyatlar muvaffaqiyatli harakatlarni (yuqori ko‘rsatkichlar)olib kelishini aniqlab berishdir. Bunday holda, kompetensiya «samarali va muvaffaqiyatli (yuqori) harakatda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan va harakat kontekstiga, tashkiliy va atrof-muhit omillariga, kasbiy faoliyat xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan asosiy xulq-atvor jihati yoki xususiyati» deb tushuniladi. (Derous, 2000).

Amerikancha yondashuvda kompetensiyalar xodimlarning xulq-atvori namunasi sifatida ko‘riladi – agar xodim zarur ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lsa, yaxshi natijalarni namoyish etadi, deb hisoblanadi.

Yevropa ta’lim tizimida asosiy e’tibor shaxsiy xususiyatlarga emas balki faoliyat xususiyatlariga qaratiladi. Tadqiqotchilarni qiziqtiradigan asosiy muammo – belgilangan talablarga javob beradigan, erishilgan natijani hisobga olish uchun bajarilishi kerak bo‘lgan faoliyatning asosiy elementlari nimadan iboratligini bilish. Bunday holda, standartlashtirilgan testlar yoki malaka talablariga javob beradigan standartlarni aniqlash muhimdir. «Kompetentlikning standartlardan oshib ketishi muvaffaqiyatni ta’minlaydi» (Parry, 1996).

Yevropacha yondashuvda vakolatlar ish vazifalari va kutilgan ish natijalarining tavsifi, ya’ni qabul qilingan standartlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati sifatida ko‘rib chiqiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining muhim komponentlaridan biri – bu ta’lim sifatini, o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini baholashdir.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda ushbu tushunchaga turli tuman ta’riflar berilgan bo‘lib, ularni umumlashtirish natijasida xulosa qilish mumkin: baho – bu faoliyat turi bo‘lib, uning asosida standartlar talablari, ishlab chiqilgan va tasdiqlangan mezonlar, baholash ko‘rsatkich va indikatorlari yotadi. Ular asosida esa ta’lim obyektlari, shart-sharoitlari va natijalarini baholash tavsiflarini taqqoslash amalga oshiriladi.

Xulosa qilib ta’kidlash mumkin: kompetensiyaviy yondashuv ta’lim amaliyotida ta’lim natijalariga asosiy urg‘u berilishi bilan ajralib turadi va quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

– bo‘lajak kasbiy faoliyatning real sharoitlariga mos keladi;

– ta’lim natijalari kompetensiyalarda ifoda etiladi;

– baholash mohiyatan kompetensiyalar to‘g‘risidagi xulosalar ko‘rinishida tus oladi;

– amaliy ko‘nikmalarni baholash birlamchi ahamiyat kasb etadi va talabalar mobilligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Usarov, S., & Mirsaidova, G. (2021). Ta’limda kompetentli yondashuv. kompetentlik va kompetensiya haqida. Журнал математики и информатики,

2. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно - ориентированной парадигмы образования [Текст] / А. В. Хуторской // Народное образование. - 2003. - № 2. - С. 58-64.

3. https://ruslit.jspi.uz/index.php/matinfo/article/view/1197 https://zaochnik.com/spravochnik/pedagogika/teorija-obuchenija/kompetentsija-i-kompetentnost-v-pedagogike/

# O'QUVCHILARNING MAKTABGA MOSLASHUVINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

**S.I.QULMAMATOV,**
GulDPI pedagogika kafedrasi dotsenti,p.f.n.,
**J.J.BEKBOLAYEV,**
GulDPI pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

*Bugungi kunda yurtimizda ta'lim tizimidagi sifatga berilayotgan e'tibor har qachongidan ham kuchayib bormoqda. Bu borada maktablardagi boshlang'ich ta'lim tizimidagi o'quvchilarning ham ta'lim olishi va boshlang'ich sinfdagi moslashuvchanlik esa o'z dolzarbligini hali-hanuz yo'qotmagan. Mazkur maqolada shuningdek boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktabga moslashuvining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida ilmiy mulohazalar o'rin olgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Boshlang'ich sinf, moslashuv, o'quvchi, rolli o'yinlar, o'qituvchi, qaror qabul qilish, bilim, ota-ona, hamkorlik.*

*Сегодня внимание выделяющее к качеству системы образования в нашей стране усиливается как никогда. В связи с этим не утратило своей актуальности и обучение учащихся в системе начального образования в школах, и гибкость в начальных классах. В данной статье также содержатся научные рассуждения о социально-психологических особенностях школьной адаптации учащихся начальных классов.*

***Ключевые слова:*** *начальный класс, адаптация, ученик, ролевые игры, преподаватель, принятие решений, знания, воспитание детей, сотрудничество.*

*Today, the given attention to the quality of educational system in our country is increasing more than ever. In this regard, the teaching of pupils in the primary education system in schools and flexibility in the first grade have not lost their relevance. This article also contains scientific arguments about the socio-psychological features of school adaptation of primary school students.*

***Key words:*** *primary class, adaptation, student, role-playing games, teacher, decision-making, knowledge, parenting, cooperation.*

Maktabning boshlanishi har bir bola va uning ota-onasining hayotida muhim ahamiyatga ega. Odatda, 6-7 yoshdagi bolalar o'quvchi deb atalmish maqomiga qiziqish bildiradilar va bu rolga intilishga tayyor bo'lishadi. Biroq, bu tayyorlik va bolaga maktab bilan bog'liq bo'lgan barcha tasavvur va umidlar ko'pincha har bir yangi birinchi sinf o'quvchisi muqarrar ravishda duch keladigan stress devoriga qarshi sindiriladi.

«Hayot sharoitida, kun tartibida, yetakchi faoliyat turida o'zgarish barcha tana resurslarining katta shafqatsizligini talab qiladi» – deydi yosh davrlar tadqiqqotchisi D.B.Elkonin[3].

Qolaversa, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan syujetli rolli o'yinlar orqali darslarni tashkil qilish muhimligini ham unutmasligimiz kerak bo'ladi.

Syujetli asosda o‘tkazilgan darslar orqali o‘quvchi «bola» ekanligini va talab juda katta emasligini ongosti sohasi orqali sintez qilar ekan, bu unga maktab va undagi o‘qituvchi ana shu syujet ichidagi bir epizod vazifasini o‘taydi[1]. Germaniyalik olima ayol A.Anastaziyning yuqoridagi fikriga ko‘ra ham biz o‘tkazgan tadqiqotlar aynan bizning maktablarda ham qo‘llanilib keladi faqat juda ham ko‘p emas. Sababi, ayrim boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari har qaysi fandan bilimli bo‘lishi mumkin, ammo dars o‘tish uning yosh davrini hisobga olib ana shunday syujetli – rolli o‘yinlar asosida tashkil qila olmasligi ayon bo‘ldi. Agarda o‘qituvchi uning qanday o‘tkazish tartibini bilmas ekan, uning darsi «o‘yin» darsiga yoki jismoniy tarbiya darsiga ham o‘xshab ketishi mumkin.

Shuningdek, darslardagi boshlang‘ich berilayotgan bilimlar o‘quvchini to‘laqonli olimga aylanishini kutish bu fan o‘qituvchisining eng katta xatosi hisoblanadi, buning uchun o‘quvchilarda yetarli tasavvurlar va ko‘nikmalarni shakllantirilsa kifoya[4].

Biz o‘tkazgan tadqiqotlarimizni E.G‘.G‘oziyevning bir qator ilmiy nazariy ma’lumotlari orqali olib borish natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarni «qoniqarli darajada o‘qiydimi demak u shunday uni o‘zgartirib bo‘lmaydi» kabi tushunchalar bilan dars o‘tishlariga guvoh bo‘ldik va bir sinfdan ana shunday «qoniqarli» o‘qiydigan o‘quvchilar bilan olib borgan tajribalarimizda ularga «Tabiiy fanlar» darsligidagi tog‘lar mavzusida aynan tog‘larning ko‘plab rasmlari va qiziqarli ma‘lumotlari bilan tushuntirganimizda ularda mana shu mavzudan «a’lo» bahoda o‘zlashtirishi mumkin ekanligini qayd etdik.

Psixologiya fanlari doktori U.Qodirov «Yosh davrlarining eng muhim bosqichi boshlang‘ich sinf bosqichidir. Chunki endi bolaga muhim hayotiy va kelajak bilimlari beriladi. Qaror chiqarish va qarorlarni qabul qilish esa bu ham mana shu davr uchun muhim jarayonligini unutmaslik kerak[5].

Qaror chiqarish va qabul qilish borasidagi ilgari surilgan mazkur mulohazani biz o‘z tadqiqotlarimizning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shu kabilar ma‘lum bo‘ldi-ki, o‘quvchi uchun qaror chiqarish bu o‘ta qiyin masala ekanligi, ammo sho‘x, tempramenti va xarakteridan kelib chiqib o‘quvchilarning qaror chiqarishi va qabul qilishlari turlicha bo‘lishi aniqlandi. Masalan, sangvinik va xolerik tempramentli o‘quvchilar uchun qaror chiqarish juda ham tez va aniq bo‘ladi. Ular nimani xohlashi va qiziqishini, nima yoqmasligini o‘z vaqtida aytishini o‘z tajribalarimizda aniqladik.

Bundan ko‘rinib turibdiki, birinchi sinf o‘quvchilarini maktabga moslashtirish aslida qancha vaqt mobaynida moslashuvi borasidagi izlanishlarimiz va ilmiy mazariy o‘rganishlarimiz natijalari M.G.Davletshin tomonidan bildirilgan fikrlar o‘z tasdig‘ini topmoqda, yani bu 2 oydan 6 oygacha davom etadigan va uch

asosiy komponentdan iborat bo‘lgan bosqich va davrlardan iborat ekan[2]:

1. Birinchi sinf o‘quvchilarining psixologik moslashuvi. Maktab jamoasida bolaning o‘zi ham o‘zini shaxs sifatida his qila boshlaydi. U o‘z-o‘zini baholash, maktabda muvaffaqiyatga erishish uchun talablar darajasini, boshqalar bilan xatti-harakatlar normalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, muhim bir nuqta, o‘yin faoliyatidan, yetakchi sifatida, o‘quv faoliyatiga o‘tishdir. Barcha bolalarda boshlang‘ich akademik tayyorgarlikning turli darajalari bor, shuning uchun ham psixologik noqulaylik paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun birinchi sinf o‘quvchilarini moslashtirish davrida belgilardan saqlanish yaxshiroqdir.

2. Birinchi sinf o‘quvchilarini maktabga moslashtirishning ijtimoiy xususiyatlari. Bolaning yangi jamoaga moslashishi, muloqot qilishni o‘rganishi, paydo bo‘lgan odamlarning muammolari va nizolarni hal qilish. Bolaga muloqotda bo‘lgan qiyinchiliklarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish va ularni bartaraf etishga yordam berish kerak.

3. Birinchi sinf o‘quvchilarining fiziologik moslashuvi. Tadqiqotlar bolaning hayot tarzida, shu jumladan, jismoniy jihatdan tubdan o‘zgarishlarga olib keladi. Bolaning uzoq vaqt davomida bir joyda o‘tirishi odatiy holdir, odatiy jismoniy faoliyati va harakat erkinligi yo‘q. Kunlarning rejimini to‘g‘ri tashkil etish, vazifa, yuklamalarni tez-tez almashtirib turish muhimdir.

Darhaqiqat, kichik maktab yoshidagi o‘quvchida mustaqil irodaviy faoliyatga nisbatan bo‘lgan tayyorlik bilan xatti-harakatlarning mavjud vaziyatga yoki bevosita ichki kechinmalarga bog‘liqligi o‘rtasida ziddiyat mavjud bo‘lsa, o‘smirlarda esa eng kuchli ziddiyatlar bir tomondan, uning o‘ziga-o‘zi baho berishi va o‘z talablari darajasi va ikkinchi tomondan, atrofdagilarning unga nisbatan bo‘lgan munosabatlari haqidagi ichki kechinmasi o‘rtasida mavjud bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Anastazi A. Psixologicheskoe testirov 2- tomax. M., 2012.

2. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya.Toshkent 2002.

3. Karimova V.M., Akramova F. Psixologiya. T., 2000.

4. R.Yu.Toshimov, E.G‘.G‘oziyev. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. T., 2004.

5. Sariboyeva U. Yosh davrlari psixologiyasi. O‘quv uslubiy qo‘llanma. Angren-2005.

# КОГНИТИВНЫЙ МЕТОД МУЗЫКАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

***З.АБДУРАЗЗОКОВА,***
*преподаватель Института национального эстрадного искусства имени Б.Закирова при ГКУз*

*Данная статья посвящена рассмотрению когнитивного метода музыкального развития детей дошкольного возраста.*
***Ключевые слова:*** *когнитивный метод, музыка, интерес, песня, развитие, ритм, мелодия.*

*Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy rivojlanishining kognitiv usulini ko'rib chiqishga bag'ishlangan.*
***Kalit so'zlar:*** *kognitiv usul, musiqa, qiziqish, qo'shiq, rivojlanish, ritm, ohang.*

*This article is devoted to the consideration of the cognitive method of musical development of preschool children.*
***Key words:*** *cognitive method, music, interest, song, development, rhythm, melody.*

Музыкальное образование и воспитание детей дошкольного возраста является одним из актуальных направлений в системе непрерывного образования, требующим всестороннего изучения. Именно в этом возрасте формируются личностные качества, характер человека, что обусловливает особую значимость методов обучения и воспитания, в частности, музыкального, развивающего творческие способности. Президент нашего государства Шавкат Мирзиёев подчёркивает: "Сегодня жизнеутверждающий призыв: «Наши дети должны быть сильнее, умнее, мудрее и «конечно же», счастливее нас!». Этот призыв занял прочное место в сознании и сердце каждого из нас, родителей и широкой общественности» [1, с. 39-40].

Система непрерывного образования играет основополагающую роль в становлении, развитии и совершенствовании личности, и, особенно, начальный этап системы – дошкольное образование и воспитание. Обращение к когнитивному методу музыкального развития детей дошкольного возраста позволяет ставить и решать проблемы, связанные с творческими интересами детей, стремящихся к познанию окружающего мира. Очень важно, учитывая детские интересы, манипулировать ими в направлении позитивных координат. «Общим психологическим правилом выработки интереса, – писал Л.Выготский, – будет следующее: для того, чтобы предмет нас заинтересовал, он должен быть связан с чем-либо интересующим нас, с чем-либо уже знакомым, и вместе с тем он должен всегда заключать в себе некоторые новые формы деятельности, иначе он останется безрезультатным» [2, с. 104].

Исходя из этого умозаключения известного психолога, следует чётко и логично организовывать процесс познания окружающего мира, связывая его с образовательными и воспитательными целями и задачами.

Применение когнитивного метода музыкального развития детей дошкольного возраста имеет творческий характер. Оно должно быть направлено на выявление интересов детей и вовлечение их в сферу игрового процесса: «Играя, ребёнок упражняется в движении, осваивает его в процессе игры, развиваются положительные качества личности ребёнка, через игру он познаёт жизнь» [3, с. 46]. В сфере музыкального развития понятие игры приобретает мультикультурный ракурс и тем самым приобретает познавательный смысл. Игра детей на музыкальных инструментах, предназначенных для обучения в дошкольных образовательных организациях, преимущественно связана с движением. Музицирующие дети образуют своеобразный детский камерный оркестр, где дети играют на барабанах, свистульках, кайраках и маршируют в ритмических организованных формах, сопровождая свои шествия песнями. Таким образом они познают специфику и функциональную сущность коллективного музыкального исполнительства, обретают социализацию. Игровой процесс приобретает квазипрофессиональный статус, пробуждает интерес и желание детей выступать на концертной сцене, участвовать в музыкальных конкурсах и фестивалях. Играя в оркестре, танцевальные движения являются эффективными средствами познания окружающего мира через конкретную творческую деятельность, развиваются положительные качества личности ребёнка, укрепляя физическое здоровье, и формируется позитивное мировосприятие.

Параллельно с игрой незаметно и ненавязчиво в процесс общения с детьми вводятся элементы обучения, связанные с освоением музыкальной грамоты, таких элементарных понятий, как звук, тон, нота, метр, ритм, лад. Постепенное включение в процесс музыкальных занятий профессиональных терминов и понятий обогащает знания и духовный мир ребёнка.

Введение детей в звуковой мир целесообразно начинать с ознакомления с отдельными звуками, сопоставляя их по принципу полярности: высокие – низкие, короткие – долгие, мягкие – жёсткие на основе слуховых отношений. Когда эти элементарные знания усвоены, то можно перейти к освоению простых интервалов - мелодических и гармонических. Так, постепенно и поэтапно дети познают основополагающие компоненты музыкальной речи, как инструментальной, так и вокальной.

Учитывая быструю утомляемость детей, необходимо часто чередовать информацию музыкально-теоретического плана с ритмическими упражнениями и играми, являющимися неотъемлемой составляющей частью музыкальных занятий. Цель этих упражнений и игр напрямую связана с теоретическими основами музыки. Хлопки в ладоши простейших ритмормул активи-

зируют внимание детей и включают в процесс обучения движения, что очень важно. Ритмичные движения являются очень эффективной технологией музыкального развития. Они аккумулируют энергию, организуют её и снимают напряжение, улучшают кровоток и позитивное настроение. Богатые возможности применения разнообразных индивидуальных методических подходов превращают музыкальное занятие в увлекательное театрализованное шоу, где дети раскрепощаются и незаметно для себя обретают теоретические знания и практические навыки. Способность детей быстро усваивать информационный материал позволяет сформировать огромный комплекс представлений о музыкальном искусстве, его специфике и выразительных средствах. От распознавания качественных свойств отдельных звуков переход к мелодическим структурам позволяет сосредоточить внимание детей на таких дилеммах, как – медленно – быстро, тихо – громко, грустно – весело, что очень эффективно способствует когнитивному развитию личности.

Когнитивный метод музыкального развития формирует инновационность творческого мышления детей, обусловливает потребность сочинять музыку, играть на музыкальном инструменте, петь, танцевать. Познание природы музыкального звука, его возможностей, тембровых красок открывают детям широкое пространство творчества, всевозможных инноваций. Игровые формы творческого процесса создания музыки как способа познания звукового мира открывают детям широкие горизонты раскрытия их способностей. Юные композиторы, музыканты-исполнители, артисты ощущают себя познающими мир творчества, открытия новизны в искусстве и самопознания своей личностной самоценности. Таким образом уже в раннем возрасте посредством когнитивного метода музыкального развития проявляются творческие задатки личности.

Сфера музыкального творчества – это не только познание звуковых возможностей и выразительных средств, но и самопознание, ведущее ребёнка к самореализации личности. Применение когнитивного метода музыкального развития детей обогащает дошкольное музыкальное образование и воспитание творческим духом познания нового, инновационной сущностью движения мысли.

**Литература:**

1. Мирзиёев Ш.М. Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. - Ташкент: Узбекистан, 2016. - 56 с.

2. Выготский Л.С. Педагогическая психология. - Москва: АСТ: Астрель: Хранитель, 2008. - 671 с.

3. Халилов Ф.Н., Хасанова Н. Проблемы, связанные с процессом музыкально-ритмического обучения детей школьного и дошкольного возраста // Uzluksiz ta'lim. - Toshkent, 2018. - 2-son. - B. 45-48.

*Jurnalning ushbu sonini*
*tayyorlashda qatnashganlar:*
*L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan*
*03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan*
*ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK rayosatining 2013 yil 30 dekabrdagi 201/3-sonli qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi 6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 06.02.2023 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.**
**Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**